

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

DIJOROM SODIQOVA

**MUSLIHABEGIM MISKIN SHE'RIYATI
POETIKASI**

Toshkent - 2023

KBK: 84.10(5O'zb) S-17

UO'S: 678.841.623.15

Ushbu monografiyada XIX asr Buxoro adabiy muhitida Muslihabegim Miskindek o'zbek va tojik tillarida ijod etgan, iste'dodli sohibdevon, zullisonayn shoira mavjudligining nihoyatda noyob adabiy hodisa ekanligi shoira she'riyati tahlili misolida ko'rsatib o'tilgan. Miskin ijodi misolida davr adabiyotida lirik janrlar taraqqiyoti, shoira zullisonaynlik an'anasing davomchisi ekanligi, uning o'ziga xos ijodiy uslubi, badiiy mahorati, she'riyatining mavzusi va obrazlar olami tahlilga tortilgan. Muslihabegim Miskin she'riyatida ishq mavzusi talqinining ilohiy-irfoniy mohiyat kasb etishi, undagi an'anaviy obraz, ramz va timsollarining poetik funksiyasiga e'tibor qaratilgan.

Monografiya adabiyotshunoslik, mumtoz adabiyot tarixi, tasavvufshunoslik, navoiyshunoslik kabi soha tadqiqotchilari, oliy ta'lim muassasalarining filologiya fakulteti talabalari, magistrantlar, ona tili va adabiyoti fani o'qituvchilari va mumtoz adabiyot ixlosmandlariga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Husniddin Eshonqulov

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Taqrizchilar:

Usmon Qobilov

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Zilola Amonova

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Texnik muharrir:

Shoirbek Sunnatillayev

Monografiya Buxoro davlat universiteti Ilmiy-texnik kengashida muhokama qilinib (2023- yil 29-noyabrdagi 4-sonli yig'ilishi bayonnomma, tartib raqami 3/15) nashrga tavsiya etilgan.

(S) ISBN 978-9910-744-91-0

(S) Fan Ziyosi - 2023

(S) Duna poligraf xususiy korxonasi

*Ushbu kitob onajonim Ergashoy Jumayevaning
porloq xotiralariga bag‘ishlanadi.*
Muallif

KIRISH

Jahon adabiyotshunosligida o‘z e’tiqodiy qarashlariga tayanib, ilohiy-irfoniy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-ta’limiy qarashlarini badiiy aks ettirgan ijodkorlar asarlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Milliy qadriyatlarga asoslanib, lirk turning xilma-xil janrlarida ijod qilgan, an’anaviy motivlar badiiy talqinida o‘ziga xos uslubi bilan yashagan davridayoq sohibdevon shoir sifatida tanilgan muayyan ijodkorning poetik mahoratini birlamchi manbalar tahlili asosida belgilash, uning she’riyatidagi mavzular, obrazlar olami, janriy rang-baranglikni tavsif va tasniflash, badiiy kashfiyotlarini poetik talablar asosida ko‘rsatib berish dolzarb hisoblanadi.

Dunyo adabiyotshunosligida muayyan mumtoz ijodkorning poetik mahorati masalasi uning shaxsiyati va ijodining uyg‘unligi, yashagan davrining ijtimoiy-siyosiy voqeysligi, asarlarida ifodalangan bibliografiyasi, ijodiy merosida e’tiqodiy qarashlarining aks etishiga tayanilgan holda tadqiq etilmoqda. Bu esa, avvalo, shoir devonlarini qiyosiy o‘rganib, uning ijodiy merosining ko‘لامи, janriy tarkibini aniqlashni taqozo qiladi. Bularning bari shoirning turli lirk janrlarda ijod etish mahoratini tarixiy-badiiy jihatdan tahlil qilish, adabiy an’anaga munosabati, o‘ziga xos uslubi va poetik mahoratining turli qirralarini ilmiy dalillashda ahamiyatlidir.

E’tiqodiy qarashlariga tayanib, o‘zbek va tojik tillarida ijod etgan, sohibdevon shoira Muslihabegim Miskinning XIX asr Buxoro adabiy muhitida shakllanib, o‘zidan salmoqli ijodiy meros qoldirgani nihoyatda noyob adabiy-estetik hodisadir. Uning ijodini teran o‘rganib, bu iste’dodli shoiraning davr adabiyoti tutgan o‘rnini belgilash adabiyotshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib kelmoqda. O‘rinli ta’kidlanganidek, «Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebahो merosi, yengimas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixon tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak»¹. Shu jihatdan iste’dodli zullisonayn shoira sifatida tanilgan, tasavvufiy bilimlari

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги «Тараққиёт йўлимизнинг шиддати янада ошаверади» мавзусидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси// Халқ сўзи, 2018 йил, 29 декабрь.

teran shakllangan, «Miskin» taxallusi bilan mumtoz lirikaning o‘ndan ortiq janrlarida ijod etgan Muslihabegim she’riyatini zamonaviy tahlil metodlari yordamida tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Istiqlol yillarida tasavvuf va mumtoz sharq poetikasi, badiiy mahorat masalalari tadqiqiga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlar yuzaga keldi. Jumladan, B.Valixo‘jayev, A.Hayitmetov, N.Komilov, R.Vohidov, H.Ne’matov, M.Mahmudov, I.Haqqulov, S.Hasanov, H.Qudratillayev, M.Muhiddinov, M.Imomnazarov, A.Quronbekov, S.Hasanov, A.Abduqodirov, D.Salohiy, N.Jabborov, S.Olimov, N.Jumaxo‘jayev, Sh.Sirojiddinov, Sh.Hayitov, K.Mullaxo‘jayeva, U.Qobilov, U.Jo‘raqulov, D.Yusupova, H.Eshonqulov, N.Bekova, M.Rajabova, N.Bozorova, Z.Mamadaliyeva, Z.Amonova, O.Davlatov, M.Asadov, R.Jumayev, Z.G’afforova kabi adabiyotshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlari, asarlari bunga misol bo‘la oladi².

² Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. I жилд. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 2002-317б., Шу муаллиф: Мумтоз сиймолар. II жилд. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 2002.-317б; Ҳайитметов А. Навоийхонлик сұхбатлари. –Тошкент: “Ёзувчи”, 1993,-216б. Шу муаллиф. Темурйлар даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: “Фан”, 1996.-160б; Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: “Мовароуннахр” – “Ўзбекистон”, 2009.-448б. Шу муаллиф. Хизр чашмаси. – Тошкент: “Маънавият”, 2005. Маънолар оламига сафар. –Тошкент: “TAMADDUN”, 2002; Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро: “Бухоро”, 1994.-208б; Воҳидов Р., Неъматов X., Махмудов М. Сўз бағридаги маърифат. –Тошкент: “Ёзувчи”, 2001,-114б; Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtоз adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2008. – Б. 197-438; Ҳакқулов И.Ч. Ўзбек тасаввуф адабиётининг шаклланиши ва тараққиёти: Филол. фанлари докт. дисс. – Тошкент: 1995., Ҳакқул И. Тасаввуф ва шеърият. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991.-184б. Шу муаллиф. Тасаввуф сабоклари. – Бухоро: “Бухоро”, 2000; Навоийга кайтиш.–Тошкент: “Фан”, 2007,-224б. Тақдир ва тафаккур. – Тошкент: “Шарқ”, 2007.-336б; Ҳасанов С. Навоийнинг етти тухфаси. – Тошкент: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991б-192б. Кудратуллоев X. Навоийнинг адабий-естетик қарашлари. – Тошкент: 77 нашр, 1991; Мухиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: “Маънавият”, 2005б-208б; Имомназаров М. XXI аср. Навоийшуносликка кириш. Тошкент: ТДШИ, 2018; Қуронбеков А. Ҳофиз ғазалиётида маънолар силсиласи. – Тошкент: “Фан”, 1994; Қуронбеков А. Ҳофиз асрорининг етти пардаси. – Тошкент: ТДШИ, 2009; Қуронбеков А. Алишер Навоий “Хамса”си уммонидан қатралар. – Тошкент: ТДШИ, 2017; Абдуқодиров А. Тасаввуф ва Алишер Навоий ижодиёти (Ваҳдат ул-вужуд проблемаси бўйича). Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент: 1998.-279б; Салоҳий Д. Навоий насида тасаввуф. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1995.-86б; Шу муаллиф. Ҳуррият ҳарорати. – Тошкент: “Фан”, 2007; Тасаввуф ва бадиий ижод. – Самарқанд: Самарқанд давлат университети, 1995.-184.; Жабборов Н. Маърифат надир? – Тошкент: “Маънавият”, 2010; Жабборов Н. “Илм андоғ ганжи ноғиъдур...” // “Шарқ юлдузи”, 2002.№ 3.– Б.150-151; Жабборов Н. Ой ҳам ибодат киладими??// “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 2005 йил, 28 октябрь; Олим С. Ишқ, ошиқ ва маъшук. – Тошкент: “Фан”, 1992.-80б; Нақшбанд ва Навоий. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1996.-216б; Жумахўжа Н. Сатрлар силсиласидаги сехр. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1996; Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик ва текстологик таҳлили. – Тошкент: Академнашр, 2001, Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik (1-kitob). – Toshkent: “Tamaddun”, 2018.-576б; Ҳайитов Ш. Алишер Навоий “Махбуб ул-кулуб” асарининг манбалари ва ғоявий-бадиий таҳлили. Филол. фанлари номз... дисс. – Тошкент, 1997. Шу муаллиф. “Махбуб ул-кулуб”да тасаввуфий жилолар. – Тошкент: “Фан”, 1998; Жавонмардлик ҳақиқати. – Тошкент: “Фан”, 2005; Муллахўжаева К.Т. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадиий санъатлар уйғунлиги (“Бадоєъ ул-бидоя” девони асосида). Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2005.-26б; Қобилов У. Илоҳиёт ва бадиият. – Тошкент: “Низол”, 2008; Шу муаллиф. Ўзбек адабиётида нубувват талкини ва образалари талкини. Филол. фанлари докт. дисс. автореф. – Самарқанд, 2019.-76б; Жўракулов У.Ҳ. Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси. Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 2017.-218б; Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг ўзаро уйғунлиги. – Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z”, 2001.-144б; Эшонқулов X. Алишер Навоий шеъриятида самовий тимсоллар (“Бадоєъ ул-бидоя” ва “Наводир ун-ниҳоя” девонлари асосида). Филол. фанлари номз... дисс. – Самарқанд, 1999. Шу муаллиф. Самовот – ишқ мазҳари. – Тошкент: Фан, 2008; Шу муаллиф. Алишер Навоий ғазалиётида ишқ поэтикасининг қиёсий-типологик таҳлили (“Хазойин

Muslihabegim Miskin hayoti va ijodiy faoliyati yaxlit tadqiqot manbayi sifatida o‘rganilmagan bo‘lsa-da, «O’zbek Sovet ensiklopediyasi»³, Sharq qo‘lyozmalari kataloglari⁴, shuningdek, ayrim ilmiy tadqiqot⁵ va maqolalarda⁶ shoiraning shaxsi, hayoti va ijodiga doir muayyan taassurotlar o‘z ifodasini topgan. M.Qodirova ilk bor O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida 972/1 inventar raqami ostida saqlanayotgan shoira devonida uning yetti ming misradan ortiqroq she’rlari jamlanganligi, shuningdek, devonda Husayn va Fotima haqidagi nasrda bitilgan rivoyat va «G’ornoma» asari mavjudligiga e’tiborni qaratgan. H.Eshonqulov va D.Sodiqovalarning shoira haqidagi risolasida⁷ esa masalaning birmuncha kengroq o‘rganilganligi kuzatiladi. Muslihabegim Miskinning tarjimayi holi, devonlarining janriy tarkibi, shoiraning badiiy mahorati masalalarini yaxlit ilmiy-monografik tadqiqot doirasida o‘rganish adabiyotshunosligmizdagi tadqiq etilmagan o‘rinlarni to‘ldirish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir.

Adabiyotshunoslikda Muslihabegim Miskin hayoti, adabiy merosining o‘rganilishi masalasini yoritish va shoiraning tarjimayi holi, O’zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 1962, 972/1, 1277-raqamli devonlarining ko‘lami, janriy xususiyatlarini qiyosiy tadqiq etib umumlashtirish, shoira she’riyatining mavzular mundarijasini aniqlash va janriy tarkibini ochib berishga e’tibor qaratildi. Ayni chog‘da shoiraning lirik janrlarda ijod etish, xususan, uning g‘azalnavislik, musammatlar, mulamma’lar hamda she’riy hikoyatlar bitishdagi badiiy mahoratini ilmiy asoslashga harakat qilindi.

ул-маоний” мисолида). Филол. фанлари докт. дисс. – Самарқанд, 2020; Бекова Н. Алишер Навоий шеъриятида ҳамд поэтикаси. – Тошкент: “Фан”, 2006; Ражабова М. Алишер Навоийнинг шеърий дурдонаси. – Тошкент: Фан, 2008; Бозорова Н. Алишер Навоий ғазалларида кўнгил образи. – Тошкент: “Фан”, 2009; Мамадалиева З.У. “Лисон ут-тайр” достонидаги рамзий образлар тизими: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2011; Амонова З. Хуруфийлик ва бадиий ижод. – Тошкент: “PARADIGMA”, 2017; Давлатов О.Д. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларнинг бадиий талқини: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори автореферати. – Самарқанд, 2017; Асадов М. Ўзбек мумтоз адабиётида риндана маъно ва лирик қаҳрамон характеристи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. – Тошкент, 2017; Жумаев “Маснавии Маънавий” ва “Лисон ут-тайр”даги ҳикоятларнинг қиёсий таҳлили. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори автореферати. – Самарқанд, 2018. Faффорова З. Алишер Навоий ҳамд ва наът ғазалларининг гоявий-бадиий талқини. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори автореферати. – Самарқанд, 2018.

³ Ўзбек Совет энциклопедияси. 7-том. Тошкент: Ўзбек Совет энциклопедияси бош редакцияси, 1976, 282-б.

⁴ Диван Мискина. Собрание восточных рукописей академии наук Узбекской ССР. Том XI. Ташкент: «Фан». 1987. -с.219. Диван поэтессы Мискины. Каталог фонда института рукописей, том I. Ташкент.:«Фан».1989. -с.129.

⁵ Кодирова М. XIX аср ўзбек шоирлари ижодида инсон ва халқ тақдири. Тошкент: «Фан», 1977, 168-169-б.

⁶ Сафаров О. Шоира Мискинни биласизми? // «Бухоро ҳақиқати», 1996, 27-январь, 3-б.; Сафаров О., Сафарова Х. Муслихабегим Мискин// «Қалб кўзи», 1997, 2 апрель, 3-б.; Сафаров О., Сафарова Х. Муслихабегим ҳаёти ва ижоди// «Нақшбандия», 2012, 9-сон, 34-36-б.; Сафаров О., Сафарова Х. Муслихабегим Мискин ҳаёти ва ижоди ҳақида// «Ўзбек тили ва адабиёти», 2012, 3-сон, 43-46-б.; Нуриддинов Ш. Икки Мискин// «Ўзбек тили ва адабиёти», 2010, 6-сон, 80-82-б.

⁷ Эшонкулов X., Содикова Д. Муслихабегим Мискин. – Бухоро: Дурдана, 2012. – Б.54

Shu o‘rinda cheksiz ehtirom bilan quyidagi tilaklarni aytishni joiz deb topdik. Buxorolik iste’dodli zullisonayn shoira Muslihabegim Miskin adabiy merosini ilmiy tadqiq etishga e’tiborimizni qaratgan ustozimiz, taniqli adabiyotshunos, filologiya fanlari doktori, professor Vohidov Rahim Jo‘rayevichning oxiratlari obod, munavvar ruhlari shod bo‘lishini istab qolamiz. Shuningdek, mazkur ishning yuzaga kelishida o‘zining beminnat yordamini, maslahatini ayamagan, ilmiy rahbarim, fidoyi ustoz, filologiya fanlari doktori, professor Eshonqulov Husniddin Pirimovichga cheksiz minnatdorchiligidimizni bildiramiz.

I BOB. MUSLIHABEGIM MISKIN ADABIY MEROSI VA SHE'RIYATINING JANRIY XUSUSIYATLARI

1.1. Muslihabegin Miskin she'riyatida shoira hasbi holining ifodalanishi

Muslihabegin Miskin XIX asr Buxoro adabiy muhitida yashab ijod etgan iste'dodli zullisonayn shoira. Ijodkorning o‘z ismiga ohang jihatidan muvofiq tushuvchi «Miskin» taxallusi bilan ijod qilgani ham uning yuksak qobiliyat egasi ekanligiga ishora qiladi. Turk olimi Baytulloh Oqtosh «kambag‘al», «muhtoj», «ehtiyojmand», «bechora», «notavon», «faqir» singari ma'nolarni anglatuvchi «Miskin» so‘zining Qur’oni karimdagagi ma’no qirralarini kengroq yoritishga e’tibor qaratadi. Uning aniqlashicha, 9 ta Makkada, 14 ta Madinada nozil bo‘lgan, jami 23 ta suralardagi oyatlarda keltirilgan «Miskin» so‘zi Qur’oni karimning nozil bo‘la boshlashidan ayni jarayonning so‘ngiga qadar ko‘zga tashlanuvchi tushunchadir. «Miskin» tushunchasi uchrovchi oyatlarda asosan bu so‘z ovqat bilan to‘ydirilishi kerak bo‘lgan kishilarni ifodalaydi⁸. Bu ma’nosiga ko‘ra u yuqorida keltirilgan so‘zlarga ma’nodoshlik hosil qiladi. Biroq «Miskin»ning «ehtiyojmand» ma’nosining botinida Allohning lutfiga, Payg‘ambar (s.a.v.)ning shafoatlariga bo‘lgan ehtiyoj ham ifodalanadiki, ayni ma’no hamda «faqir» ga ma’nodoshlik uning tasavvufiy ma’nosiga nisbatan qiziqish uyg‘otgan. Shu bois ulug‘ mutasavvuf Xoja Ahmad Yassaviyning hikmatlarida bu so‘z shoir ismining sifatlovchisi bo‘lish bilan bir qatorda, uning taxalluslaridan birini ham anglatib kelgan. Muslihabegin Miskin she'riyatida yassaviyona motiv va ohanglarning kuzatilishi shoiraning bu taxallusni o‘ziga tanlashida ismiga ohang jihatdan uyg‘unlik bilan bir qatorda e’tiqodiy qarashlariga, yashash tarziga uyg‘unlik borligini ham sezdiradi.

«Miskin» taxallusi bu ikki ijodkordan tashqari yana bir qator shoirlarning taxallusi sifatida qo‘llanilganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Jumladan, *G’ulomxalil Toshmuhammad o‘g‘li* (1880-1937) Toshkentda yashab ijod etgan «Miskin» taxallusli shoirlardan biridir. Uning she’rlaridan ikki devon tuzilgan, 33 sahifadan ortiq birinchi devonidan G’ulomxalil Toshmuhammad o‘g‘li Miskinning 1925- yilgacha yozilgan va chop etilgan she’rlari o‘rin olgan. So‘nggi she’rlari esa ikkinchi

⁸ Beytullah Aktaş, Kur'an'a Göre Zekâtın Harcama Kalemleri (Yayınlanmamış Doktora Tezi), İstanbul Üniversitesi SBE, İstanbul, 2013, s. 69-76.

devonda jamlangan bo‘lib, 160-170 sahifani tashkil qiladi. Shoir hayoti va ijodi to‘g‘risida Mo‘minjon Muhammadjonov «Toshkent shoirlarining tarjimayi hollari», Po‘latjon domla Qayumiyning «Tazkirayi Qayumiy», Murodxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘lining «Tarixi jadidayi Toshkand» asariga yozgan ilovalarida ma’lumotlar berilgan⁹. Chap oyog‘ida qo‘s sh barmog‘i bo‘lgani uchun u ko‘proq Mulla Qo‘shoq nomi bilan mashhur bo‘lgan. Uning she’rlari «Bayozi Muhallo», «Bayozi Hoji Sobir», «Bayozi yangi», «Bayozi Haziniy», «Armug‘oni xislat», «Savg‘oti Shavkat», «Bayozi mulla O’tab», «Mahbub-ul qulub», «Bayozi Murtazo va Mullo O’tab», «Bayozi maa gulshani ash’or», «Sabzazor» nomli bir qator bayozlar orqali yetib kelgan. Shu bilan birga, «Shuhrat», «Turkiston viloyatining gazeti», «Sadoyi Turkiston», «Turon» gazetalari, «Maorif» va o‘qitg‘uvchi», «Yer yuzi» jurnallarida she’rlari e’lon qilinib borilgan¹⁰.

Turkman xalq shoiri va musiqachisi sifatida shuhrat qozongan **Mulla Qilich** (1847-1906) ham «Miskin» taxallusi bilan ijod qilgan. U avval ovul maktablarida, so‘ngra Buxoro madrasasida tahsil olgan. Sharq klassiklarining asarlarini, xalq og‘zaki ijodini qunt bilan o‘rgangan. Uning yuzdan ortiq she’rlari va «Botir Napis», «Bekzoda Qurbon» dostonlarida ijtimoiy masalalar aks etgan. «Nishon», «Topmadim», «Gider» kabi she’rlarida xalqning og‘ir hayoti tasvirlangan. «Dog‘lar», «Qovoq solma», «Ot yaxshi» she’rlari, «Seni», «Kelin», «Oppoqqina», «G’amzang o‘qi», «Yanglig‘» asarlari xalq orasida mashhur¹¹. Ko‘rinadiki, Miskin so‘zining irfoniy ma’nosi yuqorida nomlari keltirilgan shoirlar bilan bir qatorda Muslihabegimni ham qiziqtirgan. U Xoja Ahmad Yassaviy va yuqorida nomlari keltirilgan o‘zining katta-kichik zamondoshlari kabi «Miskin» so‘zini taxallus sifatida qo‘llagan yagona ayol shoiradir.

Muslihabegim Miskin ko‘p asrlik e’tiqodiy qarashlarimiz asosida tarbiya topib, Xoja Ahmad Yassaviy va uning izdoshlari she’riyatida kuzatilgani kabi toat-ibodatga chorlovchi she’rlar bitgani, shu asosda osiylikdan qutulib, Muhammad (s.a.v.)ning shafoatlariga noil bo‘lish, Allohning lutf-u marhamatiga sazovor bo‘lishni targ‘ib qilgani bois uning ijodi uzoq yillar davomida e’tibordan chetda qolib keldi. Shoiraning bir-biridan keskin farqlanmaydigan 3 devoni bizgacha yetib kelgan bo‘lib, qiyosiy o‘rganilganda, ushbu devonlarda Muslihabegim Miskinning o‘n

⁹ Нуриддинов Ш. Мулла Кўшоқ Мискин ва унинг адабий мероси. //Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2011. - №5. – Б.120-123.

¹⁰ Нуриддинов Ш. Икки Мискин. //Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2010. -№6. – Б. 80-82.

¹¹ Ўзбек Совет энциклопедияси.7-том.Тошкент: Ўзбек Совет энциклопедияси бош редакцияси, 1976, –Б.282.

ming misradan ortiq she’riy merosi mavjudligi kuzatiladi. Ularning biridagi devonning sarlavhasi ostida keltirilgan quyidagi fardda shoira o‘zini tavoze’ bilan tanishtirib, nomining oshkor bo‘lmasligi tarafdori ekanligini ta’kidlaydi:

Nomi man Muslihabegim buvad guftam: «Yod dor»,
Guft Miskin: «Nomi xudro to nagardad oshkor».¹²

Mazmuni: *Mening nomim Muslihabegimdir, buni mudom yodingizda saqlang, deb aytaman. Miskin aytadi: «Bu ismni aslo oshkor etma».*¹³

Taxallusini «Miskin» deya tanitgan Muslihabegim nomini oshkor bo‘lishini u qadar istamaydi. Ayni choqda bu uning she’riyati bilan xalq orasida tanilishi ma’nosini ham anglatadi. Biroq Buxoro xalqi orasida hanuzgacha to‘y va bazmlarda an’anaga aylangan muxammasxonliklarda shoira ijodidan namunalar aytilishi uning taniqli shoira ekanligidan dalolat beradi¹⁴. Shunday bo‘lsa-da, shoiraning o‘zi yashagan davrda yaratilgan manbalarda u haqda ma’lumot berilgani kuzatilmaydi. E’tirof etish joizki, Miskinning hayoti va ijodi haqida undan bizgacha yetib kelgan uchta devondagi ikki she’riy hikoyat va qator baytlar misolida muayyan taassurot hosil qilish mumkin. «*Man na shayxam, na avliyo, na izom*» («*Men na shayxman, na avliyo, na ulug ‘lardan*») satri bilan boshlanuvchi masnaviyda bitilgan she’riy hikoyat aytiganlar nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Unda shoira o‘zini quyidagicha tanishtiradi:

Kaminai nom shud Muslihabegim,
Ba Miskin nomi xudro guft tayin.
Ki mavludi zi farzandi Buxoro,
Padarro nom shud mullo Nurillo.
Ki jaddam nomi Abdulloh xoja eshon,
Zi farzandi Buxoro buvad, ey jon
Ki, budand doimo jo‘yon Alloh,
Ki holo raftaand Ka’batulloh¹⁵ [972/1, 121^b varaq].

Mazmuni: *Kaminaning ismi Muslihabegimdir. O’zimni Miskin deb atadim, ya ’ni taxallusimni Miskin deb tanitdim. Buxoro farzandiman, shu*

¹² ЎзР ФАШИ кўлёзмалар фонди. Инв.972/1, 1-а варақ. (Бундан кейин шоира девонларига мурожаат этилганда қавс ичидаги инвентарь рақами ҳамда варагини кўрсатиш билан кифояланамиз – Д.С.)

¹³ Муслихабегим Мискин шеърияти таржималари ўзимиз томондан амалга оширилган.

¹⁴ Қаранг: Сафаров О., Сафарова Ҳ. Муслихабегим Мискин ҳаёти ва ижоди ҳақида// Ўзбек тили ва адабиёти, 2012, 3-сон, –Б 43-46. Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. –Бухоро. Дурдона, 2015. –Б.73.

¹⁵ Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райхон Беруний номидаги қўлёзмалар фонди.

yerda tug‘ildim. Otamning nomi Mullo Nurillo bo‘ldi. Bobomning nomi esa Abdulloh xoja eshondir. U ham Buxoroning farzandi bo‘lgan. Doimo Allohning xayoli bilan band bo‘lgan, Ka’batullohga ketgan, hanuz qaytmagan.

Mazkur masnaviydan anglashiladiki, shoiraning asli nomi Muslihabegimdir, u devonlarini Miskin taxallusi bilan tartib bergan. Shoiraning ota-bobolari buxorolik bo‘lib, taqvodorlar bo‘lishgan. Xususan, otasining ismi Nurullo mulla sifatida e’tirof etilganligiga e’tibor qaratilsa, uning dindor kishi bo‘lganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Abdulloh xoja eshon shoiraning bobosi bo‘lib, uning nomiga «xoja», «eshon» singari nasab va nufuzni ifodalovchi so‘zlarning qo‘shib aytilishi ham shunday xulosaga kelishga asos bo‘ladi. Ka’ba sari otlanganligidan anglash mumkinki, u ham Alloh yo‘liga ixlos qilganlardan bo‘lgan. Ayniqsa, masnaviydagi «*Ki, budand doimo jo‘yoni Alloh*» misrasi Abdulloh xoja eshonning Alloh ishqini bilan yonib yashaganligidan dalolat beradi.

Muslihabegin Miskin «Agar go‘yand: «In shaxs az kujost?»» («Bu shaxs qayerdanligini aytsam») satri bilan boshlanuvchi 12 baytli masnaviysida o‘zining nasl-nasabi xususida fikr yuritadi. Masnaviyning ikkinchi satri «Base dar Xiyobon ham du bobost» [1962, 25a varaq] tarzida ifodalangan bo‘lib, unda «Ikkala bobo ham Xiyobondandir» mazmuni o‘z ifodasini topgan. Xiyobon qadimgi Buxoro shahrining 16 dahasidan biri bo‘lib, u eski shahar hududida, Buxoro qal’asining «Qorako‘l darvozasi» tarafida joylashgan¹⁶. Ushbu ifoda shoiraning ona tarafdan ham, ota tarafdan ham buxorolik bo‘lganini anglatadi. Masnaviydagi hasbi hol talqinlariga ko‘ra, shoiraning katta bobosi hoji Habib nomi bilan atalgan. Uning «*Jarohathoyi dilhoro tabiband*» [1962, 25a varaq], ya’ni «*Jarohatli ko‘ngillarning tabibi*» tarzida tavsiflanishi ham diniy ilmlarning bilimdoni bo‘lganiga ishora qiladi. Masnaviy davomida badiiy talqinga ko‘ra, hoji Habibning pok xokini kishilar ko‘zga surma qilishi, qabrini ziyorat qilib turishlari ham shunday xulosaga kelishga asos bo‘ladi. Muslihabegin Miskin ikkinchi bobosini Imlo eshon deya tanishtiradi. Odamlar bu kishining ham qabrlarini ziyorat qilib turishgan. Shoira ikkinchi bobom deganda, ona tarafidagi bobosini nazarda tutgan ko‘rinadi. Buxoroda Xiyobon mavzesida Eshoni Imlo (1686-1748/1749) va Xoja Habibullo yoki Eshon xoja (vafoti 1699/1700)

¹⁶ Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. – Москва, Наука. –1976. стр.11.

nomlari bilan atalgan kishilar yashagani haqida ma'lumotlar keltiriladi¹⁷. Ushbu ishoralar shoiraning nasl-nasabi ham e'tiqodli eshonlarga borib taqalishidan dalolat beradi. Afsuski shoiraning tug'ilib, vafot etgan sanalariga oid aniq ma'lumotlar uning devonlari tarkibida uchramaydi. Birgina Miskinning 972/1 raqamli devonining 143a varag'ida bitilgan «Tamom shud in noma 1295» (ya'ni ushbu noma 1295-yilda tugadi) qaydi o'ziga xos tarixiy fakt sifatida qimmatlidir. Mazkur hijriy sana milodiyga aylantirilganda devonning 1878-yilda tartib berilganligi ma'lum bo'ladi. Shuningdek, yuqoridagi masnaviydan so'ng devondan o'rinn olgan quyidagi fard esa shoiraning qaysi zamonda yashaganligini anglab olishga yordam beradi. Unda Buxoro amirlaridan birining nomi keltiradi:

Dar zamonii Mir Sayyid Muzaffar Bahodir Sulton,
In g'azalhoro bexono ba jigar kardam bayon [972/1, 121^b varaq].

Mazmuni: *Mir Sayyid Muzaffar Bahodir zamonida bu g'azallarni o'qib, jigar (yaqin kishim)ga bayon qildim.*

Shu o'rinda shoiraning yashagan yillarini taxmin qilishga ishora paydo bo'ladi. Tarixiy faktlarga ko'ra, Buxoro hukmdori Mir Sayyid Muzaffar Bahodir (1859-1885) chorak asr davomida hukmdorlik qilgan.

Buxoro amiri Nasrulloxon vafotidan so'ng, uning o'g'li Sayyid Muzaffariddin Karmanadan kelib, 1859-yil Buxoro taxtiga o'tiradi. U 25 yildan ortiqroq davr mobaynida 1885-yilga qadar turli viloyatlarda hukmdorning farmonlariga bo'ysunmay isyonlar sodir etilayotgan, ayni choqda ruslarning Turkiston tuprog'iga yurishlari boshlangan g'oyatda tahlikali zamonda Buxoro amirligini idora qildi.¹⁸ Shoira bu davrda Turkistonda sodir bo'layotgan voqealardan yaxshi xabardor, qator nazmiy asarlar muallifi va sohibdevon ijodkor sifatida kamolot yoshida bo'lган, deyish mumkin.

Shoiraning 972/1-raqamli devonida «*Bismillohir rahmonir rahim*» ilohiy kalimasidan so'ng shayx Abdulvohid haqida masnaviyda bitilgan 42 baytli hikoyat keltirilgan bo'lib, ushbu hikoyat ham Muslihabegim Miskinni tanishtirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Shoira asar qahramonini quyidagicha tavsiflaydi:

Ki dar shahri Buxoro buvad yak darveshi donoye
Ki, shayxi nomdor buvad on mahbubi donoye.
Davomat dar payi jud-u saxo-yu adl ko'shida,

¹⁷ <https://rusrav.uz/2018/09/24/kladbishhe-jeshoni-imlo/>

¹⁸ Qarang: Сайид Мансур Олимий. Бухоро – Туркистон бешиги. Форс тилидан таржима, таржимон номидан сўз боши ва айрим изохлар муаллифи X.Тўраев. –Бухоро, 2004. –Б. 50-63.

Libosi ashxiyoro dar badani on shayx po'shida.
Tamomi muflis-u miskin zi xonash bahravar budand,
Mudom on shayx az tarsi xudo bo chashmi tar budand.
Ki sultonı Buxoro doimo mekard in'ome,
Ki budand mardumi shahri Buxoro muxlisi joni [1962, 2^a varaq].

Mazmuni: *Buxoro shahrida bir dono darvesh bo'lgandi. U dono mahbub nomdor shayx edi. Saxovat-uadolat, in'om-ehson yo'lida doimo harakat qilib, jismida ashxiyorlar libosini kiygandi. Barcha kambag'al bechoralar uning xonadonidan bahramand bo'lar, u shayx xudodan qo'rqqani bois doim ko'zi nam bo'lardi. Buxoro sultonı doimo unga in'om qilib turar, shahar aholisi jonining muxlisi edi.*

Masnaviyning keyingi baytlarida hikoyat qahramonining tafsiflari tadrijiy rivojlantirilgan bo'lib, u o'z davridagi nomdor shayxlardan biri ekanligiga e'tibor qaratiladi va nomi Abdulvohid ekanligi ta'kidlanadi:

Har on kasro ki pesh oyad agar yak qissai mushkil,
Ravad dar nazdi o'ro on zamon on muddao hosil.
Jahon fayzi futuhi u ki mashhuri Buxoro shud,
Banazdi podshoh on shayxro martabai a'lo shud.
Shuda nomi sharifi o' ba Abdulvohid mashhur,
Ki buvad doim ba zikri on xudovandi jahon mag'rur [1962, 2^a varaq].

Mazmuni: *Har qanday kishining taqdirida biror mushkul qissa bo'lsa, uning nazdidan qiyinchilik o'sha zamon barham topib, muddao hosil bo'lar edi. U jahonning fayz-u futuhi, Buxoroning mashhur kishilaridan biriga aylandi. Podshoh nazdida u yuksak martabali shayxlardan biri edi. Abdulvohid nomi bilan mashhur bo'lgan bu kishi doimo Xudoni zikr etish bilan mag'rur edi.*

Masnaviydagagi ta'rif-u tafsiflardan ayonlashadiki, Abdulvohid nomi bilan tanilgan bu shayx taqvodor, in'om-u ehson, saxovat-u adolati bilan nom qozongan. Faqir-u bechoralarga uning xonadoni ochiq bo'lgan. Xudodan qo'rqish tuyg'usi uning namli ko'zlarida doimo o'z ifodasini ko'rsatib turgan. Bu fazilatlari uning Buxoro hukmdori nazariga tushishiga bois bo'lgan. Hukmdorning unga in'omlar berib turishi, shahar aholisining unga bo'lgan yuksak ehtiromi shayxning chinakamiga maqomi yuksakligidan dalolat beradi. Ayniqsa, undagi har qanday kishilarning mushkulini oson qilish fazilati martabasini yanada yuksalishiga sabab bo'lgan. Bu hol hukmdor nazdida uning martabasi a'lo bo'lganida yaqqol namoyon bo'ladi. Manbalarning ma'lumotiga ko'ra, XIX asr Buxoro

amirligida amaldorlardan tashqari diniy ulamolar ham hukmron mavqega ega edi. Ular orasida Muhammad (s.a.v.)ning avlodlariga mansub bo‘lgan sayyidlar hamda Choriyor xalifalar: Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali avlodlaridan sanalgan xo‘jalar (Jo‘ybor shayxlari)ning ham nufuzi nihoyatda baland edi. Ular katta yer-suvga, savdo do‘konlariga, hunarmandchilik ustaxonalariga ega edilar. Amirlikda Jo‘ybor shayxlari alohida mavqega ega bo‘lib, XIX asrda ular Buxoroda 16 mahalla bo‘lib yashardi¹⁹. Abdulvohid haqidagi she’riy hikoyatning dastlabki baytalaridanoq uning ana shunday maqomga munosib ko‘rilganini taxmin qilish mumkin. Hikoyatdagi talqinlar Muslihabegim Miskinning Avdulvohiddek katta mavqega ega bo‘lgan shayx bilan taqdirdosh bo‘lganidan darak beradi. Biroq bu shayxning ko‘ngliga doimo Ka’batullohni ziyyarat qilish istagining mavjudligi va uning voqelanishiga qaror qilgani so‘ng Muslihabegim Miskinning musibatli kunlari boshlanadi:

Bigusto: «Meravam dar in zamon dar Ka’batulloh man,
Ki joni xud fido sozam bar poyi anbiyouulloh man» . [1962, 2^a varaq]

Zan-u farzandi har chand bo o‘ iltijo ovard,
Nayomad korgar ro‘y so‘yi Ka’batulloh kard. [1962, 2^a varaq]

Mazmuni: Shayx: «Men endi Ka’batullohga borib,
anbiyouullohning poyiga jonimni fido qilaman» , -dedi. Xotini va farzandi
har qancha iltijo qilishmasin, uning xohishiga mone’lik qilolmaydi, u
baribir Ka’batulloh sari yo‘l oladi.

Shayx olti yoshli qalbi qaynoq farzandini hech qachon o‘zidan
yiroqlashishini istamasdi. Shu bois uni ham o‘ziga hamroh qiladi. Shunday
qilib, ota-bola besh yil davomida dom-daraksiz ketishadi:

Ki raftand panj sol inho shudand dur ham g‘oyib,
Mudom az intizorii modari bechora menolid [1962, 2^a varaq].

Mazmuni: *Ular besh yil g‘oyib bo‘lib uzoqlarga ketdilar. Bechora
ona ularning yo‘lida intizor bo‘lib, shikoyat qilar edi.*

Onayizor to‘qqiz yoshli qizi bilan qoladi. Shayx Abdulvohidning
qizi juda ham aqli, dono «xush xulq-u, shirin suxan-u, zebo-yu porso»
bo‘lib ulg‘ayadi. Biroq uning kamolidan bahramand bo‘lib yashash
bechora onaga nasib etmaydi. Masnaviydagi quyidagi bayt bu mudhish
voqeanning obrazli ifodasidir:

¹⁹ Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. –Москва, Наука, –1976.
–С 11.

Banogah dar kamoli o‘ zavoli bemahal omad,
Xazon shud navbahori o‘ chunon bodi ajal omad [972/1, 2^b
varaq].

Mazmuni: *Uning kamoliga to‘satdan bemahal zavol keldi, ajal shamoli esib, uning navbahori xazon bo‘ldi.*

Qiz bu foniy dunyoni tark etgandan so‘ng, g‘oyibona pinhon kezib yuruvchilardan xabar keladi. Shayx va uning o‘g‘li sog‘-salomat yurtiga qaytib, qarindoshlar bilan ko‘rishishadi:

Salomat omad on darvesh bohamrohi farzand,
Bedidand jumlayi xesh-u tabori o‘ shudand xursand [972/1, 2^b
varaq].

Ona nihoyatda kelishgan, oqil-u dono bo‘lib voyaga yetgan o‘n bir yoshli o‘g‘li bilan diydorlashishga muyassar bo‘ladi. «*Husni jamoli go‘yo Yusufi soniy*» bo‘lgan o‘g‘il darvesh otasi pokdamon shayxga juda o‘xshardi. Bu baxt voqe’ bo‘lganidan quvongan ona Parvardigorga shukronalar qiladi, o‘g‘lini bir lahma ham yonidan uzoqlashtirmaydi. Oradan bir yil o‘tgach, «*xazoni bemahal*» bechora onaning qalbida so‘nmas dog‘ qoldirib, bu farzandini ham navqiron yoshida olib ketadi. Shayx Abdulvohid bu fojealarga ortiq toqat qilolmaydi:

Ki on shayxi jahon dar on zamon dar so‘xti dunyo shud,
Nakarda istiqomat boz so‘yi Ka‘batulloh shud.

Biguft: «Bar man harom ast in Buxoro, nest joyi man,
Dar injo nest istodani digar sabr-u qarori man» .

Ba xud hamrah burd o‘ yak-du sola farzandash,
Qazoro dar rasid tiri ajal bar on jigarbandash [972/1, 3^a varaq].

Mazmuni: *Shayxi jahon o‘sha onda yongan dunyoga aylandi. Bu yerda ortiq turolmay, yana Ka‘batulloh sari yo‘naldi.* «*Endi menga Buxoro haromdir, bu yer mening joyimmas. Bu yerda qolishga ortiq sabr-u qarorim qolmadi*», - dedi. Icki-uch yoshli farzandini o‘ziga hamroh qilib olgan edi, taqdir taqozosi bilan ajal o‘qi bu jigarbandiga ham yetib bordi.

Shayx Abdulvohid Haqning amriga rozi bo‘lib, farzandlarini tuproqqa topshirsa-da, ayriliq dog‘iga chidolmay to‘xtovsiz oh-u fig‘on chekadi. Tasalli topish uchun yana bir ayolga uylanadi. Bir necha yil ko‘zdan g‘oyib bo‘lsa, ba’zan Buxoroda ham ko‘rinib qoladi. Bu hol takrorlanib turadi. Dilbandlarini yo‘qotgan onayizor esa taqdir hukmiga sabr qilib, qolgan umrini toat-ibodatga bag‘ishlaydi.

Mazkur she’riy hikoyat Muslihabegin Miskin hayoti bilan qiziqqan tadqiqotchilarning e’tiborini o‘ziga jalgan etgan. M.Qodirova ushbu manzumani debocha deya baholab: «...shoiraning o‘z hayotiga oid

avtobiografik ma'lumotga ham o'xshab ketadi»²⁰, - deb yozadi. Professor O.Safarov va H.Safarovlar esa masnaviydagi «Ki shayxe nomdor bud on mahbubi donoye» satriga asoslanib: «Muslihabegin Miskin Buxoroda el orasida, hatto amirlik darborida ham e'tibor qozongan shayx Abdulvohidning zavjai muhtaramasi bo'lgan»²¹, - deya komil ishonch bilan qayd etadi. She'riy hikoyatda tasvirlangan onayizorning ruhiy holati bilan devonlardagi shoiraning hasbi holi talqiniga bag'ishlangan nazm namunalaridagi o'zaro uyg'unlik ham ushbu masnaviyda ijodkorning achchiq qismati badiiy ifodasini topganligiga qanoat hosil qildiradi. Bunday o'xhashlik, avvalo, lirk qahramonning bekas-u g'aribligi badiiy talqiniga bag'ishlangan turli lirk janrlarda bitilgan she'rlarda namoyon bo'ladi. Sakkiz bandli «Tanco» radifli muxammasning yettinchi bandidagi quyidagi misralar aytilganlar nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir:

Qani yak mehrubon-u hamdam yak dilrabyo man?!

Kujo shud hamnishinon ki shudand bovafoyi man?!

Qani xesh-u tabor-u yor-u do'st-u oshnoyi man?!

Na modar, na padar, na xesh mond aqraboyi man?!

Mabodo misli man hargiz ki hayron mondaam tanho?! [1962, 21^b varaq].

Mazmuni: Bir mehribonu hamdam, mening bir dilrabom qani? Menga vafoli, men bilan hamsuhbat bo'lganlar qayerga ketdi? Qarindoshurug', yor-u do'sti, oshnolarim (tanishlarim) qani? Na ona, na ota, na yaqinlarim qoldi. Hayron bo'lib, tanho o'zim qoldim.

Shoiraning farzandi dog'ida, ayriliq azobida o'rtanishi 9 baytli g'azallaridan birida o'z ifodasini topgan bo'lib, bu g'azal Husayn nomli o'g'lining firoqida yozilganligi undagi quyidagi baytlardan ayonlashadi:

Bigufto on Husayn nuri chashmi man gujo rafti,

Guli on ro'yi sho'ri maney boman bisyor purmonam.

Guli noshigufta az bog'i padar oxir xazon gashti,

Chunon monandayi bulbul tu rafti az gulistonam.

Turo domod mekardam bachandin orzuhoysi man,

Shudi bo xoki xun og'ushta ey barnoyi davronam [1277, 4^b varaq].

Mazmuni: «U Husayn – ko 'zimning nuri, qayon ketdi?» – deyman. Uning guli – peshonam sho'ridir, tag'in men (yig'idan) juda to'lib qoldim. Ochilmagan g'uncha ota bog'idan xazon sari ketdi. Go'yo bulbulga

²⁰ Қодирова М. XIXаср ўзбек шоирлари ижодида инсон ва халқ тақдирин. –Тошкент:Фан,1977. –Б. 168.

²¹ Сафаров О.Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. –Бухоро: Дурдона,2015. –Б.70.

o'xshab gulistonimdan ketding. Seni kuyov qilish ko'pdan beri orzularim edi. Ey davrim barnosi, qonli tuproqqa giriftor bo'lib qolding.

Tahlil jarayoniga tortilgan ushbu baytlarni Shayx Abdulvohidga bag'ishlangan masnaviy bilan qiyoslaganda, «*Bigufto chashmi nargiz boz kun, ey nuri chashmonam*» («*Ey ko'zlarim nuri, o'yinga tush, nargis ko'zli, -deyman*») satri bilan boshlanuvchi ushbu g'azal Muslihabegin Miskinning to'ng'ich o'g'liga bag'ishlangani ayonlashadi. Husayn ismli bu o'g'lini otasi bilan 6 yoshida Ka'batulloh ziyyaratiga yuborgan ona besh yildan so'ng u bilan diydor ko'rishadi. Tabiiyki, bo'yi ancha cho'zilib qolgan, shoira tomonidan «*Yusufi soniy*» deya e'zozlangan bu yigitni Muslihabegin uylantirish orzusi bilan yashagan. Biroq bevaqt kelgan o'lim uni onasidan ajratgan. Ushbu g'azalda ayni iztiroblar o'z ifodasini topgan. Shoiraning ikkinchi o'g'li 2-3 yasharligida otasi bilan Ka'batulloh ziyyaratiga yo'l olgan bo'lib, masnaviyda hikoya qilinishicha, unga ham ajal tig'i yetgan. Garchi shoira bu o'g'lining qayerda vafot etganiga aniqlik kiritmagan bo'lsa-da, uning safardan qaytganiga ham ishora qilinmagan. Shu bois ikkinchi o'g'lining Husayn bo'lish ehtimoli haqiqatdan ancha yiroq ko'rindi.

Muslihabegin Miskin she'riyatida Xojayi Ubon, Buxoroda «Piri dastgir» deya e'zozlangan G'av sul a'zam Abdulqodir Jiloniy, Hazrati Og'oyi Buzurg – Qizbibi va naqshbandiy pirlaridan Boboyi Samosiy kabilarning ziyyorati munosabati bilan yozilgan she'rlar uchraydi. Xojayi Ubon, Boboyi Samosiy ziyyaratgohlari hozirgi Romitan, Hazrati Og'oyi Buzurg – Qizbibi ziyyaratgohi esa Jondor tumanida joylashgan bo'lib, ular bir-biridan u qadar olisda emas. Piridastgir ziyyaratgohi esa Buxoro shahrida. Bundan anglashiladiki, Muslihabegin Miskin Xojayi Ubonni «Xudoning nuri», «Mustafo nuri», «Murtazo chirog'i», «Usmonning farzandi» [1962, 136a varaq] deya ulug'lab, Payg'ambar (s.a.v.)ga va uchinchi xalifa hazrati Usmon (r.a.)ga bog'laydi. Shoira Xojayi Ubon talqiniga bag'ishlangan bunday tushunchalari hozir ham xalq orasida mavjud.

Muslihabegin Miskin she'riyatida Hazrati Og'oyi Buzurg – Qizbibiga ehtirom bilan qaralgani alohida ahamiyatga ega. Uning tez-tez bu ziyyaratgohga bo'lgani, «*Muxammasi shir-u shakar guftagi Miskin*» («*Miskinning shir-u shakar muxammas aytgani*») nomli o'zbek va tojik tillarida mulamma' muxammas hamda «*Muxammasi Miskin*» nomli o'zbek tilida muxammas bitgani fikrimizni dalillaydi. Toshpo'lat Rahmonovning «Qizbibi–Hazrati Og'oyi Buzurg» risolasi bizga tabarruk Buxoro ayol avliyolari tarixining noma'lum sahifalarini ma'lum qildi.

Qizbibi – Hazrati Og‘oyi Buzurgning asl ismi Masturaxonim. Mir Arabning vaziri Sodiqxon uning sharafiga ajoyib majmua barpo etgan. Mahalliy aholi va ko‘plab ziyyoratchilar ushbu majmuaga oilaviy baxt topish, bepushtlikdan qutulish, ruhiy xastaliklardan xalos bo‘lish maqsadida tashrif buyurganlar. E’tiborli tomoni shundaki, ziyyoratchilar faqat ayollar bo‘lib, erkaklar majmuaga kiritilmagan. Buxoro shahridan 30 km masofada joylashgan Qizbibibi me’moriy majmuasi Zarafshon daryosi etaklari bo‘ylab joylashgan, XVI asrdan boshlab suv sathining doimiy ko‘tarilishi va uning yetishmovchiligi natijasida ushbu hudud qumlar maydoniga aylangan²².

Muhiba Said Hasan qizining «Valiy voldalar» kitobida yozilishicha, Nasriddin To‘ra ibn Muzaffar al-Hanafiy al-Buxoriyning «Tuhfat az-zoirin» asarida «Og‘oyi Buzurg zikrlari bobি» bor. Mana shu bobda Jondor tumanidagi tabarruk zot, ya’ni Qizbibibi nomi bilan mashhur bo‘lgan avliyo haqida, ushbu ziyyoratgohda kimlar qachon dafn qilingani, ularning ismlari yozilgan. Og‘oyi Buzurg qizlarga saboq bergani bois qizlarning bibisi laqabini olib, tarixda Qizbibibi nomi bilan el og‘zida mashhur bo‘lgan. Og‘oyi Buzurg va u kishining atrofidagilari pokiza yashab, halol mehnat qilib, o‘z xulq-atvori, karomatlari bilan namuna bo‘lgan, xalqni Haqqa da’vat etgan olimi boamal bo‘lgan²³.

Ushbu tarixiy iqtiboslar va ma’lumotlardan ayonlashadiki, Hazrat Og‘oyi Buzurg Markaziy Osiyoda tasavvuf ilmining rivojiga katta hissa qo‘shgan olimalardan biri. So‘fi ayollarning yirik vakili, buxorolik Hazrat Og‘oyi Buzurg timsolida ayollarning jamiyatdagi o‘rnı va ularning salohiyatini namoyon etuvchi olimalarni ko‘rishimiz mumkin.

Shoiraning aksariyat masnaviyalarida aynan Hazrat Og‘oyi Buzurg tarixiy obraziga murojaatlar oshiqona tavsiflar, iltimoslar, umidvorlik, mushkulotini osonlashtirish, ushbu tarixiy-afsonaviy shaxs bilan diydorlashish shaklida bitilgan bo‘lib, Hazrat Og‘oyi Buzurgga «Og‘o», «Ag‘o», «Og‘oyi Buzurg», «Hazrat Og‘oyi Buzurg», «Shoh», «Pir» kabi sharaflı nomlar bilan murojaat qilingan.

Muslihabegim Miskinning «Miskin dar martabayi Barxurd Hazrat Og‘oyi Buzurg gufta...» sarlavhasi bilan boshlanuvchi yigirma olti baytdan iborat fors-tojikcha masnaviysida Hazrat Og‘oyi Buzurg

²² <https://meros.uz/en/object/qiz-bibi>:

²³ Муhibа Сайд Ҳасан қизи. Валий волидалар. –Тошкент: Ёзувчи, 2002. –Б.52.

ziyoratgohiga qilgan safarini bayon etadi²⁴. Masnaviyda Muslihabegin Miskin Hazrat Og‘oyi Buzurg – pir nazariga tushmoq uchun uning xizmatiga tayyorligini ma’lum qiladi. Shu o‘rinda, shoira pirning ixtiyorida bo‘lmoqlik uchun o‘zi va mol-dunyosini fido etishga ham shay ekanligini e’tirof etadi:

Fido sozam banomash jon-u xudro,
Vahm burd mol-u mulki dunyo.
Ki aknun omdam dar xizmati ,
Xudo loyiq kunad dar xizmati o‘ [1962, 128^a varaq].

Miskinning «Chiguna shahri mushtoqi jamolashro bayon sozam...» misralari bilan boshlanuvchi yana bir masnaviysida shoira o‘zining hayron-u sargardonlikda Og‘oyi Buzurgning jamoliga mushtoqligini, og‘ir ahvolda qolganligini bildirib, uning mazkur holiga nazar tashlashiga umid bildiradi:

Chiguna sharhi muhtoqi jamolashro bayon sozam,
Ajab hayron-u sargardon muztar holam [1962,132^b varaq].

Shoira Hazrat Og‘oyi Buzurg vasfining ta’rifiga ojizligini, hatto bu borada uning ta’rifini daftarga bitsa-da, u daftarga sig‘masligini e’tirof etadi:

Ba yak daftar namekunjad navisam vasfi ro‘yashro,
Og‘oyi Buzurgi olam nazar bekun bar holi mo [1962,132^b varaq].

Masnaviyning keyingi misralarida keltirilgan ramzlar esa Miskinning aynan Qizbibi qadamjosi haqida, xususan, Hazrat Og‘oyi Buzurgning Qizbibi ekanligiga yuksak ishonchni uyg‘otadi:

Shavam man mast-u devona az xud bejuz gardam,
Ki binam dar on soat hamon tug‘i balandashro [1962,132^b varaq].

Shoiraning fikricha, u o‘zini, o‘zligini yo‘qotib qo‘ysa-da, tug‘ni ko‘rib sergaklanadi, hushyor tortadi. Darhaqiqat, «Qizbibi» majmuasida tug‘(bayroq) mavjud bo‘lib, u XVI asrdan buyon saqlanib turibdi. Tug‘- bu islomiy qadamjolarda, xususan, tariqat vakillarining qabrlari, ziyoratgohlarda mavjud bo‘lib, o‘sha yerda mangu qo‘nim topgan zotlarning tariqat va tasavvufda yuksak o‘ringa ega ekanligi bilan

²⁴ Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райхон Беруний номидаги қўлёзмалар фондига.

Инв.1962. 127^b варак.

izohlanadi. Tug‘ asosan qubba va minoraning tepasiga qo‘yilgan²⁵. Ko‘rinib turibdiki, shoira ushbu qadamjoga bir emas, bir necha marotaba tashrif buyurgan, undagi har bir joy bilan tanish. Har safar u yerga borish nasib qilsa, xonaqo ichida afg‘on urib, dardlariga malham istaydi:

Agar gardad tuyassar ravzayi poki sharifi o‘,

Kunam man dar daruni xonaqoyash oh-u afg‘on [1962;132b].

Manbalarga ko‘ra, Qizbibi majmuasida ziyoratchilar uchun maxsus chillaxonalar joriy etilgan, boshiga mushkulot tushganlar, ishi yurishmagan, oilaviy baxtini yo‘qotganlar yoki farzandalablar ushbu xonalarga kirib, dardlariga darmon so‘rab yig‘laganlar, ruhiy zo‘riqishlaridan xalos bo‘lishga harakat qilganlar. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, Miskin masnaviylarida Hazrat Og‘oyi Buzurgga turlicha nasab bilan ehtirom ko‘rsatgan. Uning «Bul g‘arib bechoraga pirdin nazar bo‘lg‘aymukin...» misralari bilan boshlanuvchi o‘zbekcha g‘azalida Miskin Hazrati Og‘oyi Buzurgga nisbatan «Pir» va «Ag‘o» tavsiflarini ishlatadi. Shoira pirning nazariga muhtojligini, agar nola qilsa uning holiga e’tibor qilinishiga umidvor bo‘ladi:

Bul g‘arib bechoraga pirdin nazar bo‘lg‘aymukin,

Nola qilsam man agar pirga asar qilg‘aymukin [972/1,137^b varaq].

Muslihabegin Miskin ijodiga sinchiklab e’tibor qaratar ekanmiz, shoira aksar hollarda qalb va ruh dardiga darmon istab ko‘plab qadamjolarga tashrif buyurgan. Shoira pir va avliyolarga ixlosi baland ekanligini bot-bot takrorlaydi. G‘azal davomida buning guvohi bo‘lish mumkin:

Sidq-u ixlosim bila keldim pirim ostoniga,

Ey birodarlar, manga pirdin nazar bo‘lg‘aymukin [972/1,137^b varaq].

Iqtibos keltirilgan g‘azal xotimasida Muslihabegin Miskin Og‘oyi Buzurgga umidvorligini saqlab qoladi, bechoraligi sabab o‘z istig‘forlari bilan pirlar, payg‘ambarlar, asosiysi, Alloh nazariga tushishiga ishonadi, ushbu ishonchni umidga yo‘yadi hamda undan sira voz kechmaydi:

Men umid ila kelibman, qilma navmid, ey Ag‘o,

Miskini bechoraga shoyad nazar bo‘lg‘aymukin [972/1,137^b varaq].

Ayonlashdiki, shoira tang, nochor holatida pirdan umidvor bo‘lib zorlanadi, ahvoliga nazar solishini iltimos qiladi. G‘azalda Muslihabegin

²⁵ Турап Усмон. Тасаввиф тарихи. –Тошкент; Истиклол, 1999. –Б.180.

butun umrini g‘aflatda o‘tkazganligi, pirning ostonasiga umid qilib, sidq-u ixlos bilan borganligi va undan najot tilash holatlari uchraydi.

Miskin Hazrat Og‘oyi Buzurg ziyoratgohiga tashrif buyurar ekan, har gal mushkulini oson bo‘lishi uchun iltijo qiladi. Ham turmushidan tinchimagan ayol, ham farzandlarini tuproqqa topshirgan ona sifatida juda og‘ir ahvolga tushib qolgan shoira qolgan umrini avliyolar, pirlar va muqaddas qadamjolar ziyoratiga baxshida etadi. Demak, ayonlashadiki, shoira butun umr mana shu hijron va firoq asirasiga aylanadi.

«Devona gashtam az ishqি ro‘yat...» misralari bilan boshlanuvchi nazmiyatida ham shoira Hazrat Og‘oyi Buzurgga bo‘lgan muhabbatini namoyon etishi bilan birga, mashaqqatlar bilan bo‘lsa-da uning xizmatiga mudom tayyorligini yana bir karra asoslashga harakat qiladi:

Devona gashtam az ishqি ro‘yat,

Afsona gashtam dar orziyat [1962,131^b varaq].

Shoira pirining ishqida, uning diydorini ko‘rishga orzumand ekanligini ta’kidlab, Hazrat Og‘oyi Buzurgning makoni qayerda ekanligiga ham urg‘u beradi:

Joyi maqomat shud dar biyobon,

Xayli maloik buda baxizmat [1962,131^b varaq].

Misralardan ayonlashadiki, Qizbibi majmuasi cho‘lda – qumliklarda joylashgan biyobonda qad rostlagan. Shoira ijodida Hazrati Og‘oyi Buzurgga bag‘ishlangan munojot ko‘rinishidagi masnaviyarlari ham kuzatish mumkin. Unda shoira hazrati Og‘oyi Buzurgni madh etadi, unga shaydoligini aytadi, eng asosiysi, mushkullarini yengillashtirilishini so‘raydi. Miskin, avvalo, Allohga murojaat qilarkan, so‘ngra Og‘oyi Buzurgga zorlanadi. «Xudovando, nazar kun holi zoram...» («Xudovando, zor holimga nazar qil...») misralari bilan boshlanuvchi munojotida mazkur holatni teranroq anglash mumkin:

Buvad mushkuli man parvardigoro,

Bikuyi in Ag‘o kun joyi moro [1962,129^a varaq].

Shoira aksar hollarda pirlar, avliyo, paygambarlarning diydorlarini ko‘rishga mushtoqligini, ularning nazarida va huzurida bo‘lmoqchiliginini ta’kidlashdan charchamaydi. Munojotdagi quyidagi misralar esa aynan shoira hayotidan olingandek:

Ayo ey modari g‘am diydayi man,

Ayo ey nuri har du diydayi man [1962,129^b varaq].

Zero, shoira farzandlari vafot etgach tushkunlikka yuz tutadi, ruhiy azoblarni boshidan kechiradi, shu bilan birga baribir tanazzul bo‘ronidan chiqib ketadi, ammo qalban majruh bo‘ladi. Hazrat Og‘oyi Buzurg

ostonasiga ziyoratga har gal amalga oshirgan tashrifi bilan shoira o‘zini chalg‘itishga, majmuada kun-u tun qolib, o‘zini pirining tolibi sifatida qadamjo xonaqolarida nola-yu fig‘on bilan tonglar ottiradi. Xuddi shunday e’tiqodiy qarashlar asosida yozilgan she’rlar Boboyi Samosiy va G’avsul A’zam Abduqodir Jiloniyga ham bag‘ishlanganligi kuzatiladi.

Muslihabegin Miskin she’riyatida shoira hasbi holining badiiy talqinlaridan anglashiladiki, u XIX asrda yashab, o‘zbek va tojik tillarida badiiy ijod qilgan iste’dodli sohibdevon ijodkordir. Devonlaridan biri 1878-yilda tartib berilgani, undagi she’rlarda lirik qahramon yosh qiz qiyofasida namoyon bo‘lmay, deyarli barcha o‘rinlarda farzandlaridan ajralgan ona qiyofasida tasvirlanganidan ayonlashadiki, shoira XIX asrning birinchi yarmida Buxoroning Xiyobon mavzesida nasl-nasabi taqvodor eshonlarga borib taqaluvchi mullo Nurillo xonardonida tug‘ilgan. Muslihabeginning taqdiri Buxoro amirlik darborida nihoyatda katta nufuzga ega bo‘lgan shayx Abdulvohid bilan bog‘lanadi. Ular ikki o‘g‘il, bir qiz ko‘rishadi. Biroq Muslihabeginning katta o‘g‘li Husayn 11 yoshida, kichkinasi 2-3 yasharligida, qizi ham balog‘atga yetmay vafot etadi. Shoira shayx Abdulvohidni benihoya yuksak ta’riflasa-da, farzandlari vafot etgandan so‘ng ayolidan voz kechib, uning boshqaga uylangani bu vasflarga u qadar muvofiq emasligidan dalolat beradi. Miskin she’riyatida Xoja Ubon, Og‘oyi Buzurg – Qizbibi, naqshbandiy pirlaridan Boboyi Samosiy ziyoratgohiga tez-tez borib turganining anglashilishi uning Buxorodan boshqa yerlarga oz bo‘lsa-da, safar uyshtirib turganini ko‘rsatadi. Muslihabeginning Miskin taxallusida ijod qilgani ham o‘ziga taxallus tanlash bobida zukko ijodkor bo‘lganligidan dalolat beradi.

1.2 Miskin devonlarining tarkibi va janriy xususiyatlari

Muslihabegin Miskin – sohibdevon shoira. Uning adabiy merosi jamlangan uch devonining bizgacha yetib kelgani shoiraning o‘z davrida ham anchagina taniqli bo‘lganidan dalolat beradi. Miskinning 972\1-raqamli devoni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida saqlanadi. Shoiraning yana ikki devoni haqida Hamid Sulaymon nomidagi qo‘lyozmalar instituti xodimlari tomonidan tuzilgan katalogda ma’lumot beriladi. Bu devonlar dastlab O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qo‘lyozmalar instituti xazinasida 1962 hamda 1277 inventar raqamlari ostida saqlangan. Mazkur institut tugatilishi munosabati bilan Muslihabegin Miskinning ushbu devonlari

ham O‘zRFA ShI xazinasiga o‘tkazilgan. Shunday qilib, uning uch devoni Sharqshunoslik instituti fondida saqlanmoqda.

Miskinning 1962-raqamli devoni uch devon orasida 972\1-raqamli devon singari shoira ijodining salmoqli qismini o‘zida jamlagan. Bu devonlar orasidagi tafovut ulardan o‘rin olgan lirikaning turli janrlarida bitilgan she’rlarning miqdori, muayyan she’r namunalarining matnidagi ayrim farqliliklarida kuzatiladi. Ayni jihatlariga ko‘ra 1962-raqamli devon o‘zining birmuncha mukammalligi bilan ajralib turadi. Ushbu devonning atroflicha tavsifini keltirish asosida qolgan devonlarga xos jihatlarni qiyosan aniqlashtirish mumkin.

Muslihabegim Miskinning **1962-raqamli devoni** «*Bismillohir rahmonir rahiym*» ilohiy kalimasidan keyin shayx Abdulvohid haqida masnaviyda bitilgan 42 baytli hikoyat bilan boshlanadi. Devon kalofon qismining mavjud emasligi uning kim tomonidan va qachon ko‘chirilgani haqida ma’lumot olishga imkon bermaydi. Devonning umumiy hajmi 7882 misrani tashkil etadi. Devonda ikkinchi janr sifatida g‘azalga o‘rin berilgan. G‘azallar devonning salmoqli qismini tashkil etadi. Biroq bu janrda bitilgan she’rlar devonning to‘qqiz o‘rnida muayyan namunalar sifatida keltirilgan. G‘azallarning salmoqli namunalari oltinchi o‘rin, ya’ni 25^b – varaqdan «*Chu bulbul zori menolam ki mesozamki afg‘onho, Iloho, rahm kun bar holi zori chashmi giryonho*» matla’li g‘azaldan boshlab devon tartib berish tamoyillariga asosan amal qilinib, arab alifbosi tartibida joylashtirilgan. Ayni o‘rinda 286 g‘azalga o‘rin ajratilgan bo‘lib, so‘nggi o‘rinda «*Omadam bar ostonat , yo iloh, Purgunoh-u osiy-u noma siyoh*» (101^b-varaq) matla’li g‘azal keltirilgan. G‘azallarning bunday qat’iy tartibiga 46^b-varaqdan o‘rin berilgan 11 baytli «*Dar har du jahon chun faryodras, Ey Xoliqi ashyo*» misrasi bilan boshlanuvchi mustazodning joylashtirilgani bir oz putur yetkazgan. Bu tartibga rioya etilmagan holda devonda joylashtirilgan g‘azallarning dastlabkisi «*Yaktaraf dunyoyi dun, jurm-u isyon yaktaraf, Yaktaraf in umri ko‘toh, dog‘i hijron yaktaraf*» matla’si bilan boshlanuvchi 26 baytli g‘azal bo‘lib, u devonning 3^b-4^b, «*Na’ti nabiy sallallohu alayhi va sallam*» sarlavhali «*Ey zoti tu ma‘in daftari payg‘ambari, Dar du olam ummatoni gumrahonro rahbari*» satrlari bilan boshlanuvchi na’t-g‘azal 6^b-7^a, «*Vodarig‘o, sad darig‘o, shohi payg‘ambar qani, Mevayi bog‘i behisht on soqiyi Kavsar qani?*» matla’li va undan keyin keltirilgan ikki g‘azal 12^a-12^b, “*Agar bar holi xud man giryga sozam zor mearzad, Shavam man doimo bo diydayi xunbor mearzad*” matla’li va undan so‘nggi alifbo tartibiga asoslanmay keltirilgan 10 g‘azal 17^b-20^b hamda «*Az dasti nafsi ammora adoyam, yo Alloh, Zi*

ofathoyi du olam nigah dori, xudovando» matla’li va unga ergashtirilgan bir g‘azal 23^a-24^a varaqlarda joylashgan. So‘ngra yuqorida ta’kidlanganidek, arab alifbosi tartibidagi 286 g‘azalga o‘rin berilib, «*Ey sarvi sanuvbar gulandom, Ey mohi jahon tuyi dilorom»* matla’li va undan keyin keltirilgan g‘azal 104^a-105^b, «*Avvalash go ‘yam sanoye on xudovandi jahon, Podshohi har du olam Xoliqi kavn-u makon»* matla’li va undan so‘ng keltirilgan g‘azal 126^a-127^b, «*Ey tolibonro devona kardi, Az ishqiro ‘yat mastona kardi»* matla’li va undan so‘ng o‘rin olgan, barchasi Og‘oyi Buzurgga bag‘ishlangan 7 g‘azal 130^b-137^b varaqlarda joylashgan. Devondagi g‘azallarning umumiyligi soni 320 tani tashkil etadi. G‘azallar devonning turli o‘rinlarida joylashganligi ular mavzulari bilan ham bog‘liq ko‘rinadi. Chunonchi, Og‘oyi Buzurgga bag‘ishlangan 8 g‘azalning bir o‘rinda joylashtirilganligi fikrimizga dalil bo‘la oladi.

Muslihabegim Miskin she’riy hikoyatlar bitishda ham yaxshigina tajriba orttirgan shoira sanaladi. Ushbu devonda masnaviyda bitilgan shunday she’riy hikoyatlardan o‘ntasi o‘rin olgan bo‘lib, ulardan biri, yuqorida ta’kidlanganidek, shoiraning turmush o‘rtog‘i shayx Abdulvohidga bag‘ishlangan. Bu hikoyat Muslihabeginning tanishtirish xarakterida bitilganidan bo‘lsa kerak, devonning ilk she’ri sifatida tanlangan. Qolgan she’riy hikoyatlar devonning 4^a-6^b, 7^a-12^a, 13^a-17^b, 141^b-149^b varaqlarida, jami 5 o‘rinda keltirilgan. Muslihabegim Miskin musammatlar bitishda ham alohida iqtidorini namoyon eta olgan shoira. Ushbu devonda shoiraning yirik hajmli lirik janr muxammasda bitilgan 6 she’rining 4 o‘rinda (21^a-22^a, 105^a-111^a, 134^a-135^a, 137^b-138^a) keltirilgani kuzatiladi. Ulardan 4 tasi tojik, bittasi mulamma’ o‘zbek, tojik va bittasi o‘zbek tilida bitilgan bo‘lib, shoiraning chinakam zullisonayn ijodkorligidan dalolat beradi. Devonda «*Na’ti tu xonam beriyo»* misrasi bilan boshlanuvchi 19 bandli mustasne’ (111^a-113^a) va «*Ey podshohi har du jahon Hayyu Tavano»* misrasi bilan boshlanuvchi 17 bandli muashsharga (114^b-118^a) o‘rin berilgan. Muslihabegim Miskin she’riy hikoyatlardan tashqari, Muhammad (s.a.v.) va tariqat pirlariga bag‘ishlab, shuningdek, munojot mavzusidagi lirik janr masnaviyda ham she’rlar bitgan. Bu janr namunalarining 13 tasi devonning 6 o‘rnida (22^a-23^b, 24^a-25^b, 118^a-118^b, 125^b-125^b, 126^b-130^b, 135^a-135^a) keltirilgan. Shoiraning 2 mustazodi mazkur devonda ikki o‘rinda (46^b-47^a, 113^a-114^b) mavjudligi kuzatiladi. Muslihabegim Miskin devonidan o‘rin olgan soqiynoma, ruboiy va fard singari nazm namunalari kichik hajmli lirik janrlar sanaladi. Bu janr namunalari devonda boshqa janrlar singari tarqoq holda bo‘lmay, balki bir o‘rinda keltirilgani bilan alohidalik kasb etadi. Shoiraning «*Az*

*partavi husni o‘ devona shavad oshiq» misrasi bilan boshlanuvchi ruboysi devondagi ushbu janrning dastlabki namunasi bo‘lib, ularning 36 tasi 118^b-122^a, «*Biyo soqiy dunyo nadorad vafo*» satri bilan boshlanuvchi soqiynomadan boshlab barchasi ikki baytdan tarkib topgan 26 soqiynoma 122^a-125^a varaqlarda keltirilgan. Bu ikki janr namunalari ham arab alifbosi tartibida joylashtirilmagan. Shoiraning yagona fardi 39^b varaqdan o‘rin olgan. Shunday qilib, devonda 9 lirkjanr namunasi va masnaviyda bitilgan she’riy hikoyatlarning mavjudligi kuzatiladi.*

Shoiraning 972\1-raqamli devoni Qo‘qon qog‘oziga nasta’liq xati bilan ko‘chirilgan bo‘lib, unda kotib nomi keltirilmagan. Yuqorida qayd etilganidek, devon hijriy 1295, melodiy 1878-yilda tartib berilgan. Unda kotib nomining ko‘rsatilmaganligi uni shoiraning o‘zi tomonidan tartib berilgan, deya taxmin qilishimizga omil bo‘ladi. U ham tavsifi keltirilgan devon singari «*Bismillohir rahmonir raiyim*» ilohiy kalimasidan keyin shayx Abdulvohid haqida masnaviyda bitilgan 42 baytli hikoyat bilan boshlanadi boshqa devonlarda uchramaydigan «Ey barodar, ba jahon ne’mati alvon pisar ast, Izzati sultonat zanat mardon pisar ast» (137^a-varaq) matla’li 6 baytli g‘azal bilan nihoyalanadi. Ushbu devonda 243 g‘azal, 35 ruboiy, 25 soqiynoma, 1 fard, 8 masnaviy, 3 muxammas, 1 mustasne’, 2 mustazod, 1 muashshar va 9 she’riy hikoyat keltirilgan. Unda ham tavsifi keltirilgan devon singari lirk turning 9 janrida bitilgan she’rlar jamlangan. 972/1-raqamli devonning umumiy hajmi 6228 misrani tashkil etadi. 1962-raqamli devonning mazkur devonga nisbatan birmuncha mukammalligi, uning hajman salmoqliligi hamda undagi g‘azal, masnaviy, muxammas singari janrlar miqdorining ko‘pligida ham kuzatiladi. Anglashiladiki, 1962-raqamli devon katta ehtimol bilan shoiraning so‘nggi tartib berilgan devoni bo‘lishi mumkin. Negaki, uchinchi devon 1277-raqamli devonning hajmi ancha ixcham. Devonning umumiy hajmi 3971 misrani tashkil etadi.

Ushbu devon «*Bismillohir rahmonir rahim*» ilohiy kalimasidan keyin 15 baytdan tarkib topgan «*Avvalash go‘yam sanoye on xudovandi jahon, Podshohi har du olam Xoliqi kavn-u makon*» [2^a-2^b- varaq] matla’li g‘azal bilan boshlanadi, unda Muhammad (s.a.v.), chahoryorlar, Payg‘ambar (s.a.v.)ning qizlari Fotima, nabiralari Hasan va Husaynning vasfi badiiy talqin etiladi. Devon «*Ba isyon sabz gasht in bahoram, Ba isyon biguzarad laūlu nahoram*» (101^b-102^a-varaq) matla’li 14 baytli g‘azal bilan yakunlanadi. Devonda 11 janr namunasiga o‘rin berilgan bo‘lsa-da, ularning miqdori u qadar ko‘p emas. Chunonchi, devonda 156 g‘azal, 35 ruboiy, 26 soqiynoma, 1 fard, 4 masnaviy, 3 muxammas, 1

musaddas, 1 mustasne', 2 mustazod, 1 muashshar va 2 tarje'band keltirilgan. Mazkur devonda boshqa devonlarda uchramaydigan «*Na'ti tu go 'yam damodam, ey rasuli mujtibo*» satri bilan boshlanuvchi 54 misrali (82^b-84^b varaq) musaddas, «*Ba holi zori mo benagir, ey ma'shuqi rabboniy*» (76^b-79^b), «*Nigar ki zori mustaram, ey shoh Muhyiddin vali*» (79^b-81^b) satrlari bilan boshlanuvchi tarje'bandlar ham mavjud. Quyidagi jadvalda devonlardagi o'zaro o'xhash va farqliliklar raqamlar misolida o'z ifodasini topgan bo'lib, ular aytilgan mulohazalarimizning dalili bo'la oladi:

devon	g'azal	mustazod	ruboyi	soqynom ^a	fard	masnaviy	muxamm	musaddas	mustasne'	muashsha'	tarje'band	She'riy hikoyat
1962	320	2	35	25	1	14	6	0	1	1	0	10
972/ 2	243	2	35	25	1	8	3	0	1	1	0	9
1277	156	2	35	26	1	4	3	1	1	1	2	0
Jami	333	2	35	26	1	14	6	1	1	1	2	10

Jadvalda keltirilgan raqamlardan Muslihabegim Miskinning 1962-raqamli devoni shoiraning birmuncha mukammal devoni hisoblansa-da, qolgan ikki devoni ham uning adabiy merosining boshqalarida uchramaydigan namunalarini o'zida ifodalagani sezish mumkin. Shu bois shoiraning har uchala devoni uning adabiy merosining qaysidir jihatlarini to'ldirishi bilan ahamiyatli sanaladi. Jadvalda ana shunday farqliliklar lirik turning turli janrlarda bitilgan nazm namunalarining umumiy miqdorini keltirishda ham inobatga olindi. Shunday qiyoslar natijasida shoiraning bizgacha yetib kelgan adabiy merosi 8706 misradan tarkib topgani ma'lum bo'ldi. Ular lirik turning 11 janrida bitilgan nazm namunalari va masnaviyda yozilgan she'riy hikoyatlardan iborat.

Muslihabegim Miskin devonlarining shoira adabiy merosining qaysidir jihatlarini to'ldirishi bilan ahamiyatli sanalishi quyidagi qiyoslardan ham anglashiladi. Chunonchi, shoiraning birmuncha mukammal devoni sanalgan 1962-devonida mavjud bo'limgan 20 g'azal 972/1-raqamli devonida mavjudligi kuzatiladi. Ushbu devondagi «Hargiz maband dili tu ba dunyoyi siymdor...» [2^a-2^b varaq], «Darig'o meravi oxir az in jahoni siymdor oxir...» [58^a-58^b varaq], « Dardi moyonro davo kun, yo G'afur...» [58^b - 59^a varaq], «Ajab hayron-u mas-tu bexudam az ishqni on diydor...» [59^a-59^b varaq], «Man ojiz darmondaam, yo Mustafo, dastam

begir...» [59^a-59^b varaq], «Joni fidoyi chashmi «mo zog‘u-l-basar...» [59^b-60^b varaq], «Az jon-u dil oshiq-u barhez vaqt sahar...» [60^a-60^b varaq] «Begir dasti moro az lutfi xud, ey Qodiro, imro‘z...» [60^b-61^a varaq], «Umrho beguzasht dar in dunyo, tu g‘ofil hanuz...» [60^b-61^a varaq], «Agar mard rahi az ishqil rabbon, har sahar barhez» [61^a-61^b varaq], «Agar hamd-u sanoyatro kunam man dam-badam og‘oz...» [61^b-varaq], «Guzasht umr nakardi tu toate hargiz...» [61^a-61^b varaq], «Ey xudovando, nadoram g‘ayri tu man hech kas...» [61^b-62^a varaq], «Boshat bar ko‘yi mekun tu moro havas...» [62^b-63^a varaq], «Dili xasta-yu zorat manam, yo rab, ba faryodam beras...» [61^a-61^b varaq], «Dil-u jonro kunam har dam fidoyat, yo rasululloh...» [94^a-94^b varaq], «Man agar az dardi ishqat suxan kunam du bora...» [94^a-94^b varaq], «Toati Haqro bekun oxir zi dunyo meravi...» [94^b-95^a varaq], «Tavakkul bo xudo ovar agar mardi musulmoni...» [95^a-95^b varaq] «Ey barodar, ba jahon ne’mati alvon pisar ast» [137^a varaq] satrlari bilan boshlanuvchi g‘azallar bunga misol bo‘ladi. Ushbu g‘azallarning 6 tasi 1277 raqamli devonda ham uchramaydi. Ayni choqda 1277 raqamli devon hajman qisqa bo‘lsa-da, yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, undagi tarje’band va bir musaddasning boshqa devonlarda kuzatilmaganligi uning o‘ziga xosligini belgilaydi.

Muslihabegin Miskinning iste’dodli shoira ekanligi, avvalo, uning uch yuzdan ortiq o‘zbek, tojik tillarida, shuningdek, mulamma’da bitgan g‘azallari hamda nazmning turli janrlarda ijod qilgani, ayniqsa, mustazodda o‘zini sinab ko‘rgani, muxammas, musaddas, mustasne’, muashshar, tarje’band singari lirik turning hajman katta janrlarida she’rlar bitganida kuzatiladi. Ayni choqda uning devonlarida ruboiy, o‘ziga xos to‘rt misradan tarkib topgan soqiynoma kabi kichik lirik janr namunalarining uchrashi ham shoiraning Sharq mumtoz poetikasini teran o‘rgangani va ularni badiiy ijodda mahorat bilan qo‘llay olganidan dalolat beradi. Umuman olganda, mumtoz lirikaning o‘ndan ortiq janrida ijod qilish ijodkordan yuksak shoirlik salohiyati bilan bir qatorda mumtoz she’r ilmini sinchiklab o‘rganishni talab etadi. Devonlarni qiyosiy o‘rganishning o‘ziyoq Muslihabegin Miskinda ana shunday iste’dod va bilimning mavjudligi sezilib qoladi.

Alisher Navoiy lirikasini sinchiklab o‘rgangan A.Hayitmetov «Xazoyin ul-maoniy» dagi mustazod, muxammas, musaddas va musamman singari janrlarning mavzu va shakliy o‘xshashligidan kelib chiqib, ularni g‘azaldan o‘sib chiqqan, kengaytirilgan janrlar sifatida talqin etadi²⁶. Bizningcha, tarje’band, tarkibband singari janrlar ham aynan

²⁶ Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: “Фан”, 1961. –Б 67.

g‘azaldan kelib chiqqan, uning kengaytirilishining hosilasi sanaladi. Masalaga shu nuqtayi nazardan yondashilsa, Muslihabegin Miskin lirkasini quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. G‘azal va unga bog‘liq bo‘lgan lirk janrlar: g‘azal, mustazod, muxammas, musaddas, mustasne’, muashshar, tarje’band.

2. Boshqa lirk janrlar: ruboiy, fard, soqiynoma, masnaviy.

Shoira lirk merosida ayrim janr namunalarining miqdori nihoyatda oz. Chunonchi, ijodkorning o‘zini tanitishi jihatidan ahamiyatli bo‘lgan, tadqiqotimizning ilk faslida keltirilgan «*Nomi man Muslihabegin buvad guftam*: «*Yod dor , Guft Miskin*: «*Nomi xudro to nagardad oshkor*» [972/1, 1^a varaq] satrlaridan tarkib topgan fardi shu janrda yozilgan yagona namuna sanaladi. Bu esa Muslihabeginning fardda ijod qilishda u qadar mayl ko‘rsatmaganligidan dalolat beradi. Biroq shoira lirkasidagi musaddas, mustasne’, muashshar singari janrlarda bitilgan she’rlarga nisbatan bunday fikrga kelish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Negaki, bular musammat namunalari bo‘lib, ular orasida musaddasda bitilgan she’rlar o‘zbek mumtoz adabiyotida ancha keng tarqalgan. Biroq mustasne’ va muashshar musammatning nodir namunalari sanaladi. Nodiraning «Firoqnom» deb nomlanuvchi asari muashsharda bitilgan ana shunday nazmiy asardir. Mustasne’ esa boshqa shoirlar ijodida kuzatilmaydi. Shu bois musammatning o‘zbek mumtoz adabiyotida murabba’, muxammas, musaddas, musabba’, musamman singari ko‘rinishlarining keng tarqalgani e’tirof etiladi²⁷. Shundan kelib chiqib, Miskinning ayni janrlarda ijod etganini uning nazmning xilma-xil janrlarida she’rlar bitish salohiyatiga egaligi sifatida baholash lozim.

Shoira lirkasida mustazod janrida bitilgan ikki nazm namunasi uchraydi. Adadining kamligiga ko‘ra, bu janrda yozilgan she’rlar ham musaddas, mustasne’ va muashshar singari Muslihabegin ijodining noyob namunasidir. Tadqiqotning keyingi bobida shoiraning mustazod yaratishdagi badiiy mahorati xususida alohida to‘xtalamiz.

G‘azal va unga bog‘liq bo‘lgan janrlardan boshqa lirk janrlarda ham Muslihabegin Miskin badiiy ijod etgan. Ular orasida ruboiy va soqiynomada bitilgan nazm namunalari alohida ahamiyat kasb etadi. Shoira soqiynomalari masnaviyda yozilgan ikki baytdan tarkib topgan she’rlardir. Ruboiy singari bu janrda ham shoira nihoyatda muhim ilohiy-irfoniy, axloqiy-ta’limiy qarashlarini nihoyatda ixcham shaklda o‘quvchiga taqdim qilganki, bu an’anani davom ettirish mas’uliyatini his etish bilan bir qatorda, shoirada o‘ziga xos iste’dod sohibi bo‘lishni ham

²⁷ Носиров О.Ўзбек классик шеърияти жанрлари. –Тошкент.:Ўқитувчи.1979. – Б.114.

talab etadi. Tahlillar asosida unda shunday iste'dod borligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Muslihabegin Miskin devonlaridagi janrlarni tahlil qilar ekanmiz, har uchala devonda ham ruboiylar miqdori 35 tani tashkil etganiga guvoh bo'lamiz. Ruboiylar fors-tojik tilida yozilgan bo'lib, mavzular ko'lami turli-tuman. Shoira aksar ruboiylarida Xudo, payg'ambar timsollarini sifatlab, tavsiflab insoniy fazilatlarni ham ziynatlashga alohida e'tibor qaratadi. Ruboiylarida qalamga olingan mavzular esa insonning kamoloti uchun zarur bo'ladigan dolzarb masalalarga bag'ishlanadi.

Dar har jahon izzati shohon ilm ast,
Behtar az sultonat taxti Sulaymon ilm ast.
Har ki andar in jahon donad agar qadri ilm,
Izzati sultonat zi niyati mardon ilm ast [1972, 114^b varaq].

Keltirilgan iqtibosda shoira ilm afzalliklari, undan bahramand bo'lган inson hamisha izzatda bo'lishi, ilm Sulaymon taxtidan ham afzal ekanligini uqtiradi. Ilm va unga tashnalik barcha zamonlarda yuksak qadrlangan, uni o'rganish yoki egallah insonga xos xususiyatdir. Shoiraning bu boradagi fikrlari, uning islomiy qarashlari natijasida shakllanganligini taxmin qilish qiyin emas. Islom olamining muqaddas kitobi bo'lган «Qur'on» da ham ilmning afzalligi bir necha marotaba bayon etilgan. Agar inson ilm nuri bilan o'z yo'lini yoritmassa, zulmat va nodonlik ko'chasida qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va ma'rifat bilan baquvvat bo'ladi. Insoniyatning qadri ilm bilan hosil bo'ladi. Ilmdan hali hech kim zarar ko'rgan emas. Ilmni egallab olish esa bir san'atdir. Dunyoda qanday yovuzlik sodir bo'lган bo'lsa, ularning hammasi nodonlik orqali kelib chiqqan. Eng zo'r halokat nodonlik, insoniylikni bitiruvchi ham nodonlikdir²⁸.

Muslihabegin Miskin ruboiylarida dunyoning o'tkinligi ham tilga olinadi: Bu o'tkinchi dunyoda odamlarning bir-biriga munosabati ham o'tkinchiligi, vafo qilgan inson vafo topmasligi, mazkur foniy dunyoda muttasil mehnat qilganlar, alalxusus, rohat topmoqliklari dushvor ekanligi juda oddiy, ammo ishonarli jumlalar bilan bayon etiladi. Uning «Ey bevafo ast dunyo hargiz vafo naboshad...» misralari bilan boshlanuvchi ruboysi mazkur fikrlarni o'zida mujassam etadi:

Ey bevafo ast dunyo hargiz vafo naboshad,
Umri azizi moro hargiz baqo naboshad.
Pur jurm-u pur gunoham darmonda-yu asiram,

²⁸ Машриқзамин –хикмат бўстони. –Тошкент: “Шарқ”, 1979. –Б.391.

Holi hama xarob ast lutfi xudo naboshad [1972, 117^b varaq].

Mazmuni: *Bu dunyo bevafodir, hargiz vafosi yo‘qdir. Bizning aziz umrimiz boqiy emasdir. Gunohim behad ko‘p, darmondayu asirman. Xudoning lutfi bo‘lmasa hammaning holi xarobdir.*

Shoira qarashlariga ko‘ra, dunyo ahli gunohkor va chorasisz bo‘lib, agar bizlarga parvardigorimiz lutf-u karam ko‘rsatmasa, ya’ni nazar solmasa holimiz xarob ekanligi uqtiriladi:

Ey onki dar in jahon vafo hargiz nest,
Dar umri azizi mo baqo hargiz nest.

Forig‘ nashavad odami az mehnatu g‘am,
Juz kulfat-u g‘am rohati mo hargiz nest [1972,117^a varaq]..

«Barhez sahar lutfi xudo meoyad...» misrasi bilan boshlanuvchi ruboiyda har sahar uyg‘onib, toat-ibodat qilish, toat-ibodat esa insonlar dardiga davo bo‘lib qaytishini aks ettiradi:

Barvez sahar lutfi xudo meoyad,
Bar dardi dilibanda davo meoyad.
Hojati tu az dilhoho toatash kun,
Ba dardi tu maqbuli duo meoyad [1972,16^b varaq]...

Umuman olganda, banda oxiratda xotirjamlikni istasa, unda taqvoni kanda qilmaslik, unda bardavom bo‘lish Miskin ruboilari uchun asosiy jihat sanaladi:

Ey onki turo mol-u zar bisyor ast,
Dar nazdi xudo javobi o‘ dushvor ast.
Sozi tu agar az zaru dunyo xirman,
Andar daruni go‘ri tu har yak mor ast [1972,116^b varaq].

Muslihabegim Miskin mo‘minlar nomidan oxiratda sharmanda qilmaslikni, afv etishni murojaat-u iltimos qilib Allohdan so‘raydi. Zero, shoira nazdida, foniy dunyodagi sharmandalikdan ko‘ra boqiy dunyodagi sharmandalik juda og‘ir bo‘lib, aynan ushbu holatga tushmaslik uchun Tangrining lutfi marhamatiga ko‘z tikadi:

Yo rab, tu makun rasvo dar ro‘zi jazo moro,
Az hurmati payg‘ambar baxshoy gunohi moro.
Az lutf nazar mekun bar so‘yi g‘aribonat,
Sharmanda makun, yo rab, in bandayi xud fardo [1972,116^b varaq].

Miskin ruboilalarida Allohga muhabbat qo‘yish, uni ko‘rmoqlikka mushtoq bo‘lish mavzusi ham alohida o‘rin tutadi. Shoiraning «Ey banda, ba dargohi xudo...» misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi aynan mazkur holatni o‘zida in’ikos ettirarkan, kishilarni Tangri inoyatiga sazovor

bo‘lishlari uchun afg‘on(ko‘z yosh to‘kmoq» ,«zahmat chekmoq», aynan bu yerda «ibodat qilmoq») chekishga chorlaydi:

Ey banda, ba dargohi xudo bosh afg‘on,
Mushtoqi jamolash shuda shav diyda giryon.
Shoyadki nazar kunad ba holi banda,
Az ishq-u muhabbatash beso‘zad dil-u jon [1972,117^a varaq].

Muslihabegin Miskin ruboiliali shunday janrga xos bo‘lgan qonuniyatlar asosida yaratilgan bo‘lib, ular alohida tahlilni talab qiladi. Ruboilarning qofiyalanishi, tartib berilishi Muslihabeginning adabiy janrlardan yetarlicha xabardor ekanligidan dalolat beradi.

Miskin lirik turning soqiynoma janrida ham ijod etgan iste’dodli shoira sanaladi. Garchi Muslihabegin soqiynomalari devonning salmoqli qismini tashkil etamasa-da, ulardagi mavzular shoiraning boshqa janrdagi asarlari mazmuni bilan hamohang. Miskin soqiynomalari bilan tanishar ekanmiz, uning soqiynoma yozish qonun-qoidalari va usullarini mahorat bilan o‘zlashtirgan shoira ekanligiga yana bir karra guvoh bo‘lamiz.

Soqiynoma o‘zbek mumtoz adabiyotidagi she’riy shakllardan biri bo‘lib, u odatda soqiya murojaat bilan boshlanadi. Soqiynoma janridagi she’rlar XV asrdan keyin ham she’riyatimizning hayotga juda yaqin va jonli namunalarini tamsil etgan. Adabiyotshunos M.Asadov tadqiqotida soqiynomaning masnaviy shaklidan tashqari g‘azal-soqiynoma, musaddas-soqiynoma, ruboiy-soqiynoma, tarje’band soqiynoma shakllarda bitilgan namunalari borligi e’tirof etiladi²⁹.

Turkiy adabiyotga soqiynoma janri Navoiy ijodi bilan birga kirib keldi. «Favoyid ul-kibar» devonidagi kichik dostonqa qiyoslash mumkin bo‘lgan soqiynoma hajman 458 baytdan iborat bo‘lib, Navoiy yashagan davrdagi tarixiy shaxslar, davr muammolari, eng avvalo, Navoiy shaxsi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni o‘zida aks ettirilganligi bilan ham ahamiyatlidir³⁰.

O‘zbek adabiyotshunoslari A.Qayumov, A.Hayitmetov, R.Orzibekov, F.Nabiiev, Yo.Ishoqov, I.Haqqulovlarning ishlarida soqiynoma janri haqida bahs yuritilgan³¹.

Muslihabegin Miskinning 972\1 va 1962-raqamli devonlarida 25 tadan, 1277-raqamli devonida esa 26 ta soqiynoma mavjud. Uchala devonda keltirilgan soqiynomalar bir xil. Faqatgina shoiraning 1277-

²⁹ Асадов М. Ўзбек мумтоз адабиётида соқийнома (генезиси, тараққиёт босқичлари, поэтик хусусиятлари). Филология фанлари д-ри... дисс. –Тошкент, 2020. Ҳаққул И. Соқийнома. Ҳаёт ва шодлик манзумаси. <https://kh-davron.uz/kutubxona/>.

³⁰ Сирожиддинов Ш. ва б. Навоийшунослик. –Тошкент.Академнашр. 2020. – Б.576.

³¹ Қаюмов А. Дилкушо такрорлар ва руҳафзо ашъорлар. –Тошкент: Шарқ, 2014. 272 б.

raqamli devonida boshqa devonlar tarkibida uchramaydigan bitta soqiynoma berilgan.

Miskin soqiynomalari fors-tojik tilida, masnaviy usulida yozilgan bo‘lib, jami 104 misradan iborat. M.Asadov masnaviy shaklida bitilgan soqiynomalarda ijtimoiy ohanglar, zamon va ijodkor qismati, hasbi hol mazmuni, shuningdek, axloqiy-ta’limiy masalalar boshqa she’riy shakllarda yaratilgan mazkur janr namunalariga nisbatan yetakchi mavqe egallashini e’tirof etadi³². Turk olimi R.Ganimning soqiynomaga bergen ta’rifi esa Muslihabegin Miskinning shunday janrda yozilgan nazm namunalariga nihoyatda muvofiq tushadi. Jumladan, u «Turk adabiyotida soqiynomalarni va ishratnomalar» kitobida soqiynomani quyidagicha ta’riflaydi: «Soqiynoma – shoirning soqiya xitobi ila umrning foniyligi, dunyoning o‘tkinchilagini xotirlatmoq, pand-u nasihat, hikmat mazmunidagi va mutaqorib bahrida yoziladigan masnaviy she’r» dir³³.

Miskin soqiynomalari ham aruzning mutaqoribi musammani mahzuf vaznida yozilgan bo‘lib, ularni asosan mavzusiga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Toat-ibodat haqidagi soqiynomalarni
2. Allohdan, pirlardan marhamat tilash, uning lutfidan umidvorlik haqidagi soqiynomalarni
3. Umrning o‘tkinchiligi xususidagi soqiynomalarni
4. Ilohiy ishq vasfiga bag‘ishlangan soqiynomalarni

Muslihabegin Miskin devonida Allohdan, pirlardan marhamat tilash, uning lutfiga umidvorlik mazmunidagi soqiynomalarni hajman ko‘proq bo‘lib, asosan ularda umrning o‘tkinchiligi, har daqiqa, har lahzaning g‘animatligi, Alloh va payg‘ambarimiz Muhammad rasulullohning shafoatlaridan umidvor bo‘lish lozimligi ta’kidlab o‘tiladi:

Biyo soqiy, beguzar zi hoy-u havas.
Buvad in jahon oshiqonro qafas,
Dili xud makun moil in jahon,
Ki raftand az in jo hama oshiqon [1972, 120^a varaq].

Shoira nazdida, bu dunyo barcha oshiqlar uchun qafas. Shu bois unga ko‘ngil bog‘lash, u bilan bog‘liq orzu-havaslarga berilishdan voz kechish kerak. Muslihabegin o‘quvchini bu jahonga ko‘ngil bermaslikka undarkan, fikrini dalillash uchun bu yerdan barcha oshiqlarning o‘tib

³² Асадов М. Ўзбек мумтоз адабиётида соқийнома (генезиси, тараққиёт босқичлари, поэтик хусусиятлари). Филология фанлари д-ри... дисс. –Тошкент, 2020.

³³ Canım R. Türk edebiyatında sakinameler ve işratname.– Ankara: Akçağ yayınları, 1998. – S.10.

ketganini misol qilib keltiradi. Miskin soqynomalaridan yana biri Allohdan marhamat tilash, uning lutfiga umidvorlik mavzusida bitilgan:

Biyo soqiy, hojati xudro bexoh
Ki bar holi mo on xudovand guvoh.
Xudovand kunad rahmat in osiyon,
Davomat bar dargohi o‘ kun fig‘on [1972, 120^a varaq].

Muslihabegin Miskinning ta’biricha, Alloh unga va u kabi gunohkor insonlarga, albatta, rahm qiladi, ammo bu marhamatga erishish uchun odamlar mudom «fig‘on» chekishlari kerak. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, shoiraning aksar ijodiy namunalarida keltirilgan «fig‘on», «oh», «nola» kabi xitoblar aynan shunchaki gunohkor bandaning iltijo qilishi lozimligini ifodalash uchun emas, balki gunohlarni yuvish uchun toatibodat qilish shartligi yuzasidan ham tavsif etilganligini anglash mumkin bo‘ladi.

Shoira bu janrdagi asarlarida soqiyya murojaat qilinishi zamirida qalbi Alloh ishqisi bilan limmo-lim to‘lish orzusidagi lirik qahramon holatini ifodalaydi. Bu ishq unga Allohnинг ma’rifati bilan oshno bo‘lishini ko‘ngliga olib kiradi. Muslihabegin Miskin qalbiga kirib kelishi nazarda tutilgan Alloh ma’rifatini jidd-u jahdi bilan ibodat qilishda, nafsi ammoraning aldovlariga ko‘ngil bog‘lamaslikda deb biladi.

Miskin soqynomalaridagi ayni holat Ahmad Yassaviy hikmatlarini xotirga keltiradi:

Xudovando, meni solg‘il o‘z yo‘lingga,
Nafs ilgida xarob, ado bo‘ldum mano³⁴.

Ahmad Yassaviy ham shoira Miskin singari «nafs ilgi» dan qutulmoq, atrofda to‘lib-toshgan fisq-u fujurlarga barham bermoqning yo‘lini izlaydi. Shuning uchun ham Ahmad Yassaviy «Ollo dedim, shayton mendan yiroq qochdi, hoy-u havas, moumonlik turmay ko‘chdi...» deb bejizga aytmagan.

Shoira Miskinning «Biyo soqiy, injo tarab...» misrasi bilan boshlanadigan soqynomasi ham yuqoridagi mavzuning silsilaviy davomini o‘zida mujassamlashtirgan:

Biyo soqiy, in jo tarab soz kun,
Ki zikri xudovand og‘oz kun.
Ki zikri xudo rohati jon buvad,
Daruni lahad nuri iyomon buvad [1972, 120^a varaq]

³⁴ Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар.—Тошкент. :F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.1991.
—Б.8.

Mohiyat markazida Allohnini zikr etish masalasi ustuvor etib belgilanadi va shoira mazkur amallarni bajarib, Allohnini mudom yodga olish, payti kelib, inson vafot etganida, uning amalga oshirgan zikrlari qabrini zulmatdan asrashini, shu bilan birga, iymon nuri bilan yoritilishini ifoda etadi.

Miskin soqiynomalarida insonlarning gunohkor va chorasisz ekanligini aytib, parvardigorning himmatiga, marhamatiga muhtojligini qayta-qayta ta'kidlashdan to'xtamaydi. E'tiborli jihat shundaki, shoira buni rang-barang satrlarda mohirona amalga oshiradi.

Shoira soqiynomalarining aksariyatida Alloh Taoloni vasf etarkan, uni Islomda nazarda tutilgan to'qson to'qqizta nomlaridan ayrimlariga ham murojaat qiladi. Jumladan, «Biyo soqiy, nomash G'afur-u Rahim...» misrasi bilan boshlanuvchi soqiynomasida gunohkor bandalar Allohnинг lutfidan noumid bo'lmasligini badiylashtiradi:

Biyo soqiy, nomash G'afur-u Rahim,
Kunad yak nazar holi moro Karim,
Zi lutfash nazar sozad o'holi mo,
Tarahhum kunad bar ahvoli mo [1972,120^a varaq].

Tangrining bunday nomlari tilga olinganda, lirik qahramon o'zini gunohkorlar safiga kiritib, malomat qiladi.

Allohnинг G'afur va Rahim singari nomlari mavjudligini soqiya murojaat bilan ifodalar ekan, uning gunohlarni kechiruvchi, rahmdil va mehribonligidan umidvorligini ifodalaydi.

Allohnинг Karim, ya'ni saxiy va saxovatli ma'nolarni anglatuvchi nomi esa o'zi singari osiyilar holiga nazar qilishiga muhtojligini badiylashtirish imkonini beradi. Negaki, lirik qahramon kabilarning holidan xabar olish uchun saxovatli bo'lmoq nihoyatda muhim sanaladi. Shunday ulug' zot lirik qahramon va uning safdoshlariga nazar qilishi, tarahhum – rahm qilishidan umidvorlik soqiynoma bag'riga singdiriladi.

Miskinning umr o'tkinchiligi badiiy talqiniga bag'ishlangan soqiynomasida Muhammad rasululloh obrazlariga murojaat qilinganligi bilan ahamiyatlidir:

Biyo soqiy, raftand hama az jahon,
Ki hama olimon hama solihon.
Kani on shoh Muhammad kujost?!
Ki sardori jumla Ahmad kujost?! [1972,120^a varaq]

Shoira soqiya murojaat etgan ushbu masnaviysida jahon–dunyoning payg'ambar hadislarida ifodalanganidek, bir rabot ekanligini nazarda tutadi va hamma bundan vaqtisi-soati bilan o'tib ketishiga ishora qiladi. Bu

dunyodan olimlar va solihlarning o‘tib ketgani badiiy ifodasi she’rxonni sergaklantiradi. Ikkinchi baytdagi shoh Muhammad va jumla olam sardori Ahmadning qayerdaligini tajohuli orifin badiiy san’atiga tayanilgan holatda so‘ralishi o‘quvchidagi hissiy ta’sir kuchini yanada oshiradi. Tabiiyki, bu hissiy ta’sir e’tiqodiy qarashlar zamirida shakllantirilganligi bois uning qudrati yanada kuchliroq namoyon bo‘ladi.

Biyo soqiy, mardoni Haq raftaand,

Az in jo ki raxti safar bastand.

Bedidan(d) jahon hast ko‘hna rabot,

Beraftan(d) az in jo hama kard bod. [1972,123^a varaq]

Shoira dunyoning vafosizligini, uning ko‘hna rabotga o‘xshashligini «mardoni Haq» obraziga murojaat etish bilan ham yuqoridagi soqiynomada kuzatilganidek, ta’sirchan, badiiy ifodalaydi. Adib Ahmad Yughnakiy ham «Hibatul haqoyiq» asarida dunyoni bir qo‘nib, yana ketiladigan rabotga o‘xshatadi: «Bu dunyo tushib ko‘chgulik rabotdir, rabotga tushguvchi ko‘chish uchun tushadi»³⁵.

Mumtoz adabiyotda yaratilgan aksariyat soqiynomalarda tong, bahor fasli va gulzorni ta’rif-u tavsiflash orqali hayot shodliklari, tabiat go‘zalliklarini madh etish, umrning har bir lahzasini g‘animat bilib, uni shod-u xurramlikda o‘tkazish mazmunlari ifoda etiladi³⁶.

Muslihabeginning «Biyo soqiy, vaqt Gul-u lolazor...» misrasi bilan boshlanuvchi soqiynomasida ham shunday mazmun o‘zining badiiy ifodasini topgan:

Biyo soqiy, vaqt Gul-u lolazor,

Bechinem gule dar fasli bahor.

G‘animat buvad in Gul-u gulsiton,

Rasad oqibat gulsitonro xazon [1972,120^a varaq]

Ijodkorning hayotdan zavqlanish, umrning o‘tkinchiligi xususidagi soqiynomasida ayni bahor chog‘i, Gul-u lolazorlarni kezadigan davr ekanligi e’tirof etilib, xazon chog‘i ham muqarrarligi ta’kidlangan. Xususan, shoira mazkur soqiynomada yoshlik davridan unumli foydalanish zaruratini, g‘animat damlarda fursatni qo‘ldan boy bermaslikni, ezgu amallar qilishdan charchamaslikni, zero, ertaga keksalik davrida, umr poyoniga yetganida barcha amallar sarhisob qilinishi uqtirilgan. Muslihabeginning «Biyo soqiy, omad ki nikomi Gul...» hamda «Biyo soqiy, omad ki vaqt xazon...» misralari bilan boshlanuvchi

³⁵ Адіб Ахмад Юғнакий. Ҳибатул хақойик. –Тошкент.: “Акамдемнашр”. 2019. –Б.15.

³⁶ Асадов М. Ўзбек мумтоз адабиётида соқийнома (генезиси, тараққиёт босқичлари, поэтик хусусиятлари). Филология фанлари д-ри... дисс. –Тошкент, 2020. –Б.169.

soqiynomalari mazmunan bir-biri bilan hamohang bo‘lib, har qanday lolazor (yoshlik, shijoat davri) ham, alalxusus, yakson bo‘lishini, shunday ekan, taqvoda bardavomlikni saqlab qolish banda foydasiga xizmat qilishi aytilgan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, soqiya murojaat orqali o‘quvchining diqqatini ifodalanayotgan fikrga jalg qilish, ritorik xitob yoki nido san’ati vositasida o‘quvchiga estetik ta’sir ko‘rsatish soqiynoma janri kompozitsiyasida nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Soqiynomalarda soqiya xitoblar o‘quvchini ijodkorning ruhiy-ma’naviy olami, fikrlar dunyosi, u e’tibor qaratgan bir qator axloqiy, falsafiy, ijtimoiy, siyosiy masalalarga yo‘naltiradi. «Soqiy», «soqiyo», «ey, soqiy», «ketur, soqiy», «ayo, soqiy» chorlovlaridagi ritorik ohang, o‘tkir pafos va keskin murojaat o‘quvchini sergaklantiradi, diqqatini muayyan nuqtaga jamlashga undaydi³⁷. Jumladan, Miskin soqiynomasida soqiya murojaat «biyo, soqiy» – «kel, ey soqiy» shaklida berilgan bo‘lib, «soqiy» murojaati orqali iltimos, yalinish, iltijo kabi ma’nolar ham ifodalangan.

XIX asrning ikkinchi yarmi Buxoro adabiy muhitida badiiy ijod bilan shug‘ullangan iste’dodli shoira Muslihabegim Miskinning mumtoz nazmning birmuncha kamyob janri – soqiynomada ijod etganligi uning shoirlilik iste’dodi yuksakligidan darak beradi. Negaki, «soqiy», «may» singari timsollardan ijodiy foydalanish ayol ijodkor uchun muhim badiiy kashfiyotlar yaratishni talab etadi. Shoiraning tahlilga tortganimiz soqiynomalarini nazardan o‘tkazar ekanmiz, ularning aksariyatida ilohiy-irfoniy g‘oyalarning yetakchilik qilishiga guvoh bo‘lamiz. Miskin ijodida diniy qarashlar yetakchilik qilishi u voyaga yetgan shart-sharoit va adabiy muhit bilan izohlanar ekan, shoira ilg‘or umumbashariy g‘oyalarni targ‘ib qilishga intilganligini payqash qiyin emas. Dunyoviy amallar, hayotga bo‘lgan yuksak zavq va ishtivoq, noyob insoniy fazilatlarga da’vat, hayotni nursiz qiluvchi illatlarga shafqatsizlik, shu bilan birga, hayotsevarlik g‘oyalari ana o‘sha ilohiy-irfoniy pardalarga o‘ralgan holda o‘quvchilarga taqdim etiladi.

Kuzatishlardan ma’lum bo‘ladiki, Muslihabegim Miskinning 1962-raqamli devoni shoiraning birmuncha mukammal devoni hisoblansa-da, qolgan ikki devoni ham uning adabiy merosining boshqalarida uchramaydigan namunalarini o‘zida ifodalagan. Shu bois shoiraning har uchala devoni uning adabiy merosining qaysidir jihatlari to‘ldirishi bilan ahamiyatli sanaladi. Uning mumtoz lirikaning 11 janrida bitilgan nazm namunalari va masnaviyda yozilgan she’riy hikoyatlari, jami 430 ta she’rdan iborat adabiy merosining bizgacha yetib kelgani, ayniqsa,

³⁷ Асадов М. Сокиё жоми тараф тараф келтурки... ... <https://kh-davron.uz/kutubxona/>.

shoiraning uch yuzdan ortiq o‘zbek, tojik tillarida, shuningdek, mulamma’da g‘azallar, muxammaslar bitgani, mustazodda o‘zini sinab ko‘rgani, muxammas, musaddas, mustasne’, muashshar, tarje’band singari lirik turning hajman katta janrlarida, shuningdek, ruboiy, o‘ziga xos to‘rt misradan tarkib topgan soqiynoma kabi kichik lirik janrlarda ijod etgani shoiraning Sharq mumtoz poetikasini teran o‘rgangani va ularni badiiy ijodda mahorat bilan qo‘llay olganidan dalolat beradi.

Muslihabegin Miskin g‘azal va unga bog‘liq bo‘lgan lirik janrlardan tashqari ruboiy, fard, soqiynoma, masnaviyda ham ijod qildi. Shoiraning sidqan ibodat targ‘ibi ruhida bitilgan ruboiy, soqiynomalarida qalb go‘zalligi bilan bog‘liq muhim masalalarni ixcham badiiy ifoda eta olgani uning iste’dodining muhim bir qirrasi sifatida namoyon bo‘lgan.

II BOB. MUSLIHABEGIM MISKINNING LIRIK JANRLAR VA SHE'RIY HIKOYAT YARATISHDAGI BADIY MAHORATI

2.1. G'azal va unga bog'liq bo'lgan lirik janrlar

Muslihabegim Miskin o'zi yashagan zamonning diniy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy voqeliklaridan teran xabardor bo'lib, xususan, adabiy an'analar haqida yetarli tasavvur va bilimga ega bo'lgan, ikki tilda birdek ijod qilgan zullisonayn shoiradir. Ko'hna tarix durdonasi bo'lgan sharif Buxoroning vakilasi sifatida mumtoz adabiyotimizning xazinasini boyitishda o'zining salmoqli nazmiy merosini qoldirgan ijodkor salohiyati e'tirof etishga arzulik.

Muslihabegim Miskinnning oilaviy muhiti hamda yashash tarzi ham uning ijodiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Islom an'analari bilan sug'orilgan qadriyatlardan yoshligidanoq bahramand bo'lib borgan shoira o'zining nazmiy asarlarida Allohga bo'lgan yuksak muhabbat va ishonchini, payg'ambarlar sardori Muhammad alayhis-salomga nisbatan ehtiromini, musulmon olamida tanilgan sahoba hamda pirlarga esa sodiqligini tarannum qildi, ulardagi fazilat va neklikni in'ikos etdi.

Muslihabegim Miskin ixcham hajmlı lirik janrlar: ruboiy va soqiynomada badiiy iste'dodini namoyish eta olganidek, g'azal va unga bog'liq bo'lgan lirik janrlar: g'azal, mustazod, muxammas, musaddas, mustasne', muashshar, tarje'band kabilarda ham shunday qobiliyatini she'rxonga yetkaza oldi. Ularning ayrimlari misolida mulohazalarimizga oydinlik kiritishga harakat qilamiz. G'azal boshqa ijodkorlarda kuzatilgani singari shoira ijodining salmoqli qismini tashkil etadi. Uning dastlabki namunalari VIII-IX asrlarda arab adabiyotida paydo bo'lgan, fors-tojik adabiyotida ilk g'azal yozgan shoir sifatida Ro'dakiy tilga olinadi. O'zbek adabiyotida esa dastlabki g'azal Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy» asarida (XIV asr) uchraydi. G'azalning dostonlar tarkibida uchrashi ilk bor Xorazmiyning «Muhabbatnama» sidan boshlanadi³⁸. Ma'lumki, o'zbek adabiyotida g'azalning hajmi 3 baytdan 19 baytgacha bo'lishi ta'kidlanadi. Professor Abdurauf Fitrat «Adabiyot qoidalari» asarida g'azalga quyidagicha ta'rif beradi: «Yurak lirizmi she'rlari» ko'brak g'azal shaklida yoziladi...».³⁹

³⁸ Юсупова Д. Адабиёт: –Тошкент: “Академнашр”. 2015, –Б.93.

³⁹ Болтаев Х. Шарқ мумтоз поэтикаси --Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси,2008. –Б.140.

Muslihabegin Miskin g‘azallaridagi mavzular olami rang-barang bo‘lib, ularda asosan Islom va shariat qoidalari ta’rifu tavsif qilinadi. Shoira g‘azallarini mavzusiga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Allohdan shafoat tilash, ummatlarga qiyomat kuni maxfirat ko‘rsatish mavzusidagi munojot g‘azallar.

2. Muhammad alayhis-salom vasf etilgan na’t g‘azallar.

3. Payg‘ambar alayhis-salomning ahli bayti, sahobalar, avliyo va pirlar madh etilgan g‘azallar.

4. Hasbi hol g‘azallar.

5. Sidqan ibodat targ‘ibi, dunyoning o‘tkinchiligi va bevafoligi mavzusidagi g‘azallar.

6. Ilohiy va majoziy ishq mavzusiga bag‘ishlangan g‘azallar.

Shoira g‘azallari 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 14, 16, 21 baytli nazm namunalaridan iborat. G‘azallarning aksariyati 9, 11 baytlidir. Ushbu ma’lumotlar ham shoira ijodida ixcham 4-6 baytli, o‘rtacha hajmdagi 7-9 baytli, hajman yirik 12, 14, 16, 21 baytli g‘azallar mavjudligini dalillaydi. Tabiiyki, g‘azal hajmining kengayib borishi uning mukammallashuvining nishonasi sanalmaydi. Shoiraning aksariyat g‘azallarining 7-9 baytdan tarkib topganligi uning g‘azalnavislikdagi an‘analarga rioya qilganidan darak beradi.

Miskin devonidagi g‘azallarning salmoqli qismini munojot g‘azallar tashkil etadi. Shunday mazmundagi g‘azallarda Muslihabegin Miskin bot-bot bekas-u g‘aribligini eslatadi. Ayni holat ijodkorning o‘z-o‘zini malomat qilish ruhida bitilgan g‘azallarida ham kuzatiladi. Bunday nazm namunalarida Muslihabegin Miskin toat-ibodatda bardavom bo‘lommagani, gunohlari ko‘payib ketganini talqin etib, Allohning rahmatidan umidvorligini ham o‘ziga xos mungli ohangda, ko‘pincha hazaji musammani solim (ma’foiylun ma’foiylun ma’foiylun ma’foiylun) vaznida bitilgan g‘azallarida badiiylashtiradi. Shoiraning o‘zbek tilida ijod etilgan quyidagi g‘azali fikrimizning yorqin dalilidir:

Xudovando, sani dargohinga man qilmadim toat,

Nazar qilg‘il bu holimga madad aylaki bu soat.

Gunohim ko‘pturur behad, nazar qilg‘il bu holimga.

Umidim bor sani dargohinga qilg‘il manga rahmat.

Ilohi, osiylarg‘a san o‘zing rahmat ato qilg‘il,

Ilohi, jumla mo‘min joyini san aylag‘il jannat.

Agar chandeki osiyman, umidim bor rahmatingdan,

Umid birla borurman, ey Xudoyo, aylag‘il rahmat

Iloho, Miskini bechorag‘a lutfi karomat qil,

Bu foni y dunyoda, parvardigoro, ko 'rmadim rohat [1962, 54^a varaq].

Xudoga yo'nalib, o'zini aybli sanab, gunohlari mo'lligidan nolib she'rlar bitish musulmon mintaqasi xalqlari adabiyotida ko'plab shoirlar ijodida kuzatiladigan adabiy uslub sanaladi. O'zbek mumtoz adabiyotida ilk bor Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarida sezilarli darajada namoyon bo'luvchi bu uslubiy jilo XIX asrda ham o'quvchiga hissiy ta'sir ko'rsatishning eng ma'qul yo'llaridan biri sifatida qo'llanilib kelindi. Muslihabegin Miskin ham ushbu g'azalida Xudoga yuzlanib, bani bashar uchun o'ziga xos sinov muddati sanalgan bu o'tkinchi umrini toatibodatdan ayri o'tkazgani, gunohlari behad ko'payib ketgan bo'lsa-da, Allohning lutfu marhamatidan umidsiz emasligini badiiy ifodalaydi.

Shoiraning yuksak insoniy fazilatlar sohibi ekanligi, avvalo, o'zini gunohkor deb bilishida kuzatilsa, Yaratuvchidan barcha osiy bandalarga rahmat ato etishini iltijo qilib, keyinchalik o'zini ham nafaqat ular qatorida, balki «chandeki osiyman», - deya e'tirof etishiyu, lutfu marhamatdan umidvorligini badiiy ifodalaganida yaqqol namoyon bo'ladi. G'azalning maqta'sida Miskini bechoraning parvardigorga zorlanib, bu foni y dunyoda rohat ko'rmaganligi evaziga Uning lutfidan benasib bo'lmasligini iltijo qilishi zamirida esa shayx Abdulvohidga bag'ishlangan she'riy hikoyatdagi onaizor obrazi ko'z oldimizga namoyon bo'ladi. Kamolini ko'rish niyatida ne-ne mashaqqatlar bilan voyaga yetkazgan dilbandlarining birin-ketin zavolini ko'rish mushtipar ona uchun «bu foni y dunyoda rohat ko'rmadim», - deyishga to'la asos bo'ladi, albatta.

Muslihabegin o'z g'azallarida asosan Ona obrazida ham gavdalanadi, uning nazmiyatidagi o'ziga xos ohangrabbo ham aynan shu jihat bilan maftunkordir. Zero, ona timsolidagi shoira ham qalban, ham aqlan o'z hissiy kechinmalarini ajib bir nafislik bilan o'quvchiga yetkazib bera oladi. Shu bilan birga, bir vaqtning o'zida ham she'r yozib, ham farzand dog'ida anduh chekish o'ta mashaqqatli ekanligini uning quyidagi misralardan anglab olish mumkin:

So 'xta az furqati o ' nola bar gardun rasid,

Koshki binam jamoli nozaninashro ba xob [1972, 36^a varaq].

O'zining achchiq qismatida farzand dog'ida qolgan giryona, mazluma onayi- zor obrazi yuqoridagi fors-tojik tilidagi misralarda aks etganligini anglash qiyin emas.

Muslihabegin Miskin she'rlarining aksariyati yuqorida ta'kidlanganidek, o'z-o'zini malomat qilish ruhida bitilganidan masalaga yondashadigan bo'lsak, u taqdirida sodir bo'lgan barcha

ko‘ngilsizliklarning moyasini chinakam mo‘mina sifatida o‘zidan izlaydi. Shu bois ijodkor o‘z she’rlarida farzandlari dog‘ida o‘rtanayotganiga ayrim ishoralar qilish bilan cheklanadi, xolos. Quyidagi baytlar fikrimizni quvvatlantiradi:

*Ey xudovandi jahon, rahmat bekun bar osiyon,
Az karam, yo rab, nazar kun in dili vayroni mo.
Miskini beroraam dar borgohaat, ey karim,
Yak nazar kun, ey xudo, bar diydayi giryoni mo* [1972/1, 32^b varaq].

Mazmuni: *Ey jahonga egalik qiluvchi tangri, osiylarga rahmat qil. Ey xudo, bizning bu vayron ko‘ngillarimizga karam (marhamat) nazari bilan boq. Ey Karim, podshohlik saroyingda Miskini bechoraman. Ey Xudo, yig‘loqi ko‘zlarimizga bir nazar qil!*

Allohga munojot ruhida bitilgan ushbu satrlarda shoira o‘zini bu olamdagи «dili vayron»laru «diydayi giryon»lar safida ko‘rishi zamirida ham o‘sha achchiq qismatiga ishora qilganini sezish qiyin emas.

Islom dini insonlarni hamisha ezgulikka chorlagan, yaxshilikka da’vat etgan. Islomning mazmun-mohiyatini teran anglash, unga amal qilibgina qolmasdan, o‘zgalarni ham hidoyat sari chorlash davr talabi ekanligini anglagan ijodkorlar qalban va fikran o‘z asarlarini mazkur jihatlar bilan bog‘lashga intilishgan. Miskin g‘azallarining aksariyatida yuksak insoniy fazilatlar ulug‘langan. Shoiraning «*Ba dargohi xudovandi jahon doim tu toat kun*» misralari bilan boshlanuvchi g‘azali fikrimiz dalilidir:

Ba dargohi xudovandi jahon doim tu toat kun,

Zi jon-u dil ba dargohash ibodat kun, ibodat kun [1972, 87^a varaq]

Shoira kishilarni Allah yo‘lida toat-ibodat qilishga chaqiradi, Allah butun borliqning egasi ekanligiga urg‘u beradi. G‘azalning keyingi misralarida esa insonlarni mudom Allahni zikr etishga, uni yod qilishga, qolaversa, har bir kishi saxovatli bo‘lishi lozimligiga urg‘u beriladi:

Bekun tu go‘ri xud ravshan zi nuri zikri Haq in dam,

Dar in dunyo barohi Haq saxovat kun, saxovat kun [1972, 87^a varaq]

Shoira nazdida, mudom ibodatda bo‘lgan inson har tomonlama saxovatli bo‘ladi, imkoniyati doirasida moddiy va ma’naviy xayriyani amalga oshirishga tayyor bo‘ladi:

Bego‘ tu zikri u az jon-u dil dar in dunyo,

Ba zikri on xudovandat halovat kun, halovat kun [1972, 87^a varaq]

Keltirilgan iqtibosda shoira insonlarni Alloh zikri yo‘lida halovat topishga da’vat etadi. G’azal mohiyatidan kelib chiqsak, shoira o‘z nazmiyatida halovat, osoyishtalik, xotirjamlikni qadrlash, urushdan, nizodan tiyilishni namoyon etayotganligini ilg‘ab olish murakkab emas.

Bego‘ tu zikri o‘ro har sahar chun mast shav har dam,

Ba justijo‘yi zikri o‘ tahorat kun, tahorat kun [1972, 87^a varaq]

Shoira erta tongdanoq ibodat qilmoq uchun chog‘lanish, ayni shu amalni bajarishni odad tusiga kiritish uchun barchasini tahoratdan, ko‘ngil va tan pokligi bilan amalga oshirish lozimligini insonlarga tushuntirishga harakat qiladi. Miskin insonlarni ibodatga, saxovatga, ozodalikka chorlarkan, insonlarga shaytonning yo‘liga kirib, Haq yo‘liga xiyonat qilmasliklarini qayta-qayta uqtiradi:

Marav dar rahi shaytoni bekun tu kori Rahmoni,

Davomat dar rohi shayton kun, xiyonat kun [1972, 87^a varaq]

Miskin tasavvuridagi barkamol inson ibtidosi ham ibodat bilan ekanligini g‘azalning oxirgi ikki misrasidan anglab olish qiyin emas:

Ayo Miskin, ba dargohi xudo doim ba toat ko‘sh,

Zi jon-u dil ba dargohash ibodat kun, ibodat kun[1972, 87^a varaq]

Mazkur g‘azal asosida shoiraning komil inson borasidagi tushunchasini quyidagi uzviy zanjir misolida gavdalantish mumkin: ibodat – saxovat – halovat – tahorat – ibodat.

Ozodalik, poklik, saxovat har bir inson uchun asrlar osha o‘ta muhim ahamiyat kasb etgan. Islomning asosiy belgilaridan bo‘lgan ushbu insoniy qadriyatlar ayni paytda ham o‘z qimmati yo‘qotgan emas. Kishining zohiran va botinan pokligi Islom dinining gultojidir.

Muslihabegim Miskin ijodini kuzatar ekanmiz, unda e’tiqod, chin mo‘minlik, kamtarinlik, boqiy va foniy dunyo mavzularidagi g‘azallardan tashqari ishq va muhabbatni tarannum etuvchi g‘azallar ham uchraydi. Shoiraning «Chashmam nigoron...» misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali majoziy ishqni tarannum etuvchi go‘zal bir namunadir:

Chashmam nigoron bar rahi zeboyi shumo xesh,

Mahzun dili man bar rahi zeboyi shumo xesh [1277, 14^a varaq].

Matla’da suykli yor mahbubining sog‘inchida o‘rtanayotganligi, uning yo‘llarida ko‘zları intizorligi, ko‘ngli esa yor hajrida mahzun ekanligini ta’kidlaydi. G’azalda «xesh» so‘zi radif sifatida tanlangan bo‘lib, bu so‘z lug‘atlarda «aziz», «azizim» ma’nolarida qo‘llanilgan. Shuningdek, Buxoro o‘zbek va tojiklari shevasida «qarindosh» ma’nosini ham anglatadi. Shoira ayni ma’noni g‘azalda badiiy ifodalagani bois unda talqin etilayotgan manzur umumiylit kasb etadi. Uni shoiraning turmush

o‘rtog‘iga, farzandiga nisbatan ham yoki bir qarindoshiga nisbatan ham aytilgan samimiyligi muhabbatining badiiy ifodasi sifatidan tushunish mumkin. Shuningdek, bu so‘z Muhammad (a.s.)ga nisbatan qo‘llanilgani ham e’tiborni tortadi. Shoira ruboiylaridan birida «*Baxshoy jurmi moro az lutfi xesh, yo rab*» (*Yo rab, qarindoshning lutfi bois gunohlarimizdan o‘t!*) [1962, 80^a varaq] misrasi shunday xulosaga kelish imkonini beradi. Ayni holat ayol ijodkorlarda xos badiiy uslub bo‘lib, ularning oshiqona g‘azallar bitishiga imkon yaratadi. Masalaga shu nuqtayi nazardan yondashadigan bo‘lsak, Muslihabegim bu borada badiiy topqirlik qila olgan, deyish mumkin.

Ey rohati jonam-u dilam, az ishq kabobast,

Devona shavam vola-yu shaydoi shumo, xesh [1277, 14^a varaq].

Mazmuni: *Ey jon-u dilimning rohati, ishqdan kabobdek kuydi, qarindosh, sizga vola-yu shaydolikdan devona bo‘laman.*

Ushbu misralarda shoira «*Ey jon-u dilimning rohati*» deya manzurga murojaat etish bilan unga o‘zining nihoyatda yaqinligini, ayni choqda o‘z jon-u ko‘nglining kabobdek kuyganligini badiiy ifodalashga erishgan. Uning vasf etilayotgan manzurga vola-yu shaydolikda devona bo‘lishi esa sidqan muhabbatga berilganligini anglatadi. Keyingi baytlarda lirik qahramonning ayni holi tasvirlari tadrijiy rivojlantiriladi.

Devonaam az ishq tu, ey shohi dilorom,

Majnun shudaam man ba tamannoyi, ey shumo xesh.

Layli jigar xun ravam dar ko‘h-u sahro,

Devona shavam bar sari savdoi shumo xesh.

Man bulbuli sho‘rida ravam go‘sha-yu bog‘iy,

Mastona ravam man tamoshoyi shumo xesh.

Binam agar on sarvi gul andomi shumoro,

Buda dilam az zulf sumansoyi tu xesh [1277, 14^a varaq].

Mazmuni: *Ey sho‘xi dilorom, sening ishqiningda devona bo‘ldim. Ey siz qarindoshim, (vaslingiz) orzusida Majnun bo‘ldim. Tog‘-u sahroda jigari qon bo‘lgan Laylidek kezay, Ey qarindosh, sizning savdoyingizda devona bo‘lay. Oshiq bulbul misoli bog‘larni sarson kezib, sening jamolingni ko‘rishga mastona borsam, qarindosh. Sizning sarv gul yuzli jismingizni ko‘rib, dilim sening zulfi sumansongga aylandi, qarindosh.*

G‘azalda vasf etilayotgan manzurni «*sho‘xi dilorom*» tarzida istioralashtirish va uning ishqida devona bo‘lishni ifodalash, lirik qahramonni Majnunga o‘xshatish imkonini hosil qilgan. Ayni choqda shoira oshiq obrazi ayol ekanligini nazarda tutgan holda keyingi baytda uni Layliga qiyoslaydi. Bu bilan Layli va Majnunning pok ishq ta’sirida birdek

iztirob chekkanlari badiiylashtiriladi. Shuningdek, lirk qahramonning oshiq bulbulga o‘xshatilishi ham jununvor oshiqlikni tadrijiy rivojlantirish imkonini hosil qilgan. G’azal maqta’sida ma’shuq hajrida hayron-u parishonlik o‘z ifodasini topgan:

Miskin zi firoqat shuda hayron-u parishon,

Payvasta ravam man ba tavalloyi shumo xesh [1277,14^a varaq].

Mazmuni: *Miskin yorning firoqida hayron-u parishon bo‘ldi, men sizga yolvorishda bardavom yuray, qarindosh.*

Muslihabegin Miskin g‘azaliyotidagi jununvor lirk qahramonning ishqini tasvirini badiiy ifodalashda shoiraning Muhammad (a.s.)ni hamda o‘zi e’tiqod qilgan pirlarni «xesh» tarzida tasvirlash imkonini hosil qilgan, deyish mumkin. Umuman olganda, g‘azalda vasf etilayotgan ma’shuqanining umumlashma obraz – ilohiy mazhar sifatida tasvirlanishi uning ko‘nglidagi iztiroblarini badiiylashtirishga zamin hozirlagan va shoira ma’naviy muhabbatni go‘zal tasvirlay olgan.

«Bar ko‘yi tu ..» misralari bilan boshlanuvchi g‘azalida ham ishqiy g‘azaliyot an’analariga xos tarzda shoira mahbubidan o‘zining chorasisz ahvoliga nazar tashlashni so‘raydi:

Bar ko‘yi tu, ey gavhar, yak dona zanam raqs,

Az ishqini jamolat ham parvona zanam raqs [1962,65^a varaq].

E’tibor bering, mahbub ko‘yida uni bir gavhar misol bilib, jamoliga parvona bo‘lib, ma’shuqa raqsga tushmoqni ixtiyor etadi. Bu bilan ishq dardiga mubtalo bo‘lgan yorning tinimsiz hijrondan aziyat chekayotganligini ko‘rsatish ijodkorning birlamchi maqsadiga aylanadi.

Mushtoqi jamoli tuam, ey shoh, nazar kun,

Az ishqini tu man bar mayxona zanam raqs [1962,65^a varaq].

Keltirilgan iqtibosda mahbub – shohga tenglashtiriladi. Shoh – yetishishi qiyin bo‘lgan mahbub, mahbuba esa undan ancha pastda – unga yetmoqlik, jamolini ko‘rmoqlik uchun har qanday qynoqlarga qodir, hatto mayxona sahnida (ishq yo‘lida) raqsga tushishni ham pisand qilmaydi, mahbub visoliga yetmoqlik uchun hech qanday sinovdan tap tortmaydi.

Har ki jamolat ba dilam jilvagar oyad,

Az shavqi tu man behudu mastona zanam raqs[1962, 65^a varaq].

Mahbubning jamolini ko‘rish mahbubaga shu qadar shavq, xurramlik bag‘ishlaydiki, bu jamolning jilvasi uni o‘zini yo‘qotadigan darajada sarxush qiladi, raqsga chorlaydi. Aslida «raqs» so‘zini ma’shuqa sevgisi

uchun qilayotgan sa'y-harakatlarini, visol uchun zahmatlar chekkanda o'zini ovutish barobarida qo'llanilgan ramz desak mubolag'a bo'lmaydi.

Barqe'i zi rahi xesh ba moyon bekushoyi,

Az hajri tu man, ey mahi jonona zanam raqs [1962, 65^a varaq].

Sevgilisiga erishmaslik, jisman undan olisda bo'lmoqlik har qanday oshiqni tiriklikdan judo qiladi, suyuklisining yonida emasligi esa yangi timsollarni keltirib chiqaradi; «ey shahi jonona», ya'ni «mahbub» Oyga tenglashtiriladi, yor qalbidagi zulmatni olisdan bo'lsada yoritib turadi.

Benigar tu ba holi man bechora Miskin,

Be xud shuda az ishqini tu mastona zanam raqs[1962, 65^a varaq].

Ishqiy g'azal an'analariga xos tarzda shoira mahbubidan o'zining chorasisiz ahvoliga nazar tashlashni, uning ishqida o'zligini tamoman unutayozgan bir mastona misoli qolganligini e'tirof etadi.

Muslihabegin Miskin g'azallarining aksariyatida Allohga iltijo qilib, uning lutfi marhamatiga noil bo'lish istagida ekanligini obrazli bayon etadi. Shunday mazmunda bitilgan g'azallardagi orifona ruhning kuchliligi, ayni choqda bunday g'azallar badiiy ifodasida ijodkor murojaat etgan obraz va timsollarning o'ziga xosligi, ulardan mo'mina ayolga xos nazokat-u iffatning ayonlashib turishi she'rxonga hissiy ta'sir ko'rsatadi. O'z holini bulbuli zorga qiyos qilish bilan boshlanuvchi quyidagi g'azal fikrimizning yorqin dalilidir:

Chu bulbuli zor menolam ki mesozam ki afg'onho,

Iloho, rahm kun bar holi zori chashm giryonho.

Nadoram dar du olam, ey xudoyo, g'ayri be tu man,

Xudovando, tu rahm kun bashavq diyda-yu giryonho.

Zi lutfi marhamat, yo rab, tu nazar kun holi zori maro,

Ba dargohi tu doram man hamisha afg'onho.

Agar Layli sifat man zor nolam andar in olam,

Ravam bo diydayi giryon chu Majnun az biyobonho.

Man Miskin hamisha nogah vohasrato doram,

Tu rahm kun ba so'yi dil afgor siyna biryonat(ro) [1962, 25^b

varaq].

Mazmuni: *Bulbuli zordek nola qilib, fig'onlar etib kuylayman, Iloho, zor yig'loqi ko'zlarning holiga rahm qilg'il. Ey xudoyo, sensiz ikki olamda turolmayman, sen shavqli diydasи yoshlarga rahm qilgin. Yo rab, lutfi marhamating ila holi zorimizga nazar qil, dargohingda hamisha fig'onlar chekib qolaman. Qaniydi, bu olamda Laylisifat nola qilsam, Majnundek biyobonlarda ko'z yoshlarim bilan kezsam. Men Miskin hamisha*

nogahoniy qayg‘u-g‘amlar ichraman. Sen dili afgor, siynasi biryonlarga rahm qil!

Besh baytdan tarkib topgan ushbu g‘azal qahramonining holiyasi bilan shayx Abdulvohidga bag‘ishlangan hikoyatdagi onayizorning ruhiy iztiroblari orasida yaqinlik borligi dastlabki baytdanoq anglashilib turibdi. Ayniqsa, shoiraning hasbi holi deya talqin etilgan o‘sha masnaviydagi «Zaifa nek buvad doim ba rohi buzurgon megasht, Misoli bulbuli sho‘rida doim dar fig‘on megasht» («Yaxshilik o‘ylovchi zaifa doimo buyuklar yo‘lida parishon bulbul misoli fig‘on qilib kezardi») satrlarini xotirga keltirish bilan bunga yanada qat’iy ishonch hosil qilishimiz mumkin. Muslihabegim Miskin devonlari tarkibidan o‘rin olgan manzumalarga sinchiklab nazar tashlansa, bulbul ham ijodkorning eng ko‘p murojaat etgan badiiy timsollari sirasiga mansubligi ayonlashadi. Shoira bu mitti beozor jonivorning to‘xtovsiz sayrab turishidan uzoq yillik an’analarga tayangan holda yangicha ma’no izlashga harakat qiladi. Bulbulning gul hajrida iztirob chekishi mumtoz nazm namunalaridan barchaga ayon. E’tiborlisi shundaki, Muslihabegim Miskin uning fig‘oniga o‘ziga xos orifona ruh bag‘ishlaydi. G‘azal qahramonining bulbuli zordek nola qilib, fig‘onlar chekib tinimsiz kuylashidan muddaosi zor yig‘loqi ko‘zlarining holiga Yaratganning shafqat nazari bilan qarashiga erishmoqdir. Bulbulning mitti ko‘zlarini jovidiratib mehr izlaganidek atrofga nigoh tashlashi bilan she‘r qahramoni iztiroblardan ezilganligining ifodasi bo‘lgan yig‘loqi ko‘zları shafqat ilinjida yosh tarqatayotganligi orasida mutanosiblik borligini badiiy tasvirlaydi. Keyingi baytda o‘sha orifona ruh tadrijiy rivojlantiriladi. Endi she‘r qahramoni chinakam haq oshig‘i sifatida ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Uning nazarida bu ikki olam Yaratuvchining o‘zi, Uning vasliga vosil bo‘lish saodatisiz biror qiymatga ega emas. Shu bois u shavqli ko‘z yoshlariga rahm qilishni Xudodan o‘tinar ekan, muddaosini ochiq-oydin baralla aytadi: «Nadoram dar du olam, ey Xudo, g‘ayri be tu man». Ayni choqda uning ko‘zlaridan oqayotgan yoshlar faqat iztirob ifodasi bo‘lmay, balki bu hijron azoblari unga qandaydir shavq bag‘ishlashini ham «bashavq» sifatlovchisi yordamida o‘tinchlari zamirida o‘ziga xos yo‘sinda badiiylashtiradi. Shoiraning bunday yo‘l tutishi hijriy II asrda yashagan mashhur so‘fiy ayol Robiai Adaviya (714 - 801)ning Allohga o‘tli munojotlarini esga soladi. U munojotlaridan birida shunday deb yolvoradi: «Ilohim! Senga jahannam azobidan qo‘rqib ibodat qilayotgan bo‘lsam, meni jahannam otashiga kuydir. Agar jannatingni orzu qilib ibodat qilayotgan bo‘lsam, menga jannatni harom qil. Agar yolg‘iz seni sevganim uchun ibodat qilayotgan

bo‘lsam, meni azaliy jamolingdan mahrum qilma, yo Rabbi!»⁴⁰. G’azalning uchinchi baytida shoira diydortalab oshiq yolg‘iz o‘zi emasligi, ularning safini tashkil etuvchilar soni ko‘pligiga ishora qilib: «Bizning holi zorimizga rahm qil», – deya yolvoradi. Keyingi baytda esa majoziy ishq vositasida ilohiy ishq iztiroblarida o‘rtangan sevishganlar obraziga murojaat etiladi. Bulbuldek nolai zor etishdan qanoat hosil qilolmagan ijodkor Layli singari bu olamda nola chekishni yoinki Majnundek biyobonlarda ko‘zda yosh olib kezish istagida ekanligini badiiy ifoda etadi. Ko‘nglidagi o‘tli dardlar shu qadar bag‘rini kuydira boshlaydiki, u Laylining nolalarini o‘zida takrorlanishi bilan kifoyalana olmay, Majnunsifat kezishni ixtiyor qiladi. Biroq shoira o‘z taqdirida jununkorlik emas, miskini bechoralik yozilganini badiiy ijodda ham unutolmaydi. G’azal maqta’sida o‘z holiga ishora qilib, doimo kutilmagan qayg‘ualamlar ichra qolishidan yozg‘iradi. Allohdan o‘zi singari dili afgoru, ko‘ksi g‘amga qovrilganlarga rahm qilishini o‘tinadi.

Muslihabegin Miskin o‘zbek tilida bitilgan g‘azallarida ham ushbu mavzuga murojaat etadi. Yuqorida tahlil etilgan manzumadan ayonlashgani kabi uning munojot g‘azallaridagi orifona ruhning ustuvorligi shoiraning tafakkur olami ancha kengligi va o‘ziga qadar yaratilgan adabiy an’analardan yaxshigina xabardorligidan dalolat beradi. Shu bois ham ijodkor o‘zining ilohiy ishq badiiy ifodasini topgan g‘azallarida she’rxonni mushohadaga chorlovchi baytlar bitishga erishadi. Bunday baytlar, avvalo, g‘azalning matla’sida kuzatiladi. Shoiraning quyidagi g‘azali aytilganlar nuqtai nazaridan ahamiyatlidir:

Ey shoh, mani vola-yu shaydo qiladursan,
Ishqingda kuyub munchaki rasvo qiladursan.
Majnun kabi man cho‘l-u biyobonni kezibon,
Doim mani jo‘yandayi Laylo qiladursan.
Bir xasta g‘aribman, sani derman bu jahonda,
Jo‘yandayi ul qomati zebo qiladursan.
Devona bo‘lib Majnuni hayron bo‘la qoldim,
Parda ichidan boz tamoshq qiladursan.
Parvonadek shame jamoliga yuribmen,
Xor qilibon ko‘yunda rasvo qiladursan.
Miskin sani derman bu jahonda, u jahonda,
Ishqingda mani Majnuni shaydo qiladursan.

⁴⁰ Osman Turer. Ana hatlariyla tasavvuf tarihi. – Istanbul: “Seha”. Senasiz. –Sah. 70-74.

G'azalning asosiy qahramonlaridan biri bo'lgan ma'shuqani qiyossiz go'zallik sohibi sifatida tasvirlash mumtoz ijodkorlarimiz badiiy yaratmalarida o'ziga xos an'ana tusini olishga ulgurgan. Tabiiyki, bunda ijodkorning erkak yoki ayol jinsiga mansubligi ham ahamiyat kasb etadi. Qayd etilgan an'ana ko'proq erkak qalamkashlar ijodida o'ziga xos uslublarda sayqanlantirilib, tadrijiy rivojlantirilganiga guvoh bo'lgnamiz. Shoiralarimiz ham g'azalning bu qahramoniga ayollarga xos nazokat bilan yondashib, oshiqona-orifona g'azalning go'zal namunalarini yaratishga muyassar bo'lgnlar. Zebiniso, Jahonotin Uvaysiy, Nodira singari tab' ahli bu borada o'zlarining san'atkorlik mahoratini so'zda namoyon qildilar. Muslihabegim Miskin ham ayol ijodkorlar nazmiy yaratmalarini sinchiklab o'rganib, g'azaliyotida mahbub obrazini o'ziga xos uslubda yaratishga intildi.

Yuqorida ko'chirilgan g'azalning dastlabki bayti «ey shoh» tarzida mahbubga murojaat bilan boshlanadi. She'rxon baytni o'qishi bilan shoirani bu qadar vola-yu shaydo, ya'ni behad o'ziga maftun qilgan shoh haqida o'y sura boshlaydi. Bu xitob zamirida bani basharga mansub kishi nazarda tutilganmi yoinki ijodkor munojot g'azallarida kuzatilgani singari olamning yakka-yu yagona podshohiga bo'lgan ishqini badiiy ifoda etmoqdam? Bu mushohadalar ijodkorning o'sha xitobida ikki ma'noni bir o'zanga san'atkorona mujassamlashtira olganining samarasi sifatida namoyon bo'ladi. Haqiqiy she'r ana shunday bahslarga bois bo'ladi. Ayni choqda o'sha shohning ishqida kuyib, rasvo bo'lmoqlik zamirida ham shoira zohiriylar ma'nodan ko'ra botiniy ma'noga urg'u berayotgani haqiqatga yaqindek tuyuladi. Zero, Layli va Majnunning dardli ishqiy sarguzashtlariga ishora etilgan keyingi baytdan ham anglash mumkinki, majoziy va ilohiy ishq bir-birini inkor etmaydi, aksincha, hirsiy-jinsiy intilishlardan xoli bo'lgan xos ishq kishini ilohsevarlik tomon undaydi. Shoira ana shu mantiqdan kelib chiqib, atayin mahbubga «ey shoh» deya murojaat etib, she'rxonning mushohadalariga erk beradi. Keyinchalik esa mohirona qo'llangan ayrim badiiy ishoralar yordamida o'quvchini o'z g'oyalariga ergashtiradi. O'sha shoh ishqisi she'r qahramonini Majnun singari cho'l-u biyobonlarni kezdirib, doimo Laylini istovchi, uni har yerdan talab qiluvchiga aylantirib qo'yadi. Ma'lumki, Layli ishqidan qismatida jununkorlik paydo bo'lgan Qays el nazdida «Majnun» nomini olib, dasht-u sahrolarga yo'l oladi. Odamlar uni tushunib yetmaydilar, rad etadilar. U sahrodagi vahshiy hayvonlar bilan unslashadi. Majnun Laylini

iloh jamolini o‘zida zuhur etgan mazhar⁴¹ sifatida anglagani bois «jo‘yandayi Laylo» bo‘lib, mahbubasining majnuniga aylanadi. Masalaga shu nuqtayi nazardan yondashadigan bo‘lsak, g‘azal matla’sida ifoda etilgan shoh ishqida kuyib, rasvo bo‘lmoqlik negizida ham el anglab yetmagan ma’rifat bor. Bu rasvolik – ilohiy ishq iztiroblarida o‘rtanishdir. Mana shunday iztiroblarda toblangan qalb Majnun singari iloh jamolini o‘zida mujassam etgan mazhar tomon intiladi.

Shoira g‘azalning tahlil jarayoniga tortilgan dastlabki baytlarini she’rxon hayajonini junbushga keltirish uchun mubolag‘aviy tasvirlar bilan bezaydi. Ayni choqda ijodkor qo‘llagan talmeh g‘azal matla’sidagi fikrni hamda o‘quvchida paydo bo‘lgan badiiy ehtirosni tadrijiy rivojlanishiga omil bo‘ladi. Muslihabegim Miskin munojot g‘azallarida kuzatilgani singari – Majnundagi jununkorlikka havasmand bo‘lsa-da, taqdirida bitilgan miskinu bechoralikni inkor etmaydi. Shu bois g‘azalning uchinchi baytidan boshlab qismatidagi siniqlikka e’tiborni qaratadi. Ijodkor g‘azaldagi ko‘tarinki ruhni bardavom bo‘lishini ta’minalash maqsadida mazkur baytda tazod uslubidan foydalana boshlaydi. Unda tasvirlanishicha, majolsiz xasta, kimsasiz, g‘arib holda bo‘lgan she’r qahramoni bu jahonda o‘sha shoh deya atagan mahbubini deb, uning vasliga vosil bo‘lish umidida yashaydi. Bu uning himmati balandligidan dalolat beradi. Garchi oshiqning holati bilan maqsadi u qadar muvofiq bo‘lmasa-da, himmatli oshig‘ini qadrlagan mahbub uni go‘zal qomat jo‘yandas, ya’ni talabgoriga aylantirib qo‘yadi. Ayonlashadiki, shoiraning Layli va Majnun ishqiy sarguzashtlariga ishora qilishidan adabiy muddaosi iloh jamolini o‘zida zuhur ettiruvchi mazharga e’tiborni qaratish edi. Yo‘qsa, o‘zi ham o‘sha shoh vasliga erishish yo‘lida «jo‘yandai ul qomati zebo» bo‘lib qolmasdi. She’r qahramoni ana shunday holatga kelib qolgani bois u bilan Majnun orasidagi tafovut yo‘qolib bordi. U g‘azalning to‘rtinchi baytida tasvirlanganidek tamoman Majnun singari devona bo‘lib, har tarafga taajjubli nigoh tashlaydigan bo‘lib qoldi. Ajablanarli jihat shundaki, mahbub uning bu holini ham parda ichidan tamosho qilish bilan kifoyalanadi, xolos. Baytda qo‘llangan parda timsoli ham g‘azalning yetakchi g‘oyasini oydinlashtirishga xizmat qiladi. Hujjat ul-isлом Abu Homid G’azzoliy Xalloqi olamning farishtalari xususida fikr yuritarkan, quyidagi hadisga diqqatni qaratadi: «Chindan ham, Haq taolo nurli, yetmish ming hijob ila yashirindurki, uning jamolini ko‘ngil ko‘zi bila kashf etsa bo‘lur»⁴². Ko‘rinadiki, shoira vasf etgan Mahbubi mutlaq

⁴¹ Комилов Н. Тасаввуф. –Тошкент: Ўзбекистон, 2009. –Б.192-205.

⁴⁷ Абу Ҳомид Фаззолий. Кимиёи саодат. Рух хақиқати. –Тошкент: Адолат. 2005. –Б 74.

yetmish ming parda ichida yashiringani bois oshig‘iga ana shu pardalar vositasida nigoh tashlaydi. Oradan bu pardalar ko‘tarilsa, oshiqning parvona holiga tushib qolishi hech gap emas. Shu parda bo‘lgani holda ham oshiqning parvonaga aylanib qolgani g‘azalning beshinchi baytida o‘z ifodasini topgan. Oshiqning hayrat maqomidagi ushbu holati parvonaning sham jamolida yurganini eslatadi. Tabiiyki, parvona sham jamolining haroratidan qyinoqlar iskanjasiga qoladi. Jismi xor bo‘lsa-da, ruhan sham bilan vahdat hosil qiladi. Majnunning qismati ham ayni holatni eslatadi. Buni saodat deb bilgan shoira g‘azalning maqta’sida bu dunyoyu u dunyoda men faqat senga yetishnigina orzu qilaman, sen esa meni ishqingda Majnuni shaydo qiladursan, deya yuksak ehtiros bilan ko‘nglidagini badiiy ifodalaydi.

Muslihabegin Miskinni mulamma’ usulida ajoyib g‘azallar bitgan nozikta’b shoira sifatida ham e’tirof etish mumkin. Mulamma’ atamasini ko‘proq adabiyot va uning nazariyasi bilan shug‘ullanuvchilar qo‘llaydilar. Keng o‘quvchilar ommasi uni «shir-u shakar» (ba’zan shirin-shakar), agar uch tilda yozilsa, «shahd-u shir-u shakar deb ataganlar. «Shir-u shakar» so‘zi tojikcha bo‘lib, sut va shakar demakdir, «shahd » so‘zi esa asal. Bu atama obrazli ma’noda qo‘llangan. U xalqlar va tillar hamkorligini chiroqli ifodalagan⁴³.

Ma’lumki, o‘zbek mumtoz adabiyotining juda ko‘p vakillari zullisonayn– ikki til egasi edilar. Xorazmiy, Lutfiy, Navoiy, Gulxaniy, Maxmur, Munis, Nodira, Uvaysiy, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Miriy, Hamza singari ko‘pgina shoirlar o‘zbek va fors-tojik tillarida chiroqli va yetuk she’rlar bitganlar. G‘azali mulamma’ o‘zbek mumtoz g‘azalchiligidida ana shunday zaminda paydo bo‘lgan. Shoир turli tilda alohida-alohida she’rlar bitish bilan qoniqmay, bir she’rning o‘zini turli xil rangda jilolashga intiladi. Natijada mulamma’ hosil bo‘ladi.

Miskin mulamma’ yozish qonun-qoidalari va usullarini mahorat bilan o‘zlashtirgan shoiradir.

Mulamma’ san’ati o‘zbek mumtoz she’riyatida, asosan, XVII - XVIII va XIX asrlarda keng tarqalgan. G‘azali mulamma’ tillarning nisbati, almashib kelishi jihatidan bir necha turda bo‘lishi mumkin: bir bayt bir tilda, ikkinchi bayt boshqa tilda, bir misra bir tilda, ikkinchisi-boshqa tilda, misraning bir qismi bir tilda, ikkinchisi boshqa tilda va hokazo⁴⁴.

⁴³ Носиров О.Ўзбек классик шеърияти жанрлари. –Тошкент.:Ўқитувчи.1979. –Б 185.

⁴⁴ Носиров О.Ўзбек классик шеърияти жанрлари. –Тошкент.:Ўқитувчи.1979. –Б 185.

XV asr shoiri Yusuf Amiriy «Chog‘ir va Bong munozarazasi»ni tasvirlar ekan, ular o‘rtasidagi yaqinlik, hamjihatlikni ta’riflash uchun sut bilan shakarning qo‘shilishidagi yoqimlilik fazilatidan foydalanadi:

Shir-u shakartek biri birdan qarin,
Hamsabaq-u, hamnafasi, hamnishin⁴⁵.

Shir-u shakardagi misralarning biri ikkinchisining tarjimasi sifatida kelmaydi. Shir-u shakar yozish an’anasi o‘zbek she’riyatida ma’lum darajada davom ettirildi. Yangi shir-u shakarlarning mualliflari qardosh xalqlardan birining tilidagi so‘z va iboralarni jalg etish yo‘li bilan o‘sha xalqqa bo‘lgan do’stlik, birodarlik hislarini, fikriy yaqinlikni, samimiyatni ifodalaydilar⁴⁶. «Rang-barang qilmoq» ma’nosini ifodalovchi mulamma’ atamasi «talmi’» deb ham yuritiladi. Adabiyotimiz sahifalarini ko‘zdan kechirsak, ijodkorlarimiz arab va o‘zbek, fors-tojik va o‘zbek, rus va o‘zbek tillarida shunday asarlar yaratganlarining guvohi bo‘lamiz⁴⁷.

Muslihabegim Miskin nazmiyatida ham ikki tilda bitilgan g‘azallar – mulamma’lar uchraydi. Ularning salmog‘i ko‘p emas, xususan, shoiraning uch devonida jami uch mulamma’ g‘azal va bitta mulamma’ usulida yozilgan muxammas keltirilgan.

Shoiraning O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida saqlanayotgan 972/1- va 1277- inventar raqamli devonlarida 7 baytdan iborat «Yo rab, manga qilg‘il nazar lutf-u karomat» [972/1, 42^a], «Har lahza kunam az g‘ami oh-u nadomat» 6 baytdan iborat [972/1, 43^a] misralari bilan boshlanuvchi mulamma’ g‘azallar, «Xudovando, seni dargohingga man qilmadim toqat...» 5 baytdan iborat [972/1, 43^b], 1962-inventar raqami ostidagi devonda esa yuqorida sanalgan ikki mulamma’ g‘azaldan tashqari «Man zor-u parishonam sargashta hayron...» 9 baytdan iborat [1962, 97^a] mulamma’ g‘azallari hamda «Muxammasi shir-u shakar guftagi Miskin...» [1962, 97^a] sarlavhali 9 banddan iborat muxammasi uchraydi. Ushbu mulamma’lardagi mavzular shoiraning g‘azal, ruboiy, muxammas, tarji’band kabi janrlari bilan hamohang. Tavsif berilgan yuqoridagi g‘azallarning deyarli barchasida Xudoga, uning payg‘ambarlariga murojaat, lirik qahramon (shoiraning o‘zi)ning istig‘for so‘rashlari, iltijolari ko‘zga tashlanadi.

⁴⁵ Худойбердиев.Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент:“Шарқ”. –Б.289-290.

⁴⁶ Худойбердиев.Э. Адабиётшуносликка кириш.- –Тошкент:“Шарқ”. –Б.289-290.

⁴⁷ А. Ҳожиаҳмедов. Мумтоз бадиият малоҳати. –Тошкент: “Шарқ”, 1999. –Б.105.

«Xudovando, bu dunyoda sanga man qilmadim toat...» mulamma' g'azalining bir bayti o'zbekcha, bir bayti esa fors-tojik tilida bitilgan. Misralarda Miskin o'zining osiyligini, gunohkorligini ta'kidlaydi:

Xudovando, bu dunyoda sanga man qilmadim toat,
Bu jumla osiylarni, ey xudoyo, aylagil rahmat [1962, 43^b].

Shoira Allohga murojaat qilib, bu dunyoda unga toat-ibodat qilmaganligini, shu bilan birga, hamma osiylarni rahmat aylashini iltijo qilib so'raydi.

Agarchi osiy-u darmondaam, ey Qodir-u Rahmon,
Ilohi, jumla osiyro tarahhum kun tu az lutfat [1962, 43^b].

Mazmuni: Ey Qodir-u Rahmon, men osiyman, qiyin ahvolda qolganman, Ilohi, barcha gunohkorlarga lutfing bilan marhamat qilib, ularga g'amxo'rlik qilgin. Bu baytlarda matla'dagi Allohga yolvorish motivi yanada kuchaytiriladi.

Man darmondani, yo rab, karam birla qo'lum tutg'il,
Bu foniq dunyoda qilma mani oshuftayi mehnat [1962, 43^b].

Qiyin ahvolda qolgan Miskin Xudodan olijanoblik va marhamat bilan uning qo'lidan tutishini, bu o'tkinchi dunyoda uni parishon qilmasligini iltijo qiladi. Iqtibos keltirilgan mazkur baytdagi misralar turkiy tilga vobasta tarzda qalamga olingan bo'lsa ham, aynan ana shu baytning birinchi misrasida fors-tojik tilidagi «darmonda» so'zi ham uchraydi. Alisher Navoiy asarlari lug'atida ushbu so'z «hayron», «qiyin ahvolda qolgan» ma'nolarida ishlatilgan⁴⁸. Baytda turkiy va fors-tojik tillarining uyg'unligini uchratish mumkin.

Nadoram juz tu g'amxori hastam osiy-u miskin,
Xudovando, dar on ro'zi jazo moro bekun rahmat [1962, 43^b].

Mazmuni: Sendan boshqa g'amxo'rim yo'q, gunohkor bechoraman, Xudovando, jazo kuni bizga rahmat aylagil.

Ki tufrog'din bino qilding o'shandoq odam-u havo,
Zamin-u osmonlarni bino qilding san az qudrat [1962, 43^b].

Baytda Alloh insonni tuproqdan yaratganiga ishora mavjud bo'lib, hatto uning qudratidan yer-u osmon ham bino bo'lgani ta'kidlanadi. Misralarda fikrlar asosan turkiy tilda ifodalangan, biroq fors-tojik tili ta'siri ham mavjud. «Az qudrat» jumlasida fors-tojikcha «az» qo'shimchasi qo'llanilgan. Chiqish kelishigi qo'shimchasi «dan» fors-tojik tilida «az» tarzida namoyon bo'lib, qudratidan so'zi kelib chiqqan.

Zi qudrat ofaridi on rasuli behtari olam,

⁴⁸ Фозилов Е. Алишер Навоий асарлари луғати . –Тошкент:“Нисо Полиграф”, 2013. –Б 107.

Ba ro‘zi mahshar kardi shafoathohi bar ummat [1962, 43^b].

Mazmuni: Bu olam rasul qudratidan yaratilgan, mahshar kunida u o‘rtada turib, o‘z ummatlariga vosita bo‘ladi.

Mazkur baytdan ko‘rinib turibdiki, fors-tojik tilidagi misralar ham deyarli yuqoridagi misralarga mohiyatan hamohangdir.

Hazoron shukr qilg‘il ummati shohi rasululloh,

Ilohi, ro‘zi mahshar aylag‘il san jumlanı rahmat [1962, 43^b].

Bu o‘rinda shoiraning «Shohi rasululloh ummati, ming marotaba shukr qilgin, toki Tangrimiz barchani, mahshar kunida rahmat aylasin..» degan fikrlari anglashiladi.

Xudovando, beg‘ayr az tu nadoram yori g‘amxori,

Xudovando, man bechoraro rahmat kuni az lutfat [1962, 43^b].

Mazmuni: Xudovando, sendan boshqa g‘amxo‘r yorim yo‘q, xudovando, men bechorani lutfing bilan rahmat qilgin.

Ilohi, Miskini bechorani lutf-u karomat qil,

Ilohi jumla mo‘min joyini aylag‘il jannat [1962, 43^b].

Muslihabegim ushbu g‘azalining so‘nggi 9-baytida Parvardigordan unga lutf-u karomat ko‘rsatishini, jamiki mo‘minlarning joyini jannat aylashini so‘raydi. Shoira yozgan shir-u shakarlari mavzusidan shuni anglash mumkinki, u o‘zining bechoraligi, miskinligidan uyalmagan, aksincha, shu yo‘l bilan Xudoning marhamatiga sazovor bo‘lishini his qilgan va bunga qattiq ishongan.

Diniy farzlar, diniy bilimlar haqida atroflicha tushunchaga ega bo‘lish, ammo toat-ibodatni yetarlicha amalga oshirmaslik shoiraning nazdida osiylikning bir ko‘rinishidir. Bunday holatdagi inson Qiyomat kunida uyatli ahvolga tushib qolishini shoira «Yo rab, manga qilg‘il lutf-u karomat..», «Har lahza kunam az g‘ami oh-u nadomat» misrasi bilan boshlanuvchi mulamma’ g‘azallarida ham e’tirof etadi. Muslihabegim Tangri va payg‘ambarlarni o‘ziga rahnamo bilib, ularning yordamidan umid qiladi, qiyomat kunining uqubatidan darmon so‘raydi.

Miskin mulamma’ g‘azallarini mahorat bilan bitgan, bu uning o‘ziga xos uslubga ega ekanligidan dalolat beradi. Shoira o‘zbek(turkiy) va fors-tojik tili ko‘nikmalarini yaxshi egallagan, uning bu boradagi salohiyati shir-u shakarlarida yaqqol tasdig‘ini topgan. E’tiborli tomoni shundaki, devonlardagi mulamma’larning yozilish uslubi va tartibi turlicha.

Shoira shir-u shakarlari tuzilishiga ko‘ra ham e’tiborni jalb etadi. Xususan, uning «Yo rab, manga qilg‘il nazar...» deb boshlanuvchi mulamma’sida misralarning birinchi misrasi turkiy, ikkinchisi esa fors-tojik tilida tavsif etiladi:

Tuni kecha turib har zamon qon yig‘lasam arzir,
Bar dargahi tui hech nakardamki ibodat [972/1,67].

Mazmuni: Tun-u kun, har zamon qon yig‘lasam arzir, sening dargohingda hech ham ibodat qilmadim.

«Har lahza kunam az g‘ami oh-u nadomat...» misralari bilan boshlanuvchi shir-u shakarining dastlabki misrasi fors-tojik tilida, navbatdagisi esa turkiy tilda aks ettiriladi:

Har lahza kunam az g‘ami o‘ oh-u nadomat,
Shoyadki jamolini ko‘ray ro‘zi qiyomat.
Payg‘ambari olam nazar kun tu ba holam,
Ey shohi rasul, ayla bu qullarni shafoat[1962,72].

Dastlabki misrada berilgan tojikcha fikrning mantiqiy davom etishini o‘zbekcha jumla ta’minlagan. Shoira birinchi baytda payg‘ambarning g‘amida oh chekib, qilgan gunohlaridan pushaymonligini, qiyomat kunida esa uning jamolini ko‘rishga musharraf bo‘lishini ta’kidlaydi. Ikkinci baytda esa payg‘ambarning uning holiga nazar solishini hamda bu qullariga o‘rtada turib vosita bo‘lishini so‘raydi. Chorasizlik, gunohkorlik uni qiynaydi. Zamon va makonning murakkab silsilalari va evrilishlari nafaqat Miskinni, balki uning qiyofasida oddiy aholining jabrdiyda ekanligini yaqqol namoyish etadi. Bu kabi hollarda choraszilik qurbanlari suyanadigan va tayanadigan yagona omil – din va e’tiqod bo‘lib, aksar odamlarning qalblariga malham kabi tuyulgan. Shunday kezlarda Tangrining marhamati, payg‘ambarning nazari Miskin singari insonlar uchun tom ma’noda munosib dolzarb ahamiyat kasb etgan.

G’azal va unga bog‘liq bo‘lgan lirik janrlarda ijod etish shoira she’riyatining eng salmoqli qismini tashkil etadi. Uning g‘azallarida Sharq mumtoz adabiyotidagi g‘azalnavislikka xos an’alar o‘ziga xos yo‘sinda davom ettirilgani kuzatilganidek, g‘azal va unga bog‘liq bo‘lgan lirik janrlarda ham shoiraning iste’dodi namoyon bo‘lganiga guvoh bo‘lish mumkin. Shoira tab‘i xud musammatlar bitish bilan ham g‘azalnavislikdagi salohiyatini ko‘rsata olgan, deyish mumkin. Xususan uning mustasne’da ijod qilganining o‘ziyoq fikrimizni quvvatlantiradi. Miskinning bunday janrlardagi iste’dodini ijodkordan o‘ziga xos vazniy va qofiya san’atiga xos talablari bilan alohida iste’dod talab etuvchi, shoirlar ijodida nisbatan kam kuzatiladigan mustazodda bitilgan she’rlari misolida talqin etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiyning «Mezonul-avzon» asarida mustazodga bunday ta’rif beriladi: «*Va yana xalq orasida bir surud bor ekandurkim, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida anga bayt bog‘ilab bitib,*

*an*ing misrasidan so ‘ngra hamul bahrning ikki rukni bila ado qilib, surud nag ‘amotiga keltururlar ermish va ani «mustazod» derlar emish⁴⁹. Ushbu ta’rifdan mustazodning ikki muhim jihatni ma’lum bo‘ladi. Birinchisi, uning «surud», ya’ni qo’shiq ekanligi, ikkinchisi esa hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf (maf’ulu mafoiylu mafoiylu faulun) vaznida yozilishi. Shu bilan bir qatorda, uning dastlabki misrasidan so‘ngra oxirgi ikki rukniga mos to‘la bo‘lмаган misra orttirilishidir. Bunday misralar har bir misradan keyin maf’ulu faulun ruknlari ohangida mos ravishda to‘la bo‘lмаган misra orttirib boriladi. Aynan ana shu orttirilgan misralar bu janrga nisbatan arabchada «orttirma» ma’nosini ifodalovchi «mustazod» nomining qo’llanilishiga bois bo‘lgan.

Muslihabegin Miskinning 42 misrali «Ey shohi Muhammad, nazari kun tu ba holam...» («Ey shoh Muhammad, mening holimga nazar qilgil...» [1962, 113^a- 114^a varaq; 972\1, 108^a varaq; 1277, 27^a- 29a varaq] va 16 misrali «Man osiy-u darmon dai sharmandai dargoh, doram zi tu hojat...» («Men osiyman, sening dargohingda sharmandaman, sendan umidvorman...» [1962, 47^a varaq; 972\1, 48^b-49^a varaq; 1277, 59^a- 59^b varaq.) misralari bilan boshlanuvchi mustazodlari mavjud bo‘lib, ikkinchi mustazod 1962 raqamli devonda 14 misra holida keltirilgan.

Shoiraning har ikkala mustazodida ham Muhammad (s.a.v.) obraziga murojaat qilib, Alloh rasulining shafoatiga noil bo‘lish istagi o‘z ifodasini topgan. Mustazod aruzning nihoyatda o‘ynoqi, tovlanuvchi bir vaznida yozilishini teran his qilgan Muslihabegin Miskin o‘zini gunohkorlikda malomat qilish bilan o‘quvchi ko‘nglida o‘ziga xos kuchli to‘lqinlanish, tuyg‘ular tug‘yonini hosil qilishga erisha oladi. Uning 42 misrali mustazodidagi quyidagi satrlar fikimizga dalil bo‘la oladi:

Haq karda turo xalq, ayo afzali olam,
Sardaftari odam,
Rahm bekun az lutf ba holi hama yak dam,
Ey shohidi barno.
Benamoy jamolat ba man zor-u parishon,
Xo‘rdi g‘ami ummat,
Az ishqijamolat shudaam bexud-u hayron,
Mo jumlagi rasvo.
Shoho, ba du olam tuyi payg‘ambar-u sarvar,
Bar jumlagi rahbar,
Mekun tu shafoat hama dar ro zi mahshar,
Ey mohi dil oro.

⁴⁹ Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. XX томлик, 16-тум. – Тошкент: “Фан”. – Б. 93.

Az lutfi karam yak nazari kun tu ba holam,
 Tu afzali olam,
 Devona-yu shaydo shuda az hajri tu nolam,
 Man bulbuli shaydo.
 Ey mohi jahon, ro‘y-u chashmoni tu «mo zog‘»,
 Benihoda badil dog‘,
 Devona shuda zi hajri tu bulbul ham zog‘,
 Az ishqqi tu rasvo.
 Man osiy-u sharmanda-yu purjurm-u gunahkor,
 Yo Qohir-u Qahhor,
 Yo rab, hama ro tu az otashi do‘zax tu nigahdor,
 Ey Xoliqi ashyo [1277,28^a varaq].

Mazmuni: Ayo, olamning afzali, barnolar shohidi, seni insonlarga sarvar (afzal) qilib sayladi, sen ularning holiga rahm qilgin. Men zor-u parishonga jamolingni ko‘rsat, ummating g‘amida bo‘lding, sening jamolingdan o‘zimni yo‘qotdim, butun jumlayi jahonda sharmandayi rasvo bo‘ldim. Yordam aylagin. Butun dunyoga, ikki olamga payg‘ambarlar sarvari sensan, mahshar kunida barchamizga shafoat qilgin. Mening bu holimga bir rahm qilgin, bu olamning sarvari, sening hajringda devona-yu oshiqman, misli bulbuldek shaydoman. Ey jahonning hiloli, sening oldingda biz misli zog‘ kabi, ko‘nglimizda dog‘. Sening hajringda bulbul ham zog‘ ham devona-yu rasvo bo‘ldi. Yo Qohir-u Qahhor, ey Xoliqi ashyo, men bir osiyman, sharmandaman, gunohlarim bisyor. Ey Tangrim, bizni do‘zax otashidan saqlab, nigoh tashlagin.

Mustazodda orttirilgan misralar uning o‘ynoqi ohangini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shoira ushbu misralarning dastlabki oltitasida «Sardaftari olam» , («Olam sardaftari») «Ey shohidi barno» («Barno shohidi»), «Xo‘rdi g‘ami ummat» («Ummat g‘amini yeyuvchi»), «Ey mohi dil oro» («Ko‘ngil ichra oy»), «Tu afzali olam» («Olam afzalisan») tarzidagi payg‘ambar (a.s.)ni vasf etuvchi undalma va jumlalarni qo‘llash bilan o‘quvchi e‘tiborini aynan shu tavsiflarga qarata oladi. «Man bulbuli shaydo» («Shaydo bulbuman»), «Benihoda badil dog‘» («Ko‘ngil nihoyatda dog‘li»), «Az ishqqi tu rasvo» («Ishqingda rasvo») singari orttirilgan misralarda keltirilgan ixcham jumlalar bilan o‘zini malomat qilishga erisha oladi. Bu hol Muhammad (s.a.v.) vasfi keltirilgan oldingi orttirilgan misralar bilan o‘zaro zidlikni hosil qiladi. Bunday kontrast uslubi mustazodga xos o‘ynoqilikni ta’minlash imkonini bergen. Keltirilgan adabiy parchaning so‘nggi ikki ortirilgan misralarida Allohning

«Qohir-u Qahhor» singari sifatlari va uning ashylarning yaratuvchisi ekanligi ta’kidlanib, lirk qahramonning gunohkorligi, do‘zax azobidan qutqarishni o‘tinib so‘rashi bilan qarama-qarshilikni hosil qildirgan. Ayni holat o‘quvchiga kuchli hissiy ta’sir ko‘rsatish imkonini hosil qilgan. Shuningdek, lirk qahramonning shafoatli payg‘ambarni jannatda ko‘rish istagi bilan bitilgan misralaridagi o‘zini hajr iztiroblaridan devonayi shaydo bo‘lib, bulbuldek nola chekadigan holda tasvirlashi, Payg‘ambar (a.s.) nazarda tutilgan «Jahon oyi» ning yuzu ko‘zi oldida o‘zi singarilarni zog‘ – qarg‘aga qiyoslab, bulbul-u zog‘larning hajr iztiroblaridan devona bo‘lishi bilan bog‘liq tasvirlarda ma’naviy muhabbatni⁵⁰ o‘ziga xos uslubda badiiy talqin eta olgan.

Miskin mustazodlarini tahlil qilish jarayonida shunga amin bo‘lamizki, shoira mustazodlarida obrazlar o‘rtasidagi munosabatni ikki xil shaklda ko‘rish mumkin. Birinchi holatda Muslihabegin o‘zining gunohlari ko‘pligini, shu bilan birga, boshqa osiy banddalar ham rahm-shafqatga muhtoj ekanliklarini ta’kidlab, Alloh karamidan umid qiladi. Muhammad payg‘ambarni miskinlarning tavallosini Allohga yetkazuvchi sifatida e’tirof etishga harakat qiladi. Uning «Man osiy-u darmonda sharmandai dargoh, doram zi tu hojat...» («Men osiyman, sening dargohingda sharmandaman, sendan umidvorman...» misralari bilan boshlanuvchi mustazodi ham aynan shu mavzudagi nazm namunasiga misol bo‘ladi.

Kuzatishlardan ayonlashadiki, Muslihabegin Miskin g‘azal va unga bog‘liq bo‘lgan lirk janrlarda ham o‘z iste’dodini namoyon eta olgan iste’dodli zullisonayn shoiradir. Uning toat-ibodatga undash ruhida yozilgan g‘azallarining o‘ziyoq bir qator motivlardan tarkib topganligi shoiraning tafakkur olamining kengligidan dalolat beradi. Shoiraning munojot g‘azallarida toat-ibodatda bardavom bo‘lolmagani, gunohlari ko‘payib ketganini talqin etib, Allohnинг rahmatidan umidvorligini ham o‘ziga xos mungli ohangda, ko‘pincha hazaji musammani solim (ma’foiylun ma’foiylun ma’foiylun ma’foiylun) vaznida bitilgan g‘azallarida badiiylashtirishi uning o‘ziga xos uslubi sifatida namoyon bo‘ladi. Muslihabegin Miskin munojot g‘azallarida kuzatilgani singari Majnundagi jununkorlikka havasmand bo‘lsa-da, taqdirida bitilgan miskin-u bechoralikni inkor etmaydi.

Shoira g‘azaliyotida Layli, Majnun, bulbul timsollaridan unumli foydalanadi. Bu an’anaviy adabiy qahramonlarga ishora etuvchi

⁵⁰ Эшонқулов Х. Алишер Навоий ғазалиётида ишқ поэтикасининг қиёсий-типологик таҳлил (“Хазойин ул-маоний” мисолида). Филол. фанлари докт. дисс. – Самарқанд, 2020. –Б. 32-44.

talmehlarni va oshiqi shaydo bulbulni lirik qahramonga qiyoslash bilan g‘azalga oshiqona ruh olib kira oladi va lirik qahramon ruhiy holatini badiiy kashfiyotlar bilan tasvirlashga erishadi. Ayniqsa, uning g‘azalda vasf etiluvchi manzurni «xesh», «ey shoh» tarzida istioralashgan ma’shuqa qiyofasida tasvirlashi g‘azalda ilohiy va majoziy muhabbatni uyg‘un holda ifodalashiga omil bo‘ladi. Shoiraning o‘zbek-tojik tilida mulamma’ g‘azallar ijod etgani uning alohida badiiy mahoratidan darak beradi. Bir bayt o‘zbekcha, bir bayti tojik tilida bitilgan mulamma’lari, xususan, baytda dastlab tojik tilida bitilgan misraning keyingi misrada o‘zbekchada davom ettirilishi uning har ikkala tilda birdek o‘ziga xos salohiyat bilan ijod etganini ko‘rsatadi. Shuningdek, shoiraning mustazodda ijod etgani she’riyat uning uchun dil izhorlarinigina badiiylashtirish vositasi bo‘lib qolmaganligini anglatadi. Ayniqsa, bu janrning orttirilgan misralarida Muhammad alayhis-salom xos istioralashgan sifatlarning undalma tarzida qo‘llanib, o‘zi va o‘ziga o‘xshaganlar sifatlarini ham ayni holda istioralashtirishi bilan mustazodda kontrastni va o‘ziga xos o‘ynoqilikni hosil qilishi uning iste’dodining bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi.

2.2. Muslihabegin Miskin she’riyatining obrazlar olami va ularning poetik funksiyasi

Shoira Muslihabeginning Islom dini tafakkuri bilan sug‘orilgan nazm namunalarida Allohga, payg‘ambarlarlarga, xususan, Muhammad Mustafoga murojaatlar, shu bilan birga, payg‘ambarning izdoshlari, ahli xonadoni, pirlar, an’anaviy adabiy qahramonlar haqida ham fikr yuritiladi. Bu jihat Sharq adabiyotida keng tarqalganligi ma’lum, ammo Miskin ijodidagi mazkur masalaning o‘ziga xosligi unda Alloh, payg‘ambar va uning izdoshlaridan tashqari, eshon va pirlarning e’tirof etilishi shoiraning nazmiyatida rang-baranglikni keltirib chiqaradi.

Muslihabegin Miskin she’riyatida Odam (a.s) va Havo, Ya’qub (a.s.), Yusuf (a.s.) va Zulayho, Ayub (a.s.), Muso (a.s), Dovud (a.s.), Iso (a.s.) va Maryam, Zikriyo(a.s), Ibrohim (a.s.), Muhammad (a.s.) singari payg‘ambarlar va ular bilan eslanadigan qur’oniy qissa qahramonlari, Ibrohim Adham, G’avsul A’zam – Abduqodir Jeloniy, Og‘oyi Buzurg – Qizbibi, Boboyi Samosiy kabi tariqat vakillari, xalifalardan: Abu Bakr, Umar, Usmon, Aliyi Murtazo, Payg‘ambar (a.s.) ahli baytlaridan Oysha, Fotima, Hasan, Husan, sahobalardan Ukkosha, shuningdek, Vomiq, Uzro, Farhod, Shirin, Layli, Majnun singari an’anaviy adabiy qahramonlar hamda Munkar, Nakir, Jabroil, Azroil kabi farishtalar obrazlariga murojaat

etiladi. Shoira she'riyatida lirik qahramondan tashqari yuqoridagi obrazlardan ijodiy foydalanishi uning qur'oniy qissalar, diniy afsona-yu rivoyatlar va Sharq mumtoz adabiyotidagi an'anaviy syujetlardan nihoyatda yaxshi xabardorligidan dalolat beradi.

Muslihabegin Miskin ijodida, oldin ta'kidlanganidek, Muhammad (s.a.v)ning shafoatiga musharraf bo'lish istagi ustuvorligi bois qur'oniy qahramonlar obrazlari orasida, tabiiyki, Muhammad (s.a.v.) obraziga murojaat eng salmoqli ekanligi kuzatiladi. Shuningdek, boshqa payg'ambarlar, xalifalar-u Payg'ambar (a.s.) ahli baytlari va sahobalarga murojaat zamirida ham Muhammad (a.s.) obrazini imkon qadar to'laqonliroq badiiy ifodalash adabiy niyati turadi.

Muslihabegin Miskin she'riyatida yuqorida nomlari keltirgan qur'oniy qahramonlar obrazlari orasida Yusuf (a.s.) timsoli ikkinchi o'rinda turuvchi payg'ambar obrazi sanaladi. Ushbu an'anani Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Hamidulla Hamdi va boshqa bir qator shoirlar asarlarida ham uchratish mumkin. Yusuf va Zulayho haqidagi afsona dastlab muqaddas diniy kitoblar tarkibidan o'rin olgan. Yusuf qissasi Qur'onning 12-surasida joylashgan. Yusuf o'zining donoligi va aql-u zakovati bilan Misr hokimi darajasiga ko'tariladi.⁵¹.

Yusuf alayhis-salom – Yoqub alayhis-salomning o'g'li. Alloh unga bemisl husn ato etgani uchun mumtoz adabiyotda go'zallik timsoliga aylangan. Miskin devonlarida ham Yusuf timsoliga alohida o'rin ajratilgan, uning husni va go'zalligi ta'riflangan. Miskinning «Zi ishqat shahi xo'bon zanam charx» [1277,43^b varaq], «Ey osiyon, ey osiyon, az lutf-u ehson sozamat» [1277,56^a varaq], «Ki Layli az g'ami Majnun hamisha zor megiryad» [1962,73^a], «Ayo ey oftobi «va-z-zuho» bar mo namo oraz» [1962, 73^a] singari g'azallarida aynan Yusuf va Zulayho obrazlariga talmih etilgan adabiy lavhalar uchraydi:

Yusuf sifat on ro'yi xud az parda kushoyi,
Monandayi Zulayho shuda man zor zanam raqs [1277, 42^b varaq]

Mazmuni: Yusufsifat yuzingni pardadan ko 'rsat. Zulayhoga o'xshab men zor raqsga tushsam.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotda Yusuf nihoyatda go'zal, oliyanob va dono shaxs sifatida tasvirlanadi. Shoira Miskin ijodida Yusufning go'zallikda tengi yo'q shaxs sifatidagi xususiyati juda ko'p o'rinlarda ulug'lanadi:

Ki ishqil Yusufi Misriy ba dili Zulayho shud,

⁵¹ Сафарова X. Ҳазрати Юсуф--гўзаллик тимсоли. –Тошкент. :Ислом университети,2003. –Б.15

Ki buvad vola-yu shaydoi o‘ mast-u hayronash [1277, 16^avaraq].

Mazmuni: Zulayho dilida Yusufi Misriy ishqil bo‘ldi, bundan u mast-u hayron bo‘lib, nola qilib yurdi.

Tasavvuf adabiyotida Odam (a.s.), Nuh (a.s.), Ibrohim (a.s.), Yusuf (a.s.), Muso (a.s.), Sulaymon (a.s.), Iso (a.s.) singari siymolar ruhoniy sayrga timsol bo‘lsa, Azozil, Nuh qavmi, Hud va Solih qavmi, Namrud, Fir’avn, Qorun, Jolut, Abu Jahl kabilar nafs darajalariga timsol bo‘lib keladi. Shu bilan birga, payg‘ambar siymolar holi tasavvuf adabiyotida rang-barang majoziy ifodalarni yuzaga keltiradi⁵². Shoira Miskin lirikasida ham bu jihatlar ko‘zga tashlanadi.

Dunyodagi barcha dirlarning muqaddas kitoblarida Odam Ato obrazi uchraydi. Odam Ato haqida bir qator rivoyatlar ham mavjud. Bu timsol islom, nasroniylik va judaizmda yerdagi insonning eng birinchi ajdodi sifatida e’tirof etiladi. Qur’onga ko‘ra, Alloh tomonidan yaratilgan inson zotining otasi⁵³. Miskin ijodida «Yaktaraf dunyoyi dun, jurm-u isyon yaktaraf» [1962, 3^bvaraq], «Ey zoti tu ma’in daftari payg‘ambari» [1962, 7^avaraq],» Osiy-u pur gunoham, yo iloho, moro madad» [1962, 73^avaraq] kabi g‘azallarida Odam Ato timsoliga murojaat etilgan:

Odam-u Havo kujo shud, Iso-yu Maryam kani?

Yaktaraf in Yusuf-u, Ya’qubi Kan’on yaktaraf.

Keltirilgan iqtibosda Odam Havo bilan birga, Iso, Maryam, Yusuf, Ya’qub nomlari keltirib, talmeh san’atining ajoyib namunasi yaratilgan.

Iso obrazi ham Sharq adabiyotida juda ko‘p tilga olinadi. Xususan, Sakkokiy g‘azallarida Iso alayhis-salom obraz sifatida talqin etiladi. Payg‘ambarlar obrazlari ichida Navoiy g‘azaliyoti uchun eng faol obraz Iso Masih obrazi sanaladi. «Xazoyin ul-maoniy» dagi 310 g‘azalda u bilan bog‘liq lavhalarga ishora qilinishi... ulug‘ shoir tomonidan bu obrazning muhim poetik funksiyalarni bajarishga yo‘naltirganligini anglatadi⁵⁴. Mazkur tarixiy obrazning namoyonlashuvi ayol ijodkorlardan shoira Nodiraning ham g‘azallarida ko‘zga tashlanadi⁵⁵. Muslihabegim Miskinning «Yaktaraf dunyoyi dun, jurm-u isyon yaktaraf» [1962, 3^bvaraq],» Musulmonon, jahon bevafo-oxir fano gardad» [1277, 73^avaraq] satrlari bilan boshlanuvchi g‘azallarda Iso Masih nomi tilga olinadi:

Qani on Iso-yu Maryam, qani Ibrohim Adham?

⁵² Кобилов У. Ўзбенк адабиётида нубувват мотиви ва образлари талқини. Филология фанлари доктори диссертацияси автореферати. – Самарқанд. 2019. –Б-22.

⁵³ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. – Тошкент. 2001. –879.

⁵⁴ Эшонқулов X. Алишер Навоий ғазалиётида ишқ поэтикасининг қиёсий-типологик таҳлили (“Хазойин ул-маоний” мисолида). Филология фанлари доктори дисс. – Самарқанд, 2020. . – Б. 185.

⁵⁵ Эшонқурова С. Нодира ижодида Исо Масих тимсоли. Архив научных публикаций.

Kujo shud jumlagi baham oxir fano gardad.

Maryam islam dinida Saida Mariyam nomi bilan mashhur bo‘lgan, asosan Islom va nasroniylik dinlarida yetakchi timsollardan biri sanaladi. Yozma adabiyotda Maryam asosan Iso Masihning onasi sifatida e’tirof etiladi va manbalarda ko‘pincha Iso payg‘ambar nomi bilan birga tilga olinadi⁵⁶. Muslihabegin Miskin ijodida aynan ushbu uzviylik ko‘zga tashlanadi.

Islomda e’tirof etilgan payg‘ambarlardan yana biri Ya’qub (Yoqub) alayhis-salom ham Muslihabegin Miskinning ijod namunalarida ko‘zga tashlanadi. Ushbu obraz Yusuf alayhis-salomning otasi ekanligi bilan ham mashhur bo‘lib, shoira g‘azalida uni «Ya’qubi Kan’on» ta’rifi bilan tilga oladi. Mazkur qahramon Sharq adabiyotida, islam va nasroniylik dinlarining muqaddas kitoblarida ham asosan Yusuf bilan bog‘liq holatlarda eslanadi. Ya’qub (a.s.)ning o‘g‘li Yusuf (a.s.)ni yo‘qotib qo‘yishidan iztirobga tushib yig‘laganidan xalq bezor bo‘lgani bois uning shahar tashqarisida bir koza qurdirib, shu «Kulbayi ahzan» – g‘am uyida faryod chekkani, ko‘zlarining ko‘r bo‘lib qolgani, Yusufning mujdasi bilan bu ko‘zlarning yana munavvarlashgani Navoiy va salafi g‘azaliyotida talmihga asos bo‘lgan⁵⁷. Shoira Miskinning «Ey osiyon, ey osiyon, az lutf-u ehson sozamat...» satrlari bilan boshlanuvchi g‘azalida Ya’qub payg‘ambar farzandi dog‘ida doimo ko‘zları yoshli ekanligi aytiladi:

On hazrati Ya’qubro bar dog‘i farzandash mudom,

Az hajri Yusuf doimo man diyda giryon sozamat[1277, 56^avaraq] .

Ayyub alayhis-salom – Sharq adabiyotida sabr va umid timsollaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Ayyub payg‘ambar timsoli Muslihabegin Miskin g‘azallarida «Hazrat Ayyub Sobir» sifatida tilga oladi. Manbalarda keltirilishicha, Ayyub alayhis-salom taqvodor, kambag‘al va yetimlarga g‘amxo‘r, bevalarga, miskinlarga saxovatli payg‘ambar ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Tabiatan aynan ushbu xususiyatlarni ulug‘lagan Muslihabegin Miskinning ushbu timsolga murojaat qilishi bejizga emasdir.

Muso – islam, nasroniylik va yahudiylilikning muqaddas kitoblarida nomi zikr etilgan payg‘ambarlardan biri bo‘lib, yer yuzidagi mavjudotlarni katta baxtsizlikdan omon saqlab qolganligi bilan mashhur.

⁵⁶ Ализаде А. Исламский энциклопедический словарь. . – Ансор.2007. 445-447-стр.

⁵⁷ Эшонқулов Ҳ. Алишер Навоий ғазалиётидаги ишқ поэтикасининг қиёсий-типологик таҳлили . Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси. –Б.193.

Shoira Miskin she’riyatida Muso timsoli «Yahyouullohi Muso» sifatida ta’riflanadi. Zakariyo (Zikriyo) payg‘ambar asosan xalqni ruhlantirib, insonlarga umid berib, ularni taqvo va sajdaga chorlagan. Zakariyo shoira Muslihabegin Miskin ijodida Zikriyo nomi bilan tilga olinadi. Zakariyo insonlarni ezgu ishlarni qilishga, qilgan gunohlari uchun afv so‘rashga chaqiradi. Miskinda ham istig‘for so‘rash, umidsizlanmaslik kabi fazilatlarni ulug‘lashga alohida e’tibor qaratiladi.

Dovud payg‘ambar Qur’onda nomi zikr etilgan payg‘ambarlardan biri sanaladi, shu bilan birga, Dovud haqida tafsilotlar yahudiylilik va nasroniylik diniy adabiyotlarida ham uchraydi, faqat ushbu obraz mazkur manbalarda «David» nomi bilan talqin etiladi.

Muslihabegin Miskining «Yaktaraf dunyoyi dun, jurm-u isyon yaktaraf» («Dunyo dun bir taraf-u, gunoh-u isyon bir taraf») satri bilan boshlanuvchi 26 baytdan iborat g‘azalining dastlabki olti baytida 8 nafar payg‘ambarlar, 1 nafar ular bilan bog‘liq qur’oniy qissa qahramonlari hamda Layli-yu Majnun singari adabiy qahramonlarga talmih qilishi Allohga sidqiy muhabbat bilan ibodat talqin etilgan shoira she’riyati uchun bu obrazlar muhim badiiy funksiya bajarishidan dalolat beradi:

Yaktaraf dunyoyi dun, jurm-u isyon yaktaraf,
Yaktaraf in umri ko‘toh, dog‘i hijron yaktaraf.
Odam-u Havo kujo shud, Iso-yu Maryam qani,
Yaktaraf in Yusuf-u Ya’qubi Kan’on yaktaraf.
Hazrati Ayyubi Sobir sabr karda dar balo,
Yaktaraf Yahyouullohu Musoyi Imron yaktaraf.
Zikriyo-yu hazrati Dovud payg‘ambar qani?
Yaktaraf payg‘ambaron-u Sohibi Furqon yaktaraf.
Vola-yu shaydo dar ishq tu gashta mubtalo,
Yaktaraf Layli-yu on Majnuni nolon yaktaraf [1962,3^b varaq].

Ta’kidlash lozimki, ushbu g‘azalning maqta’si va boshqa baytlaridagi ayrim so‘zlarnigina tarjima va izohini keltirish o‘zbek she’rxoni uchun ham tushunilishini ta’minlaydi. Zero, shoira yashagan davrida Buxorodagi o‘zbek-tojik ko‘p tilliligi aksariyat kishilar uchun tushunarli sanalgan. G‘azal matla’sida «Dunyoi dun bir taraf-u, gunoh-u isyon bir taraf, Bu qisqa umr bir taraf, hijron dog‘i bir taraf» mazmuni o‘z ifodasini topgan. Bunda shoir bu dunyoning inson uchun sinov maydoni sifatida berilganiga e’tiborni qaratadi. Ayniqsa, unda qisqa umrning bir tarafligi bilan hijron dog‘ining bir taraf holida qiyoslanishi aynan dunyoning sinov maydoni ekanligini eslatib qo‘yadi. Inson umri qisqa bo‘lsa-da, bu g‘ariblikda qolgan diydortalab inson uchun diydordan

ayriliq azobi bir taraf bo‘lib ko‘ngilni ezadi. Shundan keyingi baytlarda qur’oniy qissa qahramonlarining hayotiga talmeh qilish bilan shoira umrning o‘tkinchiligiga urg‘u beradi. Ularda Odam (a.s.) bilan Momo Havoning qayerda qolganligiyu Iso (a.s.) va Maryamning qayerdaligi tasviridayoq shu qahramonlar hayoti she’rxon ko‘z o‘ngida gavdalana boshlaydi. Ya’qub (a.s.)ning o‘g‘li Yusuf (a.s.)dan ayrılganligi keyingi misralarda eslanadi. Shu tariqa Yahyo (a.s.), Muso (a.s.), Zikriyo (a.s.), Dovud (a.s.) qayerdaligi xususida tajohuli orif badiiy san’ati vositasida ritorik so‘roq hosil qilinib, ularning barchasi o‘tib ketganligi yashirin tasdiqlanadi. Navbat «Sohibi Furqon», ya’ni Qur’on sohibi Muhammad (s.a.v.)ga keganida, barcha payg‘ambarlar bir taraf ekanligi-yu «Sohibi Furqon»ning bir tarafligini ta’kidlash bilan Muhammad (a.s.)ga Qur’on nozil qilinishi bilan islom dinining mukammallashuviga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, qur’oniy qahramonlar obrazlariga murojaat etishdan ko‘zlangan adabiy niyati Muhammad (a.s.) obrazini to‘laqonli yaratish ekanligini sezdirib qo‘yadi. Keyingi misralarda oshiq-u ummatiga g‘amxo‘r «Sohibi Furqon»ning ishqida Layli bir taraf-u, nolon Majnunning bir tarafligi tasvirida o‘zining ham shunday ishq bilan yashayotganini ma’lum qilib o‘tadi. Shoira dunyoning o‘tkinchiligi badiiy talqinida farishtalar obrazidan ham unumli foydalanadi. Ayniqsa, inson vafotidan so‘ng uni qabrda so‘roq qiladigan Munkar Nakir farishta obrazini badiiy ifodalash bilan adabiy niyatini ta’kidlashga muvaffaq bo‘ladi:

Meravad dar zeri xoki tiyra oxir odami,

Yaktaraf Munkar Nakir-u qabri larzon yaktaraf [1962, 3^b varaq]

Mazmuni: *Oxir-oqibatda odam tuproq ostiga ketadi, Munkar Nakir bir tarafu, titrayotgan qabr bir taraf.*

Taxminan VII asrda yashagan Ali ibn Abu Tolib ham Muslihabegim devonida alohida urg‘u berilgan timsollardan biri hisoblanadi. Abu Tolib o‘ziga xos yetakchilik xususiyatiga ega bo‘lgan, jang hamda yurishlarda yuksak mahorat va jasorat namoyon etib, notiqlik qobiliyati bilan ham ajralib turgan. Islom taqvodorlari uni to‘rt xalifadan biri sifatida e’tirof etib, ba’zilar hatto ilohiyashtirish darajasigacha boradilar. Miskin g‘azallarida tasvirlangan Ali timsoli «Ali Murtazo» tarzida tilga olinadi hamda uning muloqotlari tasviri badiiyashtiriladi. Xususan, shoiraning «Yak hikoyat yod doram az rasuli insu jon...» misralari bilan boshlanuvchi she’riy hikoyatida Ali va Muhammad payg‘ambar o‘rtasida muloqot aks ettiriladi:

Guft hazrat: « Yo Ali, chun kori toat digar ast,

Kardani ummat dar in soat shafoat digar ast [1962,5^b varaq].

Mazkur hikoyatning o‘zida Miskin yana bir necha qahramonlarning nomlarini ham keltiradi. Masalan, Ali Murtazoning turmush o‘rtog‘i, Muhammad payg‘ambarning qizlari Fotima, farishtalardan Jabroil. Bu qahramonlar shoira hikoyatining asosiy ishtirokchilariga aylanadi. E’tiborli jihat shundaki, Hazrati Abu Bakr Siddiq va Hazrati Usmon singari xalifalar shoira tomonidan «Hazrat» tarzida e’zozlanadi.

Muslihabegin Miskinning Muhammad payg‘ambarga bag‘ishlangan qator g‘azal va hikoyatlarida uning zavjasি Oysha roziyallohu anhu timsoliga murojaat qilinadi. Xususan, Muhammad alayhis-salomning vafotiga bag‘ishlab bitilgan «Dar bayoni vafoti Rasul sallallohu alayhi va sallam...» sarlavhali hikoyati buning yorqin namunasidir:

Oysha gufto ki: «Hazrat notavon,

To ki natavonand dar masjid ravon [1962,7^b varaq].

Muslihabegin Miskinning mazkur she’riy hikoyatida payg‘ambar alayhis-salomning nabiralari, Hazrati Ali va Fotimaning o‘g‘illari Hasan va Husan timsollari ham shoira nazaridan chetga qolmagan.

Ba’d az on omad Hasan ham bo Husayni Karbalo,

To nishastand nazdi hazrat on du bog‘i Murtazo,

Guftand: «Ey bobo, ki taxte shud paydo az havo,

Xufta budi tu ba boloyash, ayo sadri safo [1962,11^a varaq] .

Shoira devonlarida o‘ziga xos mavzulardan biri sifatida e’tirof etiladigan yana muhim bir jihat – Muhammad payg‘ambar obrazining ifodalanishi va tasvirlanishi bilan bog‘liqdir. Xususan, «Ki on payg‘ambari olam kujo raft..», « Darig‘o, sarvari olam az in dunyo guzashti», «On guli nav rastai mo oxir az jahon raft», «Har chun nozanini sar to qadam latofat», «Zi hijroni Muhammad sad hazoron diyda giryonast», «Rahm kun bar osiyonat, yo Muhammad» kabi misralar bilan boshlanuvchi g‘azallar Muhammad payg‘ambarga bag‘ishlangan. Ularda Muhammad (a.s.)ning diydorlarini jannatda ko‘rish istagi bilan bitilgan oshiqonalik, u zotning fazilatlarini vasf etish, shafoatlariga noil bo‘lish istagi hamda Alloh va mo‘minlar orasidagi elchi ekanliklari badiiy talqini ustuvorlik qiladi. Shoira g‘azallarida «Muhammad», «Muhammad Mustafo», «Rasul» singari so‘zlar bilan bir qatorda Muhammad (a.s.) «shohi ummat» («ummattning shohi»), «shohi payg‘ambaron» («payg‘ambarlar shohi»), «shahanshohi du olam» («ikki dunyo shahanshohi»), «afzali payg‘ambaron» (payg‘ambarlarning afzali»), «pushti panohi ummaton» («ummatlarning pushti panohi») tarzida ulug‘lanadi:

Ey shahanshohi du olam, afzali payg‘ambaron,

Dar du olam hasti tu pushti panohi ummaton [1962, 80^a varaq].

Mazmuni: Ey ikki olam shahanshohi, payg‘ambarlarning afzali, ikki olamda ham sen ummatlaring pushti panohisan.

Shoiraning aksariyat ruboiylarida Payg‘ambar (a.s.)ning shafoati bois gunohlarda forig‘ bo‘lishga urinish, buning voqeylanishi uchun Allohga tazarru’ qilishda ham Muhammad (a.s.) obrazidan unumli foydalanilganligi kuzatiladi:

Yo rab, shafe’i mo kun ro ‘zi jazo Muhammad,

Az lutf osiyonro sozi g‘ariqi rahmat,

Baxshoy jurmi moro az lutfi xesh, yo rab,

Joyi hama osiy, yo rab, bekun ba jannat [1962, 80^a varaq 3;80].

Mazmuni: Yo rab, jazo kuni Muhammad shafoatiga bizni noil qil. Lutfdan gunohkorlarni rahmatga g‘arq qil. Yo rab, xesh, Muhammad (a.s.) lutfidan gunohlarimizdan o‘t, Yo rab, barcha osiylarning joyini jannat qil.

Oldingi faslda e’tirof etilganidek, ushbu ruboiyda Payg‘ambar (a.s.)ni «xesh» deb atalgani kuzatiladi. Shoira g‘azallarida xalifayi roshidon obrazlari ham Muhammad (a.s.) vasf etilishi jarayonida uchrashi tez-tez kuzatiladi. Shoiraning «*Ey shoh, tuyi az hama kas sarvari a’lo...*» deb boshlanuvchi muxammasida to‘rtta xalifa ham e’tirof etiladi:

Ey podshohi, har du jahon, shoh Bu Bakr,

Yori tu buvad hazrat Bu Bakr ham Umar.

A seyom buvad Usmon, chahorum- shahi Haydar,

On shohi Husayn-u Hasan- soqiyi Kavsar.

Dorand zi tu umid shafoat hama fardo [2;162].

Mazkur muxammasda Muslihabegin payg‘ambar Muhammad Mustafoning izdoshlari Bu Bakr (Abu Bakr)ni xalifalarning kattasi, Umarni uning davomchisi, uchinchisi Usmon, to‘rtinchisi esa Husayn va Hasanning otasi Haydar (Ali)ni sanab o‘tadi.

Muslihabegin Miskinning «Ilymon ovardani Qusayr ibn Omir...» sarlavhasi bilan keltirilgan fors-tojik tilidagi nazmiy hikoyatida Islom dunyosining qator namoyandalari, qolaversa, payg‘ambarning oila a’zolari ham tilga olinadi. Muhammad payg‘ambar va uning xotini Oisha o‘rtasida savol-javob dialog shaklida keltiriladi:

O’shal kun Oisha dediki: « Yo shoh,

Ki sizni qildi Haq olamg‘a bir Moh [1962, 140^b].

Hikoyatda Oishaning ta’rificha, Parvardigor bu olamga Muhammadni Moh («Oy» , «Nur») qilib yuborgan. Ushbu hikoyatning o‘zida payg‘ambarning kuyovi Ali – Ali Murtazo, qizi Fotima – Fotimayi

Zahro, Ali va Fotimaning o‘g‘illari Hasan va Husaynlar to‘g‘risida ham so‘z boradi.

Shoiraning «*Oh az in dunyoyi fony barno raft, raft...*» misralari bilan boshlanuvchi g‘azalida boshqa payg‘ambarlarning nomlari zikr qilinib, bu dunyoda hech kim abadiy emasligini, hattoki, payg‘ambarlar ham Allohning ixtiyori bilan bu fony dunyoni tark etganliklari e’irof etiladi:

*Oh az in dunyoyi fony barno raft, raft,
Odam-u Havo chunon az dori dunyo raft, raft.
Jumla payg ‘ambaron Iso-yu Maryam kani?
Oqibat onjjumlagi az dori dunyo raft, raft.
Hazrat Ya ’qub ham bar dog ‘i farzandash mudom,
So ‘xt az dardi g ‘amash oxir zi dunyo raft, raft [972/1,49^b].*

Shoira g‘azallarida qur’oniy qahramonlar tilga olinganida, tabiiyki, Muhammad (a.s.) ularning sardori, barcha mo‘minlarning shafoatchisi sifatida talqin etilib, u zot bilan lirik qahramonning ko‘rishish istagi borligi ma’naviy muhabbatning bir ko‘rinishi sifatida talqin etiladi. Ushbu g‘azal matla’sida vasf etilgan barnoning ayni fony dunyodan ketishiga oh chekilishi zamirida ham ana shunday oshiqlik o‘z ifodasini topgan. G‘azalda radifning «raft, raft» tarzida ma’noni kuchaytirilgan holda takrorlanishi achinish hissini yanada oshirishga imkon hosil qilgan. Odam-u Havoning bu dori dunyodan ketgani, bunda jumla payg‘ambarlaru, Iso-yu Maryamning ko‘rinmaganligi, oqibatda bu dori dunyodan barchanining ketib-ketib qolgani tasvirlari she’rxonni mushohadaga chorlaydi. Shoiraning farzandlaridan birin-ketin ajralishi Yusuf (a.s.)dan ayrilib, g‘am uyiga qolgan Ya’qub (a.s.) qismatini ko‘ngliga keltirishiga omil bo‘ladi. Shu bois u bu qur’oniy qahramonlarga tez-tez murojaat qiladi. Hazrati Ya’qubning farzand dog‘ida mudom g‘am dardida yonib, bu dunyoni oxir tark etgani shoira qismatini xotirga keltiraveradi. Miskin ushbu g‘azalda Zikriyo (Zakariyo), Ayub (a.s.) kabi payg‘ambarlarni ham eslab o‘tib, dunyoning o‘tkinchiligidan ogohlilikka chaqiradi.

Muslihabegim Miskin nazmiyatida islom olami, payg‘ambarimiz Muhammad alayhis-salom va uning sahobalari, ahli bayti madhi bilan bog‘liq diniy-falsafiy mavzular salmoqli o‘rin tutadi. Albatta, shoira nafaqat ijodkor, balki o‘z nazmiy asarlarida ba’zida asosiy qahramondir, biroq misralardagi «man» va «men» timsollari doimo individual xarakterga ega bo‘lib qolmay, shu holatdagi barcha insonlarni mujassamlashtiradi. Islomdagi itoatkorlik, istig‘for so‘rash, sabr va ezgu amal ijodkorning ijodida butun bo‘y-basti bilan gavdalananadi.

Hazrat Boboyi Samosiy, Xo‘jayi O’bon, Hazrati Og‘oyi Buzurg, G’avsul A’zam kabi obrazlar Miskin devonlarida salmoqli o‘rinni egallagan tarixiy shaxslardir.

Muslihabegin Miskin Naqshbandiya tariqatiga e’tiqod qo‘ygan, hayoti davomida sabr-u toqat yuksak insoniy fazilat ekanini amalda isbotlagan. Shu bois ham u pirlardan sanalgan Boboyi Samosiy nomini ham eksak ehtirom bilan tilga oladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, shoira naqshbandiya tariqatining vakili Boboyi Samosiy qadamjosiga juda ko‘p tashrif buyurgan. Bu ziyoratgoh Buxoro viloyati Romitan tumanida joylashgan.

Samosiy, Xoja Muhammad Boboyi Samosiy – xojagon-naqshbandiya tariqatining yirik namoyandası, buxorolik yetti pirning beshinchisi. «In g‘azal az baroyi Boboyi Samosiy...» («Bu g‘azal Boboyi Samosiy haqida») sarlavhali quyidagi g‘azal fikrimizning dalilidir:

*Omadam bahri ziyorat in zamon dar oston,
To shavad oson maro in mushkili bor garon.
Dardmandam, mustamandam bahri darmon omadam,
Yak nazar sozed maro, ey oftobi du jahon.
Osiyam, bechoraam doram ba dil sharmandagi,
Zi on ki on holi taboham bar shumo boshad ayon.
Omadam, ey hazrati Bobo, man az bahri davo,
Zi rahi ixlos benihodam sari xud oston.
Bekas-u sargashta-yu hayron-u muztar mondaam,
Mekunam har ro ‘z-u shab man nola-yu oh-u fig ‘on.
Miskini bechoraam – aftoda dar girdobi g‘am,
Rahm kun bar holiman, yo rab ba haqqi nazdigon. [1962, 12^b varaq].*

Mazmuni: Bu zamon ko‘p miqdorda yog‘iladigan mushkulim oson bo‘lsin deb, ziyorat uchun ostonasiga keldim. Dardliman, qayg‘uliman, darmon istab keldim. Ikki jahon oftobi menga nazar soling. Osiyman, bechoraman, ko‘nglimda sharmandalik bor, toki xarob bo‘lgan ahvolim sizga ayon bo‘lsin. Ey Hazrati Bobo, davo istab, ixlos qilib ostonaga keldim. Kimsasiz, sargardonu, hayronu, nochor qoldim. Kunu tun men nola va ohu fig‘on qilaman.

G‘am girdobida qolgan darmonsiz, bechora, faqirman. Yo Rab, suyuklilaring haqqi menga ham rahm qil.

Mo‘min har qanday istagini Allohdan so‘rashi kerak. Ushbu g‘azalni o‘qish jarayonida, shoiraning bu boradagi qarashlarida noqislik bor, degan fikr ko‘ngildan o‘tadi. Biroq g‘azal maqta’sida najotni Allohdan so‘rab,

suyuklilarni robita sifatida keltirgani u haqidagi fikrning tamomila ijobiy tomonga o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Muslihabegin Miskin Islom olamida taniqli bo‘lgan arboblar qatorida o‘zi pir sifatida etirof etgan, xalq orasida G’avsul A’zam yoki Muhyiddin Piridastgir nomlari bilan mashhur bo‘lgan Abdulqodir Jiloniy haqida ham yozadi, barcha nazmiy asarlarida bo‘lgani kabi unga ham yuksak ehtiromni namoyish etgan holda murojaat qiladi. Shu o‘rinda ushbu shaxs haqidagi ma’lumotlarni umumlashtirgan holda quyidagilarni ma’lum qilish o‘rinlidir.

To‘liq ismi Abu Muhammad Muhyiddin Abdulqodir ibn Abu Solih Abdulloh bo‘lib, otalari Abu Solih binni Muso Jangido‘st sharif Hazrati Hasan (r.a) avlodlaridan, onalari Ummixayr Fotima sayyida binni Abu Abulloh Hazrati Husayn (r.a.) avlodlaridandir.

Islom dunyosining aqtobi arbaa (to‘rt qutbi)ga mansub bu zot qodiriylik tariqatining muassisi bo‘lgan. Bu tariqatning bosh dasturi "mashg‘ullik ila forig‘lik» (o‘zing dunyo bilan mashg‘ul bo‘lgan paytda diling undan forig‘ bo‘lsin)dir. «Ahd» bilan kirlmog‘i lozim bo‘lgan bu tariqat Misr, Andalus, Shom, Bag‘dod, Onado‘li, Markaziy Osiyo va Hindiston hududlarida tarqalgan. Hazrati Navoiyning yozishicha, «Shayx Muhyiddin Abdulqodir Jiliy karomatlari tavotur (uzluksiz)... jahon shayxlarining birortasiga bunday karomatlar zohir bo‘lmagan» .

«G’avsul-A’zam» ismila mashhur bo‘lgan Shayx hazratlari Muso binni Yununiy, Nuriddin Ali Shattanafiy, Muhammad Todafiy, Muhammad Diloiy, Ibn Hojar, Mulukshoh Siddiqiy, Muhammad Mir Olim, Sharoniy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Xojazoda Ahmad Hilmiy kabi ulamolarning tazkira va maqomotlarida ulug‘langan.

Hazratning «Al-G’unyu li-tolibi tariqul-Haq», «al-Fathu-r-Rabboniy val-Fayzu-r-Rahmoniy» («Sittin majolis»), «Futuhu-l-G’ayb», «Hizbi basharu-l-hayrot», «al-Mavohibu-r-rahmoniyya val-Futuhu-r-rabboniya...», «Jalou-l-Xotu», «Yavoqutu-l-hikam», «Devoni Hazrati G’avsu-l-A’zam» («G’azaliyoti Muhyi») kabi asarlari ma’lum⁵⁸.

«Nigar ki zori mustaram, yo shoh Muhyiddin vali ...» misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalida shoira G’avsul A’zamga murojaat qilarkan, uning diydoriga mushtoq ekanligini, firoqida ko‘zlari yosh ekanligini oshkor etadi:

*Nigar ki zori mustaram, yo shoh Muhyiddin vali,
Az furqatat chashm taram, yo shoh Muhyiddin vali.*

⁵⁸ Ислом тасаввуфи манбалари. Тасаввүф назарияси ва тарихи, . – Тошкент, -2005.- . –Б.13.

*Ham dardmandam ham g‘arib shoho tuyi bar man tabib,
Diydori xudro kun nasib, yo shoh Muhyiddin vali [1962,79^b varaq].*

Shoira o‘zini dardmand va g‘arib sifatida tavsiflarkan, pirini shoh va tabib sanab, undan davo istaydi. Tabiiyki, bu davo ko‘ngil iztiroblariga malham bo‘lgulik ruhiy yaqinlikdir. Keyingi misralarda ham aynan ushbu mohiyatni saqlab qolgan holda, shoira Abdulqodir Jiloniyini Muhammad payg‘ambarning ko‘zlaridagi nur deb e’tirof qilarkan, uni avliyolarning a’losi nisbati bilan ham maqtaydi:

*Ey nuri chashmi Mustafo, ey dardmandonro davo,
Eū afzali kull avliyo, yo shoh Muhyiddin vali [1277,79^b varaq].*

Miskinning «*Maro xon az sakon, ey shoh, jamolatro namo, ey moh ...*» misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalida Abdulqodir Jiloniyning eng asosiy xislatiga urg‘u beriladi, shoira uning dardlarni bartaraf etuvchi, kishilarning mushkulini oson qiluvchi hojatbaror sifatida tasvirlaydi:

*Misoli murg‘i nim bismil zi ishqat mutbalo in dil,
Ki doram qissai mushkil, ayo ma’shuqi rabboniy [1277,76^b varaq].*

Mazkur misralarda shoiraning o‘zi muammolar girdobida ekanligini, mushkul qissasi borligini bildirib, o‘z piriga yuzlanadi. Keyingi misralarda esa undan ko‘mak so‘raydi, mushkulini oson qilishini so‘raydi.

*Bekun hal mushkili moro ravo kun hojati moro,
Nazar kun so‘yi man, shoho, ayo ma’shuqi rabboniy [1277,76^b varaq].*

Bunday iltijolar zamirida vasf etilayotgan manzurning «ma’shuqi rabboniy» ekanligi nazarda tutiladi.

Mumtoz shoirlar ijodida kuzatilgani singari Muslihabegim Miskin she’riyatining ham asosiy obrazi lirik qahramon shoiraning o‘zidir. Uning hasbi hol mavzusida bitilgan asarlari tahlilida ko‘rib o‘tilganidek, shoira o‘z she’rlarida asosan mushtipar ona qiyofasida namoyon bo‘ladi. U taqdirdoshi shayx Abdulvohid obrazini, garchi hayotligi davridayoq undan ayro yashashga majbur bo‘lgan esa-da, dono, donishmand, oqil, toat-u ibodatda sobit shaxs sifatida tasvirlaydi. «Yusufi soniy» deya ta’riflangan o‘g‘li Husayn, «*xush xulq-u, shirin suxan-u, zebo-yu porso*» tarzida vasf etilgan qizi va 2-3 yasharligida vafot etgan o‘g‘lini bot-bot eslab she’rlar yozadiki, shoira she’riyatida bu obrazlar uning hasbi holining badiiy ifodasida muhim o‘rin egallaydi. Bu ayrılıq azoblari lirik qahramonning nolon bulbulu jununkor Majnun obrazlariga qiyoslashga omil bo‘ladi.

Muslihabegin Miskin she’riyatining asosini sidqan toat-ibodat talqini, Alloh va uning rasuliga nisbatan diydortalablik motivlari tashkil etadi. Shu bois u Muhammad (a.s.) obrazini she’riyatining lirik qahramonidan keyingi asosiy obraziga aylantiradi. Odam (a.s) va Havo, Ya’qub (a.s.), Yusuf (a.s.) va Zulayho, Ayub (a.s.), Muso (a.s), Dovud (a.s.), Iso (a.s.) va Maryam, Zikriyo(a.s), Ibrohim (a.s.) sinagri payg‘ambarlar va ular bilan eslanadigan qur’oniq qissa qahramonlari, Abu Bakr, Umar, Usmon, Aliyi Murtazo, Payg‘ambar (a.s.) ahli baytlaridan Oysha, Fotima, Hasan, Husan, sahobalardan Ukosha singari qahramonlar obrazlari Muhammad (s.a.v.) vasf etish va dunyoning o’tkinchiligini badiiy ifodalashda shoira uchun muhim poetik vazifani bajaradi. Ba’zan qo‘llanuvchi Munkar Nakir, Jabroil, Azroil singari obrazlar ham ushbu g‘oyalar talqiniga xizmat qildiriladi.

Shoira she’riyatida Yusuf (a.s.) obrazidan keyin eng ko‘p murojaat etilgan payg‘ambar obrazi sanaladi. Ya’qub (a.s.)ning o‘g‘lidan ayrilib, g‘am uyida iztirob chekishi bilan shoira Yusufsifat farzandlaridan ayrilganligi orasida uyg‘unlik ko‘radi. Ana shunday badiiy lavhalar tasvirida shoira bu ikki payg‘ambar obrazidan ijodiy foydalanadi. U o‘rni bilan Vomiq, Uzro, Farhod, Shirin, Layli, Majnun singari an’anaviy adabiy qahramonlarga murojaat etib, Muhammad (s.a.v) va G’avsul A’zam – Abduqodir Jeloni, Og‘oyi Buzurg – Qizbibi, Boboyi Samosiy singari pirlarga bo‘lgan ma’naviy muhabbatini badiiylashtiradi. Nomlari keltirilgan pirlar obrazi ham shoira she’riyatining muhim qahramonlaridir. Ular vositasida Muslihabegin Miskinning achchiq qismati o‘quvchiga badiiy talqin etilishi bilan ular robitasida Allohning lutfiga sazovor bo‘lish istagi badiiy talqin etiladi.

2.3. Muslihabegin Miskin she’riy hikoyatlarining muhim poetik xususiyatlari

Muslihabegin Miskin devonlarida o‘zbek va tojik tillarida masnaviyda bitilgan she’riy hikoyatlar ham salmoqli o‘rin tutadi. «Yak hikoyat yod doram az rasuli ins-u jon», «Darin daftar kunam man yak hikoyat» [1962,4^a varaq], satrlari bilan boshlanuvchi, «Dar bayoni vafoti rasul sallallohu alayhi vas-sallam» [1962,7^a varaq], «Darin olam se bibi pok budand [1962,12^b varaq], «Bayon sozam zi ba’d az xatmi eshon» [1962,15^b varaq], «Nabiyi Hay tilab mardi maoni» [1962,138^a varaq], «Dar bayoni hikoyati Qaysar ibn Omir» [1962,140^b varaq], «In hikoyat savdogar ki dastgiri kardani saxovatash» [1962,144^a varaq], «G’ornomayi rasul» [1962,147^a varaq] sarlavhali, shoiraning hasbi holi badiiy ifodasi

deya talqin etilgan shayx Abdulvohidga bag‘ishlangan «Ki dar shahri Buxoro buvad yak darvishi donoye» [1962,2^a varaq] hikoyatlari shular jumlasidandir. Ijodkor o‘zining aksariyat hikoyatlarida payg‘ambarimizga bag‘ishlangan ibratli rivoyatlarni asos qilib oladi. Jumladan, uning «Dar bayoni vafoti rasul sallallohu alayhi vas-sallam» nomli tojik tilida yozilgan hikoyatidagi voqealar tizimi bilan Nosiruddin Rabg‘uziyning «Qisasi Rabg‘uziy» asarida keltirilgan «Rasul alayhis-salom vafoti so‘zlari»⁵⁹ nomli nasriy hikoyatidagi adabiy lavhalar o‘rtasida o‘zaro mushtarakliklarning mavjudligi mushohadalarimizga asos bo‘ladi. Ayonlashadiki, Muslihabegin Miskin payg‘ambarimizning go‘zal xulqlar bilan ziynatlangan ulug‘ zot sifatida musulmonlarni doimo ezgu amallar sari undaganliklari, dunyo hoyu havaslariga zarracha parvo qilmay faqirlikni faxr bilib yashaganliklari va sahobayı kiromlar ham har jihatdan u kishidan o‘rnak olishga intilganliklarining maftuni bo‘lgan. Shu bois shoira ana shunday mazmundagi rivoyatlarga nazmiy jilo berib, ularni keng targ‘ib qilishga intilgan.

Muslihabegin Miskinning hikoyatlarida nomi zikr etilgan sahobalardan biri Ukkosha ibn Mihsan bo‘lib, ushbu qahramon Nosiriddin Burhoniddin Rabg‘uziyning «Qisasi Rabg‘uziy»sida ham eslab o‘tiladi. Manbalarda mazkur sahobaning to‘liq ismi Ukkosha ibn Mihsan ibn Xurson ibn Qays Murra Asadiy bo‘lib, uni Abu Mihsan ham deb ataganlar. Rasululloh zamonlarida Banu Umayya qabilasining yetakchisi bo‘lgan, o‘zining oqilligi, serg‘ayratliligi hamda tadbirkorligi bilan ajralib turgan. Bu sahoba Uhud, Handaq kabi barcha safarlarda ishtirot etgan, hatto Badr kunida qilichi sinib qolganida, Muhammad payg‘ambar unga bitta tayoq bergenliklari, ushbu tayoq qilichga aylanib qolganligi haqida ham ma’lumotlar uchraydi. Hatto Rasululloh Ukkosha ibn Mihsanning barcha ezgu amallariga guvoh bo‘lib, uni jannatga kirishini bashorat qiladilar⁶⁰.

Kasir ibn Solt (roziyallohu anhu) rivoyat qiladi: «Ukkosha ibn Mihsan (r.a.) Rasululloh (s.a.v.) vafotlariga qadar Madinani tark etmadi. Payg‘ambarimiz (a.s.) olamdan o‘tganlarida, Ukkosha (r.a.) qirq to‘rt yoshda bo‘lgan. So‘ng Abu Bakr Siddiq (r.a.) uni Yamanga yubordi». Ukkosha ibn Mihsan (r.a.) dan sahobalar Abu Hurayra hamda Ibn Abbos (r.a.) hadis rivoyat qilishgan.

⁵⁹ Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 2-жилд. – Тошкент: Ёзувчи, 1991. –Б 192-197.

⁶⁰ <https://www.qadriyat.uz/tarix/sahobalar/1448-ukkosha-ibn-mihsan>

Miskinning «Dar bayoni vafoti rasul sallallohu alayhi va sallam...» hikoyatida Ukkosha ibn Mihson bilan bog‘liq quyidagi holat qalamga olinadi. Dastavval ijodkor payg‘ambarning o‘lim to‘shagida yotganligi bayonini keltirarkan, atrofida oila a’zolari-yu, sahobalarining aziyatga tushib qolganlarini yaqqol tasvirlaydi:

Vaqti on omad ki on shohi jahon,

To ki shamshiri ajal sozad nishon [1962,7^b varaq].

Shu bilan birga, payg‘ambarning ahli ayoli Oysha(r.a.) u zotning hatto masjidgacha borishgacha majoli yo‘q ekanligini ma’lum qiladi.

Oysha gusto ki: «Hazrat notavon,

To ki natavonand dar masjid ravon [1962,7^b varaq].

Voqealar silsilasida aynan Ukkosha ibn Mihson ham ishtirok etgan suhbat nazmiy dialogda aks ettirilgan. Payg‘ambar bomdod namozidan so‘ng minbarda o‘zining boqiy dunyoga rixlat qilishi tobora yaqin qolayotganligini his qilgan holda izdoshlariga yuzlanib, namoz va ro‘zani kanda qilmaslikni, yetim-esirlar hamda beva-bechoralarga bosh bo‘lishni uqtiradi. Mazkur holat Miskin tomonidan badiiy jihatdan ta’sirli tarzda yuksak iqtidor bilan tasvirlanadi.

... Ham namoz-u ro‘zaro barpo kuned,

Har chi farmud xudo barjo kuned [1962,8^b varaq].

Mazmuni: Ham ro‘za, ham namozni barpo qilib, Xudo nimani buyurgan bo‘lsa shuni bajaring.

Aynan mazkur jarayon Nosiriddin Rabg‘uziyning hikoyatida ham uchraydi, ammo unda muallif Muslihabegimdan farqli tarzda Rasululloh oldiga arab qiyofasida Azroil kelganligini hamda quyidagilarni o‘z sahobalariga yetkazishi joizligini ta‘kidlaydi: «Azroil bir badaviy arabtek bo‘lub kirib keldi. Tizin cho‘kub o‘lturdi. Ozin-ozin Rasulqa yaqinroq keldi, qulqinga so‘zladi. Yana ena chiqti. Rasul alayhis-salom holi aynadi Telim oh qildi, yig‘ladi. Sahobalar qamug‘ yig‘lashtilar. Aydilar: «Yo Rasululloh, bu arab kim erdi, sizga ne tedi? Holingiz aznadi». Aydi:«Ey yoronlarim, aziz do‘sstarim, ul kelgan Malak ul-mavt qarindoshim Azroil erdi. O’sh qarindoshim Jabroilma hozir turur, manga so‘zlayur: Ummatingga salom tegurgil, bo‘g‘uz uchun imonni ilikdin chiqarmasunlar teb. Shaytonni, nafsu havoni iearmasunlar, shak va sharikka insunlar. Ko‘ni imong‘a berk yapushsunlar, o‘lumni unutmasunlar. Hiqd va hasaddin iroq tursunlar, shari‘at ahkomini berk tutsunlar. Dunyoga ko‘ngul bog‘lamasunlar, Tengri azza va jalla yorliqin og‘irlasunlar. O‘g‘il-qizqa osh, etmak otasi bo‘lmasunlar— dini islom otasi bo‘lsunlar. Yovuz esh, qo‘ldoshdin yig‘ilsunlar. Besh namozni azoqin tutsunlar. Qul kungni ezgu

tutsunlar, darvishlarga rahm qilsunlar. O'gsuzlarga shafqat qilsunlar, qazg‘ulug‘ munglug‘ larqa bo‘lushsunlar. O'lumga anuq tursunlar, qiyomat ishin bitursunlar teyu turur»⁶¹.

Badiiylik nuqtayi nazaridan Miskinning hikoyati mukammal ko‘rinsa-da, ma’lumotlar silsilasi hamda tafsiloti nuqtayi nazaridan Rabg‘uziyda har bir jihat bayon tarzida bo‘lsa-da, imkon qadar kengroq aks ettiriladi.

Rasululloh o‘limi oldidan barchadan rozi-rizolik so‘rarkan, birovning ko‘ngliga ozor bergen bo‘lsa, albatta, uzr so‘rashini ma’lum qiladi va shu bilan birga, atrofdagilariga uch marta shu mazmunda so‘roq beradi.

*Har kasero qarz boshad yo qasos,
To kunand moro dar in olam xalos
To ki se navbat bego ‘sh in nido,
Andar on soat ki mekard iltiço [1962,8^b varaq].*

Ushbu misralar mazmunidan shuni anglash mumkinki, payg‘ambar kimdan qarzi bo‘lsa yoki kim undan qasos istasa, u tayyor ekanligini e’tirof etib, uch marotaba ahli jamoaga xitob qiladi. Nosiriddin Rabg‘uziyda esa mazkur holat quyidagicha ifoda topgan: «Ey mo‘minlar, kim ersaning manim uza hech da’vosi va husumati bormu?» Kim ersa javob aymadi. Ikinch so‘rdi, kim ersa javob aymadi». Uchunchida Ukkosha otlig‘ sahoba qo‘pti, aydi: «Yo Rasululloh, manim bir da’vom bor». «Aytg‘il», tedi.

Aynan ushbu nuqtada navbatdagi farqni kuzatish mumkin bo‘ladi, zero, Rabg‘uziyda payg‘ambarning uchinchi xitobidan keyin Ukkosha so‘z qotadi, boshqalar esa jim turadilar. Ammo Muslihabegim Miskin hikoyatida esa uchinchi xitobdan so‘ng, avvalo sahabalar Rasulullohga qarata undan mudom rozi ekanliklarini, unga jonlari fido ekanliklarini bildiradilar. Ushbu fikrlar bayonini Miskin badiiy mahorat bilan ifodalaydi:

*On zamon barxost az yoron fig‘on,
Guftand: «Ey payg‘ambari oxir zamon.
Sad hazoron joni man bar tu fido
Bod, ey shohi rasuli anbiyo.
Haq turo boshad ba moyon mursalin,
To ki moro bar tu Haq boshad yaqin» .*

Aynan mana shu munosabatdan so‘ng Ukkosha o‘rtaga chiqadi hamda qasos ilinjida ekanligini e’tirof etib, barchani hayratga soladi:

⁶¹ Носируддин Бурхонуддин Раббузий. Қисаси Раббузий. 2-жилд. – Тошкент: Ёзувчи 1991,– Б. 192-197

*Ba'd az on barxost Ukkosha zi jo,
Guft bo hazrat: «Ayo sadri safo.
Rafti on ro'ze ki dar jangi Uhud,
Bo jami'i jumlagi yoroni xud.*

Muslihabegin hikoyatida Ukkosha ushbu voqeaning sodir bo'lgan paytiga va joyiga aniq ishora bor (Uhud jangi). Ammo Rabg'uziyda bu jihat ko'zga tashlanmaydi: Aydi: «Bir kun siz safardin kelurda siz tevaga minub, teva urur bo'lub, ul qish qamchi birla uchamqa uringiz, yavloq og'ridi. yo Rasululloh, uch qurla aymasangiz manma aymas erdim», tedi.

Rabg'uziyning hikoyatida Rasululloh hamda Ukkosha safardan kelayotganligini, u tuyada ekanligini (Ukkosha esa piyoda), shunda Muhammad tuyaga qamchi urganida, u Ukkoshaga tekkanligini, u qattiq og'ri ganligini, ammo bugun Rasululloh barchaga yuzlanib uch marta so'ramaganida, u buni oshkor qilmasligini aziyat bilan bildiradi. Hikoyatlarning farqli jihatlardan yana biri Rasulullohning Ukkoshaga qasos olishi uchun imkon berishida ko'zga tashlanadi. Miskin payg'ambar kaltak olib kelish uchun Bilolni hujraga yuborganligini ta'kidlasa, Rabg'uziyda «kishi» yuboriladi, aynan Bilol ekanligi aytilmaydi. Shoira hikoyatida tasvirlanishicha, sahobalar fig'on chekadilar, xususan Abu Bakr hamda Umar Ukkoshaga so'z qotib, bu ishdan qaytishni, aksincha, Rasulullohning o'mniga yaxshisi ular (Abu Bakr va Umar)ni qamchilashini aytadilar. Muslihabeginning adabiy mahorati shundaki, u payg'ambar atrofidagi eng yaqin sahobalarni bevosita jarayonda ishtirokini ta'minlashga harakat qilgan, shu qatorda Usmon va Ali Murtazoning ham Ukkoshani bu qilmishdan qaytarishga uringan sahobalar qatoriga qo'shami. Qiziq tomoni shundaki, to'rttala sahobaning takliflarini Ukkosha qaysarlik bilan rad etadi hamdaadolatli qasos olishi kerakligini bot-bot takrorlaydi. Rabg'uziy hikoyatida esa sahobalar aynan nomma-nom keltiriladi, ammo farqli tarzda Usmonning nomi zikr yetilmaydi. Minbarga chiqib ham payg'ambarini urishni istamagan Ukkosha Muhammad (a.s.)dan to'nini yechishini, zero, safar chog'ida u to'nsiz bo'lganligini aytadi. Payg'ambar uning mazkur talabini ham ado etadi, natijada barcha uning tanidagi payg'ambarlik belgisini ko'radilar. Shu asnoda Ukkosha maqsadi aynan payg'ambarlik belgisini ko'rmoq bo'lganligini e'tirof etib, payg'ambaridan qasos olish fikridan qaytadi hamda barchanining duosiga sazovor bo'ladi. Miskin hikoyatida ham Ukkoshanining maqsadi payg'ambarlik belgisini ko'rish ekanligi ta'kidlanadi.

Muslihabegin Miskin g'azaliyotida payg'ambarimizning barcha ummatlarga birdek shafoatli ekanliklari eng ezgu fazilatlaridan biri sifatida

targ‘ib qilinganidek, shoiraning she’riy hikoyatlarida ham ayni mavzu ancha mufassal o‘zining badiiy ifodasini topganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. «G’ornomayi rasul»da qalamga olingan adabiy lavhalar mulohazalarimizga qanoat hosil qildiradi. Ushbu masnaviyda badiiy in’ikosini topgan mavzu shoiraning 68 baytdan tarkib topgan «Yak hikoyat yod doram az rasuli insu jonn...» satri bilan boshlanuvchi tojik tilida bitilgan hikoyatida ham yoritilgan. Bu bilan shoira o‘zbek va tojik tilida so‘zlashuvchi aholini ushbu mavzudan birdek xabardor qilishni istagan bo‘lishi ehtimoldan yiroq emas.

«G’ornomayi rasul» 101 baytdan tarkib topgan bo‘lib, yuqorida nomi keltirilgan hikoyatdan hajman ancha kattaligi, shunga ko‘ra unda voqealar mufassalroq bayon etilgani bilan ajralib turadi. Masnaviyning dastlabki uch bayti an’anaviy hamd va na’t uslubida yozilgan. Hikoyatdagi asosiy voqealar to‘rtinchi baytdan Muhammad alayhis-salomning tunlarni bedor o‘tkazib, «Ummatimni afv et!» – deya Alloh taologa iltijo etishlari tasviri bilan boshlanadi. Ana shunday kechalarning birida payg‘ambarimizning ko‘zlarini uyqu ilitadi. Shu payt bir nido kelgani quloqqa chalina boshlaydi:

*Dedi: «Yo Mustafo, nedur bu rohat,
Tilama ummatingga endi rahmat.
-Sani ummatingni, - dedi G’affor,-
Ki do ‘zax o ‘tiga qildim sazovor.
Yaratibman sani bu ummat uchun,
Ki san uxlabsan chun rohat uchun...»* [972/1, 133^a varaq]

Muslihabegim Miskin bir lahma ummat tashvishlaridan beixtiyor xoli bo‘lib qolgani uchun Alloh rasuliga shunday nido kelganiga e’tiborni qaratish bilan she’rxonni yana bir karra payg‘ambarimiz hayotlari davomida juda katta mas’uliyatni qalbdan his etib yashaganlariga amin bo‘lishga chorlaydi. Hikoyatdan o‘rin olgan keyingi lavhalardagi payg‘ambarimizda paydo bo‘lgan iztiroblar tasviri o‘quvchi qalbidagi ishonchni shubhadan tamomila xoli qilib qo‘yadi. Muhammad alayhis-salom g‘oyibdan kelgan nido ta’siridan hayron-u lol bo‘lib, ko‘zlariga yosh olib, nola chekib, parishon bir holatda biyobon sari yo‘l oladilar. Oradan ikki uch kun o‘tib, Alloh rasulining g‘oyib bo‘lib qolgani xabaridan sahobalar voqif bo‘lishadi. Bu holdan taajjublanib, afsus-nadomat chekib, ko‘zlariga yosh olishadi va ummul mo‘minin, ya’ni mo‘minlarning onasi deya e’zozlangan payg‘ambarimizning ayollari hazrati Oishaga murojaat qiladilar. Hazrati Oisha ummat uchun azob sodir bo‘lishi xususida oyat nozil bo‘lgani bois payg‘ambar «Ummatim voh,

ummatim voyki, osiy ummatim holiga yuz voy», - deya fig‘on qilib chiqib ketganlarini ma’lum qiladi. Shundan so‘ng voqealar rivoji quyidagicha davom ettiriladi:

*Yig‘ildi bir yera ashob-u yoron,
Madinani(ng) ichida bo‘ldi afg‘on.
«Kerakmas, - dedilar, - bizga tan-u jon,
Fido bo‘lsun Muhammad yo‘lida jon» . [972/1, 134a varaq].*

Yuqorida keltirilgan iqtibosda sahaba va birodarlarning payg‘ambarimizga bo‘lgan yuksak ehtiromi, samimi sevgisi o‘z ifodasini topgan. Ana shu qalbda jo‘sh urib turgan mehr ularni ham sahro tomon yetaklaydi. Sahoba-yu yoronlar biyobonda bir cho‘ponga duch kelishadi va «*g‘arib-u benavolarning panohi, osiy ummatning dodxohi*»ni yo‘qotib qo‘yanliklarini unga ma’lum qilishadi.

*Dedi cho‘pon: «Man oni ko‘rganim yo‘q,
Aning otin hanuz eshitganim yo‘q.
Vale uch kun bo‘lubtur, ey yoronlar,
Kelur bo tog‘idin turfa fig‘onlar.
Birov: «Yo ummatim , - deb aylar afg‘on,
Ki bilmam man kim erkandur qayu jon.
Qo‘yuptur o‘tlamoqni jonivorlar,
O’shal tog‘ sorig‘a boqib turarlar...» [972/1, 134a-134b*

varaq]

Shoira Muhammad alayhis-salom osiy ummatning mag‘firat etilishini tilab Alloh taologa munojot qilganliklarini mubolag‘ali tasvirlaydi. Ayniqsa, bu o‘tli nidolarni eshitgan jonivorlarning o‘tlamoqdan qolib, o‘sha tog‘ sari qarab qolishlari tasviri o‘quvchida iliq taassurot qoldiradi. Sahobalar tog‘ tomon yo‘l olishadi, undagi bir g‘orda payg‘ambarimiz hasrat bilan boshlarini sajdaga qo‘yib, ko‘zlaridan «selobo yosh» oqizib, fig‘on qilayotganliklariga shohid bo‘lishadi:

*Deyur: «Voy ummatim, voy, ummatim voy,
Ki osiy ummatim holiga yuz voy.
Rahimo, ummatimni ayla rahmat,
Vagarna bosh ko‘tarmam to qiyomat» .
Tilda doim erdi ushbu guftor,
Der erdi: «Ummatim afu ayla, G’affor» [972/1, 134b*

varaq.].

Hikoyatning fikrlar qarama-qarshiligiga boy bo‘lgan ehtirosli badiiy lavhalari masnaviyning keyingi baytlarida o‘z ifodasini topa boshlaydi. Sahobai kiromlarning birin-ketin so‘z olib, payg‘ambarimizni g‘orni tark

etishga chaqirishlari va ularga javoban bildirilgan dardli mulohazalar o‘quvchini hayratga soladi. Dastlab Abu Bakr Siddiq payg‘ambarimizga yuzlanib, g‘orni tark etish taklifini bildiradi:

*Dedi Siddiq: «Emdi g‘am yemagil,
Muborak boshingni yerdan ko ‘targil.
Xudo uchun na kim qildim ibodat,
Ani qildim fidoyi osiy ummat»
Payg‘ambar dedi: «Haq qilmay inoyat,
Na sud etgay mani dardimga toat»* [972/1, 134^b varaq].

Hazrati Abu Bakr Siddiqdagi tantilik, tabiiyki, sinchkov o‘quvchini befarq qoldirmaydi. Muhammad alayhis-salomni mana shu vaziyatdan chiqarish uchun bu ulug‘ zot Xudo uchun qilgan toat-ibodatlarining barchasini osiy ummatni mag‘firat etilishi yo‘lida nisor qilishga hozirligini bayon qiladi. Biroq Alloh rasuli: «Haq inoyat qilganligi haqidagi xabarni eshitmasam, dardimga sening toat-ibodating qayday foyda keltirishi mumkin?» – deya taklifni rad etadilar. Shundan so‘ng Hazrati Umar so‘z olib, payg‘ambarimiz o‘z hadislaridaadolat ishlarning afzali ekanini aytib o‘tganlari bois odillik fazilatidan sodir bo‘lgan o‘zining barcha xayrli ishlarini osiy ummatga fido qilishini aytadi. Biroq payg‘ambarimiz: «*Muning birla ochilmas kori mushkul*», - deya javob beradilar. Sahobayı kiromlarning birin-ketin ehtirosga boy takliflari va ularning rad etilishi o‘quvchini hayratga qoldira boshlaydi. Tabiiyki, bu muammoni qanday yechim topishi uni qiziqtirib qo‘yadi. Navbat Hazrati Usmonga yetadi:

*Ki andin so ‘ngra javobin dedi Usmon:
«Ko ‘targin boshingni, ey nuri Yazdon.
Ki man jam’ ayladim Haqni(ng) kalomi,
Savobi xayr-u ehsonim tamomi.
Ki berdim ummatga, ey payg‘ambar,
Ko ‘targil boshingni, jumlaga rahbar» .
Javobin berdi hazrat yig ‘layin zor:
«Muni birla ochilmas ushbu dushvor»* [972/1, 135^a varaq]

Haqning kalomini Qur’oni karimdek mo‘tabar kitob holiga keltirishning savobi bu mushkulni hal qilolmas ekan, ushbu chigallik hal bo‘lmasa kerak, degan o‘y o‘quvchiga tinchlik bermaydi. Shundan so‘ng sahobayı kiromlarning so‘nggi vakili Hazrati Ali so‘z oladi. U kofirlar qavmidan qanchasini qatl etgan bo‘lsa, undan hosil bo‘lgan xayru ehsonlarning barini osiy ummatga nisor etishini bildiradi.

*Dedi hazrat anga: «Ey Haydari Haq,
Manga Haqni(ng) itobi bo ‘ldi mutlaq.*

*Agar qilmasa tangrim inoyat,
Na sud etgay mani dardimga toat» .
Hama a'mollarni nafl-u ham farz,
Kelib hazrat qoshida qildilar arz.
Alarning arzini tinglamadilar,
Zamone yig'lamoqdin tinmadilar [972/1, 136^b varaq].*

Sahoba-yu yoronlarning so‘zlari maqbul bo‘lmagach, ular ushbu xabarni payg‘ambarimizning qizlari, islom olamida «xayr un-niso» («ayollarining xayrlisi») deya ulug‘langan hazrati Fotimaga yetkazadilar. Fotima yeldek yugurib kelib, g‘orda Alloh rasuli bilan uchrashadi. Otasi: «*Manga mundin battar ish bo‘lmas, ey jon, Yoqarman ummatingni*», - dedi Subhon, - deya bo‘lib o‘tgan voqeadan qizini xabardor qiladi. Fotima ham Alloh yo‘lida qilgan ibodatlarini osiy ummat uchun fido qilishini aytadi, biroq u ham g‘orni malul, ya’ni g‘amgin holda tark etishga majbur bo‘ladi. Shundan so‘ng Fotima Alloh taologa yuzlanib, iltijo qila boshlaydi:

*Dedi: «Parvardigori insi jonsan,
Ki dastgiri hama darmondagonsan.
Man miskin kanizni aylagil shod,
Otamni(ng) ummatin o‘tdin qil ozod.
Otamni(ng) ko‘z yoshini hurmatidin,
Qutqargil ummatin do‘zax o‘tidin.
Man miskin kanizni qilmagin xor,
Hama ojizlarga sansan madadkor» [972/1, 136^b varaq].*

Fotima Allohgaga yolvorib, o‘tli iltijolar qilishda davom etadi. Sirni begonalarga bildirmay, zor yig‘lab, Allohgaga sajda qilib, nola chekadi. Oxiri Xudo uning duolarini mustajob qiladi. Jabroil alayhis-salom samodan inib: «*Ey Mustafo boshing ko‘targil, Tangrim sanga inoyat qildi*», - deya xabar yetkazadi. Shunday qilib, hamma osiy ummat do‘zax o‘tida yonish azobidan ozod bo‘ladi. Shoira quyidagi bayt bilan hikoyatga yakun yasaydi:

*Ki bittim «G’ornomayi rasul» ni,
Bayon etim aningdek juzv-u kullni « [972/1, 136^b varaq].*

Muslihabegin Miskin hikoyat so‘ngida bunday yechimni o‘quvchi hukmiga havola etib, mavzu ustida uni uzoq o‘ylashga majbur etadi. Bir

tomonda islom olamining eng yirik vakillari—buyuk sahabalar, ikkinchi tomonda esa payg‘ambarimiz ahli bayti vakilasi ko‘z o‘ngimizga kela boshlaydi. Aslida, bunday qarshilantirish uslubi mumtoz adabiyotimiz uchun begona emas. Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonidagi Ibrohim Adham haqidagi she’riy hikoyat fikrimizga dalil bo‘la oladi. Ibrohim Adham o‘n to‘rt yil sahro kezib Makkayı mukarramaga yetib keladi. Ammo Ka’batulloh o‘z o‘rnida yo‘q ekan. O’sha muqaddas makonda hozir bo‘lganlar muborak sajdagohning Robiai Adaviya istiqboliga chiqqanligini ma’lum qilishadi. Tabiiyki, bunday kutilmagan hodisa Ibrohim Adham fig‘onini falakka ko‘taradi. Shunday qilib, Ibrohim va Robianing uchrashuvi hamda muloqotlari voqe’ bo‘ladi. Ibrohim Adhamning fig‘onli savollarini tinglagan bokirayu zakovatli ayol Robia quyidagicha javob qaytaradi:

Robia dedi anga: «Ogoh bo‘l» ,
Kim necha yil bodiyada borchcha yo‘l.
Bo‘ldi ishing arzi namoz aylamak,
Sheva manga arzi niyoz aylamak.
Sanga samar berdi namoz-u riyo,
Bizga bu bar berdi niyoz-u fano» .⁶²

Arzi niyoz – Allohga sidqidildan zorlanib yolvorish, duolar etishni odat qilgan Robiayi Adaviya Ka’batullohning ana shunday ehtiromiga loyiq ko‘rilishida hikmat bor.

Muslihabegin Miskin hikoyatida ham dastlab Fotima o‘sha sahabayi kiromlar singari g‘ordan malul holda chiqadi. Biroq u shu bilan kifoyalanib qolmaydi. Allohga iltijolar qilishda davom etadi. She’riy hikoyatning eng muhim fazilati insonni har qanday vaziyatda noumid bo‘lmaslikka da’vat etganida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, undagi ehtirosli baytlar, yechimi o‘quvchini nihoyatda qiziqtirib qo‘yuvchi adabiy lavhalar, Fotimaning ruhiy holatini baland pardalarda ifodalagan «*Yig‘lar erdi nola aylab zor-zor, Go‘yiyo bo‘ldi qiyomat oshkor*» singari ko‘plab mubolag‘aviy satrlar shoiraning bunday she’riy hikoyatlar yozishda katta tajribaga ega bo‘lganidan dalolat beradi.

⁶² Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аббор. Муқаммал асарлар тўплами. XX томлик, 7-том. –Тошкент: Фан, 1991, –Б.120.

Shoira hikoyatlari tahlili jarayonida shuni kuzatdikki, uning «Nabiyi Hay tilab mardi maoni»[1962,138^a varaq] sarlavhali hikoyatida Anvari, «Dar bayoni hikoyati Qaysar ibn Omir»[1962,140^b varaq] misralari bilan boshlanuvchi hikoyatda Sayqaliy, «In hikoyat savdogar ki dastgiri kardani saxovatash»[1962,144^a varaq] misrali hikoyat oxirida Nuriy singari shaxslar nomi tilga olinadi. Ammo uchala she'riy hikoyatning yozilish uslubi ham shoira Miskin uslubiga hamohang ekanligini anglash qiyin emas. Katta ehtimol bilan aytish mumkinki, yuqorida nomi sanalgan shaxslar kotib tomonidan hikoyatlarga kiritilgan bo'lishi mumkin.

III BOB. MUSLIHABYEGIM MISKINNING BADIY SAN'ATLARDAN FOYDALANISHDAGI SHOIRLIK MAHORATI

3.1. Shoira she'riyatida istiora, tashbih, tansiq us-sifotning qo'llanilishi

Sharq she'riyatining eng muhim masalalaridan biri badiiy san'atlar sanaladi. Haqiqatan ham, she'riy asarning jozibadorligi va ta'sirchanligini she'riy san'atlar ta'minlaydi. Bu san'atlar haqida o'tmishda maxsus asarlar yaratilgan bo'lib, ular bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. «Funun ul-balogs'a» asari muallifi Shayx Ahmad Taroziy bu san'at (sanoye'-ush-she'r)ni fasohat va balog'at egalari orasida g'oyat mo'tabar ekanligini ta'kidlaydi⁶³. Aynan badiiy san'atlarga bag'ishlab yaratilgan asarlar sirasiga Atoulloh Husayniyning «Badoyi' us-sanoyi'» asarini ham kiritish mumkin. Bu asarning ilmiy qimmati eng avvalo shundaki, unda adabiyotshunos Sharq xalqlarining mumtoz she'riyatida uchraydigan ikki yuz yigirmadan ortiq san'at turlarini aniqlashi bilan birga ularni lafziy, ma'noviy va lafziyu ma'noviy kabi uch yo'naliш tarzida tasnif etadi.

Ma'lumki, she'riy san'atlar badiiy asardan o'rin olgan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyligi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan. Adabiyotimiz tarixi yana shundan dalolat beradiki, she'riy san'atlar shoир badiiy salohiyatini ko'z-ko'z qilish, uning xilma-xil san'atlardan mohirona foydalanish san'ati usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko'lami, yuksak ijtimoiy-axloqiy g'oyalarni jilolantirish san'atkorligi ifodasi bo'lib kelgan⁶⁴.

Zullisonayn shoira Muslihabegim Miskin ham g'azal, ruboiy, masnaviy, muxammas, musaddas, mustazod, tarje'band, va she'riy hikoyatlarida badiiy san'atlardan unumli foydalangan. Istiora, tashbeh, tansiq us-sifot mumtoz ijodkorlar asarlarida kuzatilgani singari⁶⁵, shoira ijodida eng ko'p murojaat etilgan badiiy san'atlar sirasiga kiradi.

Istiora ma'naviy san'atlar qatoriga kiradi. U arabcha so'z bo'lib, «biron narsani omonatga olmoq» («vaqtincha olmoq») degan ma'noni ifodalab, adabiy asarda so'zni o'z ma'nosidan boshqa bir ma'noda,

⁶³ Ҳусайн А. Бадойиъ-с-саноийъ:(Аруз вазни ва бадиий воситалар ҳақида) Форс. А.Рустамов тарж. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашириёти, 1981. – Б -19.

⁶⁴ Ҳожиахмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати.. – Тошкент : Шарқ 1999.. –Б-4.

⁶⁵ Эшонқулов Ҳ. Алишер Навоий ғазалиётидаги ишқ поэтикасининг қиёсий-типологик таҳлили . Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси. – Б.216-235.

aniqrog‘i, uni haqiqiy ma’noda emas, balki majoziy bir ma’noda qo‘llash san’ati sanaladi.⁶⁶ Tuzilishiga ko‘ra bir so‘zdan yoki iboradan tashkil topgan istiora sodda istiora, birikmali istioralar esa murakkab istiora sanaladi. «San’athoyi badehi dar she’ri tojiki» kitobida ta’kidlanishicha, istiora adabiyotda majozning bir ko‘rinishi bo‘lib, biror so‘zning o‘rniga boshqa so‘z ishlatishdir.⁶⁷ Istiora tashbih san’atiga yaqin turadi. Shu bois bu ikki badiiy san’at she’riy asarlarida bir-birini to‘ldirish maqsadida ko‘pincha bayt yoki misralarda yondosh qo‘llanadi.

Ma’naviy san’atlар sirasiga mansub bo‘lgan tansiq us-sifotning o‘ziga xos xususiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: «...shoir yoki adib bir baytda yoki jumlada tasvir obyekti bo‘lgan biron buyum yoinki shaxsga xos bo‘lgan bir necha xususiyatni, unga nisbat berilgan sifatlarni paydar-pay sanab ko‘rsatadi. Tasvir qilinayotgan shaxs yoki buyumning ayrim jihatlarini chuqurroq ochishga qaratilgan bunday tasvir uchun jalb etilgan sifat, xususiyatlar hamjins bo‘lib, tasvir ob’ektining muayyan tomonini kengroq izohlash, uni bo‘rttirib ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Tansiq- us-sifot o‘zining ichki xususiyatlariga ko‘ra badiiy tasvirning muhim vositalaridan bo‘lmish tashbih va mubolag‘a san’atlari bilan ma’lum darajada bog‘langan»⁶⁸. Ushbu tasviriyo vositalardan badiiy kashfiyotlar yaratish ijodkordan favqulotda topqirlikni talab etadi. Masalaning ayni jihatiga ko‘ra Muslihabegim Miskin she’riyatini nazardan o‘tkazib, uning badiiy mahoratiga baho berishga harakat qilamiz. Shoiraning yetti baytli «Kard moro» («Qildi bizni») radifli g‘azali aytilganlar nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir:

*Ki so‘zi otashi ishqे chunon devona kard moro,
Ki anvari jamolash ham chunon mastona kard moro.
Chunon monandi Layli dar firoqash dar badar gashtam,
Chunon monandi Majnun dar biyobon xona kard moro.
Misoli Yusufi Misriy yak rax az parda bekushoyad,
Ba monandi Zulayxo ham chunon afsona kard moro.
Shavam Devona-yu shaydo az ishqat man rasvo,
Ba girdi sham ‘i ro ‘yash pashshayi parvona kard moro.
Nadoram toqati bo yodi ruxsorash dar in olam,
Chunon maxmur doim bar dar mayxona kard moro.
Zi ishqash doimo dar ko ‘h-u sahro dar badar gashtam,
Ba yodi sham ‘i ro ‘yash oshiqi devona kard moro.*

⁶⁶ Хожиахмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати.. – Тошкент : Шарқ, 1999. – Б-53.

⁶⁷ Санъатҳои бадеҳи дар шеъри тоҷики. – С 62.

⁶⁸ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: “Зарқалам”. –Б73.

Ayo Miskin, zi ishqqi u hama Devona-yu shaydo,

Dar in jo doimo az furqatash afsona kard moro [1962,28^a varaq].

Mazmuni: Ishq otashida kuyish bizni chunonam devona qildi, jamoli nuri ham bizni chunon mastona qildi. Uning firoqida Layli misol darbadar kezdim, go ‘yo Majnunga o ‘xshab biyobonda bizni xonali qildi. Yusufi Misriy kabi pardadan bir jamolini ko ‘rsatsa, Zulayhoga o ‘xshab bizni ham afsona qildi. Sening ishqingda men rasvo, devona-yu shaydo bo ‘lay desam, sham yuzi atrofida bizni parvona pashshaga aylantirdi. Bu olamda uning ruxsori yodiga toqatim yo ‘qdir, bizni mayxonada doim maxmur (may xumori) qildi. Tog ‘-u sahroda uning ishqqi bilan doimo darbadar yurdim, bizni sham yuzi hajrida oshiqi devona qildi. Ayo Miskin, uning ishqida hamma devonayu shaydo, furqatidan bizni doim bu yerda afsona qildi.

G’azal hazaji musammani solim (ma’foiylun ma’foiylun ma’foiylun ma’foiylun) vaznida yozilgan bo‘lib, «devona», «mastona», «xona», «afsona», «parvona», «mayxona» so‘zлari qofiyadoshlikni hosil qilib, o‘ziga xos ritmni hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etgan. G’azalning matla’si uning jozibadorligini ta’minalashda muhim poetik funksiya bajargan. Ayniqsa undagi «*Ki so ‘zi otashi ishqе*» («*Ishq otashida kuyish*») va «*Ki anvori jamolash*» («*Jamolining nurlari*») yopiq yoki istiorai izofiy⁶⁹ deb ataluvchi istioralar lirik qahramonning holini ifodalash imkonini yaratgan. G’azal shoira ijodida kam uchrovchi oshiqona ruhda yozilgan. Ishqqa otashni nisbatlash, jamol – yuzga nisbatan nurlarni qo‘llash shoiraga ishqning nihoyatda harorali ekanligi-yu, vasf etilayotgan seviklini ilohiy mazhar sifatida tasvirlash imkonini hosil qilgan. Ta’kidlash lozimki, g’azalning radifi oshiqni yagona emas, bir necha kishi yoki muayyan guruh kishilari sifatida tasvirlash imkonini hosil qilgan. Shu bois ishqdan devona bo‘lgan va vasf etilayotgan ma’shuqaning nurli yuzidan mastona bo‘lgan kishilar, Ahmad Yassaviy hikmatlarida kuzatilgani singari diydortalablardir. G’azaldagi umumlashgan obraz – ma’shuqani Alloh sevikli rasuli Muhammad (a.s.) tarzida tushunish mumkin. U ilohiy mazhar sifatida tasvirlanib, uning vositasida Allohga bo‘lgan muhabbat badiiy tasvirlanadi. Matla’da qo‘llangan yopiq istioralar keyingi olti baytda shoira uchun nihoyatda chiroyli, ba’zan badiiy kashfiyotlar darajasiga ko‘tarilgan tashbehlarni hosil qilishga imkon yaratgan.

Ta’kidlash lozimki, shoira g’azaliyotida an’anaviy adabiy qahramonlarni lirik qahramon yoki oshiqlarga qiylaslab, talmehdan tashbih hosil qilish uslubi keng qo‘llanilgani bilan ajralib turadi. Tahlil etilayotgan

⁶⁹ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: “Зарқалам”. –Б. 22-23.

g‘azalda ham lirik qahramon o‘zini seviklisi firoqida darbadar kezuvchi Layliga qiyoslash bilan kifoyalanmay, o‘zi singari oshiqlarni ishq otashida kuygani bois Majnunmisol dashtda xona qurib, o‘sha muqim turuvchiga o‘xshatadi. Bunday tashbihlar vositasida an’naviy qahramonlar obrazlariga xos syujet she’rxon ko‘z o‘ngida gavdalanib, hissiy ta’sirchanlik oshiriladi. Ayniqsa, shoiraning Yusuf va Zulayho ishqiy sarguzashtlariga oid badiiy lavhalardan kelib chiqib, g‘azaldagi ma’shuqani Yusufi Misriy kabi parda ortidan jamolini ko‘rsatganining badiiy tasvirini oshiqlarini Zulayhoga monand devoni qilishi badiiy lavhasi bilan tadrijiy rivojlantirishi uning o‘ziga xos topqirligi sifatida namoyon bo‘ladi.

G‘azaldagi ishq otashida kuyish istiorasi shoiraga oshiqlarni jununvor holatda tasvirlash imkonini hosil qilgan. Unda ma’shuqa shamga qiyoslanib, uning yuziga shaydo bo‘lgan oshiqlarni parvona pashshasiga, bu dunyoda sevikli nurli yuzining yodi bilan yashashga toqat qilomagan oshiqlarning mayxonadagi maxmur – mastligi tarqalmagan rindlarga o‘xhatilishi ijodkorning bu borada chinakam mahorat sohibi ekanligidan dalolat beradi.

Muslihabegim Miskin Yusuf va Zulayho, Layli va Majnun singari an’naviy adabiy qahramonlar bilan bog‘liq badiiy lavhalarga tez-tez murojaat qilib, lirik qahramonni talmeh qilingan qahramonlarga o‘xshatish bilan badiiy jihatdan barkamol baytlar yarata olgan. Oldingi bobda tahlil jarayoniga tortilgan shoiraning «Ey shoh, mani vola-yu shaydo qiladursan» satri bilan boshlanuvchi olti baytli g‘azalida ham ayni holat kuzatiladi. Shoira umumlashtiruvchi mazmunga ega «ey shoh» istiorasi vositasida «Majnun kabi man cho‘l-u biyobonni kezibon, Doim mani jo‘yandayi Laylo qiladursan» o‘z holi bilan Sharqda mashhur bu sevishganlar obrazi o‘rtasida uyg‘unlik topa oladi. Bu holat shoiraning ko‘plab tojik tilida bitilgan g‘azallarida ham kuzatiladi. Muslihabegim Miskinning «Zi ishqqi shahi barno devona shudam shaydo» («Barno shohning ishqidan devonayu shaydo bo‘ldim») satrlari bilan boshlanuvchi g‘azalida shunday tashbihning go‘zal namunasi yaratilgan:

Zi ishqqi shahi barno devona shudam shaydo,

Majnun sifat az ishqash raftam ba biyobonho.

Layli zi firoqi o‘, doim ba so‘rog‘i o‘,

Hastam ba dog‘i u devona shuda shaydo. « [1962, 28^b varaq]

Mazmuni: Shohi barnoning ishqida devona-yu shaydo bo‘lib, Majnunsifat biyobonga ketdim. Layli uning firog‘ida, doimo uning so‘rog‘ida, uning dog‘ida devonayu shaydoman.

Ushbu g‘azalda «barno shoh» istiorasi ma’shuqa ma’nosini ifodalab turibdi. Bundan shoiraning maqsadi Muhammad (a.s.)ni vasf etish ekanligini sezish mumkin. G‘azalda ilohiy mazhar vositasida ilohiy ishq tarannum etilgan. Lirik qahramon ilohiy mazhar vositasida Alloh ishqida Majnundek biyobonlarni kezadi, Layli kabi uning firog‘ida devonayu shaydo bo‘ladi. Har ikkala baytda ham talmeh san’ati mavjud. Shu bilan birga, lirik qahramon o‘z holatini Majnun va Layliga o‘xshatadi. Bu esa esa tashbih san’atining yorqin namunasidir. Xususan, g‘azalning ikkinchi baytida musajja’ badiiy san’atining qo‘llanganligi uning ta’sir doirasini yanada oshirishga zamin hozirlagan.

Muslihabegin Miskin tansiq us-sifot badiiy san’atidan ham mahorat bilan foydalana oladi. Uning quyidagi baytida lirik qahramon holiga xos sifatlar birin-ketin qatorlashtirilgan bo‘lib, mubolag‘aviy tasvir va o‘ziga xos ohangdorlikni hosil qilgan. Uning o‘ziga xos ohangdorligini, yuqorida tahlil qilingan baytda kuzatilgani singari, saj’li qofiyalar ham ta’minalashga muhim rol o‘ynagan:

Man zor dil afgoram, az ishqqi tu bemoram,
Bo diydayi xun boram az ishqqi tu man rasvo.

Mazmuni: Zoru dilafgorman, ishqida bemorman, men rasvo sening ishqingda qonli ko‘zyosh to‘kaman.

Lirik qahramonning dilafgorligi, ma’shuqa ishqida bemorligi, qonli ko‘z yoshlari va ishqda rasvoligi unga munosib ko‘rilgan sifatlar bo‘lib, bu sifatlar bilan u she’rxon ko‘z o‘ngida ishqdan zada bo‘lgan oshiq sifatida gavdalanadi.

Muslihabegin Miskin istiora, tashbih qo‘llangan g‘azallarida tansiq us-sifotlarni ham, ushbu badiiy san’atga xos xususiyatdan kelib chiqib, qatorlashtirib qo‘llaydi va bu bilan she’rning o‘ziga xos ohangini hamda mubolag‘aviy tasvirlarni yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shoiraning «Dargohingga bir ojiz-u nolon keladurman» satri bilan boshlanuvchi g‘azalida tansiq us-sifotlarning qofiya vazifasida ham qo‘llangani ularning ta’sir kuchini yanada oshirilishiga bois bo‘lgan:

Dargohingga bir *ojiz-u nolon* keladurman,
Dilxasta-yu, *hayron-u parishon* keladurman.
Umrimni qilib sarf bu g‘aflat bila doim,
Umid bila, *ey shahi davron*, keladurman.
Bu dardi fanog‘a bo‘libon zori giriftor,
Pobasta ul *zulfi parishon* keladurman.
Monandi bulbul bo‘libon navha qilibon,
Shaydo bo‘libon sayri guliston keladurman.

Zori(yu) tavallo qiladur Miskini hayron,
Bir marhamat aylagingki, *parishon* keladurman.

Besh baytli ushbu g‘azalning «*ojiz-u nolon*», «*hayron-u parishon*», «*ey shahi davron*», «*zulfi parishon*» «*sayri guliston*», «*parishon*» singari qofiyalanishini hosil qiluvchi so‘z, juft so‘z, izofalardan to‘rttasi: «*ojiz-u nolon*», «*hayron-u parishon*», «*zulfi parishon*» va «*parishon*» tansiq us-sifot va sifatlashlar bo‘lib, ularning, ayniqsa, juft so‘z va izofa holida qo‘llanilgani ham ohangdorlikni ta’minlash nuqtayi nazaridan, ham lirik qahramon holini mubolag‘aviy tasvirlash muhim ahamiyat kasb etgan. G‘azaldagi «*ey shahi davron*» yopiq istiorasi umumlashma obraz bo‘lib, undan shoira she’riyatiga ham Muhammad (a.s.) vasfi nazarda tutilganini sezish mumkin. Ushbu g‘azalda lirik qahramonning bulbulga qiyoslanishi ham shoira adabiy niyatini mubolag‘aviy tasvirlashga zamin yaratgan.

Muslihabegim Miskin musammatlar ijod etishda ham mahoratli shoira sanaladi. Ayniqsa, uning eng noyob ko‘rinishi yetti bandli, oltmish uch misradan tarkib topgan mustasne’ janrini shoira devonidagina kuzatish mumkin. «Ey dilbaronro dilbari» satri bilan boshlanuvchi rajazi murabba’yi solim (mustafilun mustafilun) vaznida yozilgan ushbu mustasne’da istiora, tashbih va tansiq us-sifotning nihoyatda noyob ko‘rinishlarini uchratish mumkin. Mustasne’ payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning vasfiga bag‘ishlangan bo‘lib, uning dastlabki bandidanoq tansiq us-sifotlarning istioralashuviga keng o‘rin berilgani shoira badiiy mahoratining bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ey dilbaronro dilbari,
Ey sarvaronro sarvari,
Ey gumrahonro rahbari,
Har jumlagi toji sari,
Ham afzali payg‘ambari,
Bar anbiyo sardaftari,
Shohanshahi bahr-u barri,
Bar so ‘yi moyon benigari,
Ey xojayı har du saro [1977, 26^a varaq].

Mustasne’ning ushbu dastlabki baytida kuzatilgani singari uning keyingi baytlarida ham o‘zbek va tojik tilida so‘zlashuvchilar uchun umumiyligi bo‘lgan so‘z va izofalar qo‘llangani bois ushbu she’rni o‘zbek tilidagi tarjimasiga u qadar ehtiyoj sezilmaydi. Boshlanma bandda to‘rt o‘rinda «Ey» undovi bilan boshqa o‘rinlarda esa unga ehtiyoj sezmagani holda mustasne’da vasf etiluvchi qahramonning sifatlari istioralashgan tansiq us-sifotlari qatorlashtiriladi. «Dilbarlarning dilbari», «Sarvarlarning

sarvari», «Gumrohlarning rahbari», «Barchaning boshidagi toj» singari istioralashgan tansiq us-sifotlarda vasf etilayotgan manzur umumiylit kasb etadi. Bular orasida «Gumrohlarning rahbari»da masalaning mohiyati birmuncha ochilgandek bo‘ladi. «Payg‘ambarlar afzali», «Anbiyolar sardaftari»da sifatlari qatorlashtirilgan obrazning Muhammad (a.s.) ekanligi ayonlashib qoladi. Shu tarzda payg‘ambar (a.s.)ning «Quruqlik va dengizning shahonshohi» ekanligi kabilar vasf etiladi. Shoiraning Muhammad (a.s.)ga munosib ko‘rilgan o‘nga yaqin sifatlarining istioralashtirilgan holda qo‘llashi va ularning bari undalmalar bo‘lib, mustasne’ bandida ta’didni hosil qilishi asarning o‘ziga xos ohangdorlik kasb etishiga zamin hozirlagan. Ushbu bandning o‘ziyoq shoiraning istiora va tansiq-us-sifotdan mahorat bilan foydalana olishiga dalil bo‘la oladi.

Mustasne’ning keyingi bandida vasf etiluvchi obraz bilan lirik qahramonning suyukli mahbubi ekanligi badiiy talqinida ham istioralashtirilgan tansiq us-sifotlardan foydalaniлади:

Ey dilbari dildori man,
Ey ma’dani asrori man,
Ey munis-u g‘amxori man,
Dar du jahon tu yori man,
Benigar ba holi zori man,
Ey voqifi asrori man,
Ey sayyidi asrori man,
Ey Ahmadi Muxtori man,

Namat Muhammad Mustafo [1977, 26^a-26^b varaq].

Ushbu bandda ham «Ey» undovi she’rxon yoki tinglovchini shoira fikrlariga diqqatni qaratish vazifasida to‘rt marta qo‘llangan. Undagi istioralashgan sifatlarga I shaxs birlikdagi egalik qo‘srimchasi yordamida lirik qahramonga yaqinlik ma’nosi badiiy talqin etilgan. «*Dildorimning dilbari*», «*Sirlarimning ma’dani*», «*Mening g‘amxo‘ri munisim*», «*Sirlarimning voqifi*» singari sifatlarning istioralashuvi dastlabki banddag'i tasvir va ohangdorlikni badiiy rivojlantirilishiga omil bo‘lgan. Shoiraning «In ummatoni xeshro rahmi bekun, ey sarvi bog‘...» misrasi bilan boshlanuvchi 9 baytli g‘azalida istiorai izofiyining radif sifatida qo‘llanganligi ham diqqatni vasf etiluvchi obrazga qaratishi nuqtai nazaridan e’tiborlidir:

In ummatoni xeshro rahmi bekun, ey sarvi bog‘,

In osiyoni xeshro rahmi bekun, ey sarvi bog‘ [1962, 34^a varaq]

Mazmuni: Ey bog‘ning sarvi, yaqin ummatlaringga rahm etgil, Ey bog‘ning sarvi, gunohkor yaqinlaringga rahm etgil.

Baytdagi «sarvi bog» so‘zi o‘z ma’nosida qo‘llanilayotgani yo‘q, ya’ni shoira «sarvi bog» so‘zini Muhammad (a.s.)ning istioralashgan obrazi ma’nosida qo‘llaganini anglash mumkin. Bu istioraning muhim jihat shundaki, undagi «bog» – har ikki olamni, «sarv» esa doimo yashnab turuvchi, salobati bilan alohidilik kasb etuvchi Muhammad (a.s.)ni eslatadi. Dunyoda nabiylar soni mingdan oshiq ekanligi aytib o‘tiladi. Undagi sarv esa yagonaligi bilan ajralib turadi. Yuqorida tahlilda tortilgan mustasne’ o‘ziga xos ta’kid ohangining ustuvorligi bilan ajralib turadi. Bunday ohangni shoira istioralashgan tansiq us-sifotlar bilan bir qatorda tashbehi mo‘kad – ta’kidlangan tashbih bilan ham hosil qiladi. Bunda o‘xhatish vositalari (yordamchi so‘zlar –dek qo‘shimchasi) ishlatilmaydi, balki o‘xhatilgan va o‘xshagan narsa hukmu mahkum (ega+ot-kesim) tarzida keladi⁷⁰:

Mahbubi on Subhon tuyi,
On lola-yu rayhon tuyi,
On bulbuli xushxon tuyi,
Ham bog‘-u ham bo‘ston tuyi,
On jannati ixvon tuyi,
*Ham hur-u ham g‘ilmon tuyi*⁷¹,
Payg‘ambari moyon tuyi,
Ey munis-u jonon tuyi,
Ey podshohi lo fato⁷² [1977, 26^b-27^a varaq].

Bandda qo‘llangan tashbihi mo‘kadlarda o‘xhatilgan bir necha bo‘lib, ularga o‘xshagan sifatida Payg‘ambar (a.s.) nazarda tutilgan «sen» olmoshi keltirilgan. Shoira tashbehi mo‘kad sifatida quyidagi o‘xhatishlarni Muhammad (a.s.) nisbatan qo‘llaydi: U Subhonning mahbubi – sen, U lola-yu rayhon – sen, U xushxon bulbul – sen, Ham bog‘-u, ham bo‘ston – sen. U jannatning suyanchig‘i – sen. Ham hur-u, ham g‘ilmon –sen.

Kuzatishlardan ayon bo‘ladiki, istiora, tashbih va tansiq us-sifot singari badiiy tasvir vositalari eng ko‘p qo‘llanuvchi ma’naviy san’atlar guruhiga mansub bo‘lib, ulardan badiiy kashfiyotlar yaratish ijodkordan favqulotda topqirlikni talab etadi. Shoiraning yetti baytli «Kard moro» («Qildi bizni») radifli g‘azalidagi «Ki so‘zi otashi ishq» («Ishq otashida kuyish») va «Ki anvori jamolash» («Jamolining nurlari») yopiq yoki istiorayi izofiy deb ataluvchi istioralar Muslihabegimga lirik

⁷⁰ Исҳоков Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: “Зарқалам”. –Б 88.

⁷¹ Бу икки мисра бошқа нусхаларда йўқ.

⁷² Ло фато илло Али ло сайфа илло зулфиқор. – Алидек йигит бўлмас, зулфиқордек килич бўлмас.

qahramonning holini ifodalash imkonini yaratadi, an'anaviy adabiy qahramonlarni lirik qahramon yoki oshiqlarga qiyoslab, talmehdan tashbih hosil qilish uslubi shoira g'azallarida keng qo'llaniladi va shu asosda u g'azaldagi ilohiy mazhar – Muhammad alahis-salom vositasida ilohiy ishq badiiy tasvirlashga muvaffaq bo'ladi. Ijodkorning «Dargohingga bir ojiz-u nolon keladurman» satri bilan boshlanuvchi g'azalida tansiq ussifotlarning qofiya vazifasida ham qo'llangani ularning ta'sir kuchini yanada oshirilishiga bois bo'ladi.

Shoiraning Muhammad (a.s.)ga munosib ko'rilgan o'nga yaqin sifatlarining istioralashtirilgan holda qo'llanishi («*Ey dilbaronro dilbari, Ey sarvaronro sarvari, Ey gumrahonro rahbari, Har jumlagi toji sari*») va ularning bari undalmalar bo'lib, mustasne' bandida ta'didni hosil qilishi, shunday ohangdorlik tashbihi mo'kadlar (*Mahbubi on Subhon tuyi, On lola-yu rayhon tuyi, On bulbuli xushxon tuyi, Ham bog'-u, ham bo'ston tuyi*) vositasida ham vujudga keltirilishi uning muhim adabiy mahorati sifatida ko'zga tashlanadi.

3.2. Miskin she'riyatida ta'did, so'z takroriga asoslangan badiiy san'atlar va musajja' g'azallar

Ta'did haqidagi ma'lumotlar mumtoz poetika haqidagi manbalarning ko'plarida uchraydi. Ushbu atama yana bir qancha nomlar bilan yuritiladi: ta'zil, shumur, siyoqat-ul a'dod, e'dod, te'dod. Bu usulning go'zal namunalarini ijodkorlarning deyarli barchasida uchratish mumkin. Atoullo Husayniyning «Funun ul balog'a» asarida ta'did san'ati «tazyil» deb nomlangan bo'lib, unga shunday ta'rif berilgan: «... ul andin iboratkim, kalom tugatilgach, o'ziga mustaqil, ya'ni oldingi kalomning qaydi bo'limgan bir jumla zikr etilurkim, bu jumla ul kalomdag'i tushunchani ta'kidlamak yoki mundarijani ta'kidlamak ma'nosiga ega bo'lur».⁷³ Ta'didning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u fikriy rivojni, ketma-ketlikni, tadrijiylikni vujudga keltiradi. Har qanday badiiy-tasviriy vositalar singari ta'did ham shoirning poetik maqsadi, asarning g'oyaviy-badiiy mazmuni bilan chambarchas aloqaga kirishadi.

Shoira Miskinning «Ey xudovando, az lutf rahm kun bar holi mo» [972/1,27^b varaq], «Yo iloho, rahm kun bar holi zori in g'arib» [972/1,36^b varaq], Hayf umri odami dar in jahon bejo guzasht[972/1,39^b varaq], «Darig'(o), sarvari olam az in diyor guzasht[972/1,41^b varaq], «Man osiy-

⁷³ Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъ-с-саноиъ. – Тошкент: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. . – Б 160.

u pur gunoham, rahme bekun zi lutfat[972/1,41^b varaq], «Ey podshohi du jahon, doram umid az rahmatat[972/1, 42^a varaq], «Yo Muhammad, yak nazar mekun ki vaqt shafqat ast» [972/1, 42^b varaq], «Har zamon bego‘yam man jon fidoyi tu Ahmad», [972/1, 55^b varaq], «Ajib hayron-u mast-u bexudam az ishq on diydor[972/1, 42^b varaq], «Umr oxir shud baroyi nafsi shayton, hayf, hayf» [972/1, 69^a varaq] satrlari bilan boshlanuvchi nazm namunalarida ta’didning ajoyib namunalari uchraydi.

«Yo iloho, rahm kun bar holi zori in g‘arib» [972/1,27^b varaq] satrlari bilan boshlanuvchi g‘azalida Miskin o‘zining badiiy niyatini ta’kidlash uchun ta’diddan foydalanadi:

Yo iloho, rahm kun bar holi zori in g‘arib,

Dardmandonro buvad lutf tu chun haziq tabib.

Mazmuni: Yo Alloh, bizning g‘arib holimizga rahm qilgin. Dardmandlarga hoziq-u tabib bo‘lgan.

Ojiz-u darmonda hastam, zaif-u notavon,

Tu shafoatxohiyi mo kun ro‘zi mahshar, ey Habib.

Mazmuni:ojiz-u qiyin ahvolda qolgan zaif-u notavonman. Ey Habib, mahshar kuni bizga shafoat qilgilib.

G‘ayri diydorat nadoram dar jahon digar talab,

Ro‘zi mahshar partavi diydori xudro kun nasib.

Mazmuni:Seni diydoringni ko‘rishdan boshqa talabim yo‘q. Mahshar kuni partavi diydoring shu’lasini bizga nasib aylagil.

Pur gunahkoroni xud rahmat namoy, (ey) Xoliqo,

Osiyon xeshro bar rahmati xud kun qarib.

Mazmuni: Ey Xoliq, ko‘p gunohkorlarga o‘zing rahmat ko‘rsat. Osiylar, yaqinlarga rahmatingni yog‘dir.

Xoliqo, parvardigoro, podshohi ins-u jonn,

Rahm kun az lutfi xud bar holi in Miskin g‘arib.

Mazmuni: Xoliq, parvardigoro, ins-u jonning ummati, lutfing bilan g‘arib Miskin holiga rahm qil.

G‘azalning 2-baytidagi ojiz, darmonda, zaif, notavon, 6-baytidagi Xoliqo, parvardigoro, podshohi ins-u jon so‘zlarida sanoq ohangi seziladi. Bu esa g‘azalga alohida ta’sirchanlik bag‘ishlaydi. Hozirgi misolimizda ham bu holat takrorlanadi:

Man osiy-u pur gunoham, rahme bekun zi lutfat,

Noma shuda siyoham, rahme bekun zi lutfat.

Mazmuni: Men osiyman, gunohim ko‘p, lutfing bilan rahm qil. Nomim qora bo‘ldi, lutfing bilan rahm qil.

Tu Xoliqi jahoniy, g‘amxori bandagoniy,

Xalloqi insu jonniy rahme bekun zi lutfat.

Mazmuni: Sen jahoning Xoliqi, bandalarning g‘amxo‘ri, ins-u jonning yaratuvchisi, lutfing ila rahm qil.

Xalloqi jumla olam, rahme bekun ba holam,

Az so‘zi ishqisi nolam, rahme bekun zi lutfat.

Mazmuni: Jumla olamning xudosi, lutfing ila rahm qil. Ishq so‘zidan nola qilaman, lutfing ila rahm qil.

Hastam g‘arib-u Miskin, az lutf holi mo bin,

Yo rab, ba haqqi Yosin, rahme bekun zi lutfat

Mazmuni: Xasta , g‘arib Miskinman, lutf qilib holimizni ko‘r. Yo xudo, Yosin haqqi lutfing ila rahm qil.

G’azal 1-baytidagi Xoliqi jahoniy, g‘amxori bandagoniy,

Xalloq, ins-u jon so‘zlari orqali Ollohogha murojaat etib, ta‘did san’atining ajoyib namunasi yaratilgan.

«Jonho fidoyi nomat, yo Mustafo Muhammad» [1277,¹⁸ varaq] misralari bilan boshlanuvchi 36 bandli muxammasning 22-bandidagi *hayron, zor, sarson, ko ‘h, dasht* so‘zlari ta‘didni vujudga keltirgan:

Az furqati tu, jono, hastam zor-u mahzun,

Hayron-u zo-ru sarson gashtam misoli Majnun,

Dar *ko ‘h-u dasht* nolon bo diydahoyi purxun,

Sozam ravon zi diyda ey ashk misli Jayhun,

Gardam chunon gadoyat, yo Mustafo Muhammad

Mazmuni: Ey jono, sening furqatingda zor-u mahzunman, Majnun misoli hayron-u zor-u sarson yurdim. Tog‘-u dashtda ko‘zlarim qonga to‘lib nola qildim. Misli Jayhundek ko‘zlarimda yosh. Yo Muhammad Mustafo, gadoying bo‘lsam.

Keltirilgan iqtibosda lirik qahramon Muhammad payg‘ambar hajrida o‘zini hayron, zor, sarson ekanligini, tog‘-u dashtda Majnun misoli nolon bo‘lganligini ketma-ket sanab, ta‘did san’ati orqali g‘azalning g‘oyaviy-badiiy mazmunini yanada boyitgan.

Demak, ta‘did grammatik o‘zaro bog‘lanishlarning bir xil turidan ketma-ket foydalanish orqali hosil bo‘ladi.

Sharq poetikasida so‘zlar takroriga asoslangan bir qancha san’atlar mavjudki, ular ko‘pincha badiiy ta’sirchanlikning, g‘oyaviy baquvvatlikning muhim sharti hisoblangan. Rashididdin Vatvot e’tirof etganidek, badiiy san’atlar ichida eng mumtoz va maqbul hisoblangan bu usul mumtoz poetikaga doir asarlarning aksariyatida «raddul-ajuz il-as-sadr», ba’zilarida «mutobiqa», ayrimlarida esa tasdir deb atalgan.⁷⁴ So‘z

⁷⁴ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам.2006. –Б.100.

takroriga asoslangan badiiy san'atlarning eng muhimlari tasdir, tasbe, mukarrar, takrir, tardi aks, rad san'atlaridir.

Qaytarish san'atining o‘zbek adabiyotidagi ko‘rinishlarini o‘rgangan adabiyotshunos olim Yo.Ishoqov bu san’at tarmoqlarining ellikdan ortishini ta’kidlaydi. Olimning «So‘z san’at so‘zligi» kitobida mumtoz poetikada baytning boshi sadr, oxiri ajuz yoki zARB, birinchi misraning oxiri aruz, ikkinchi misraning boshi ibtido va har ikki misraning o‘rtasi (sadr bilan aruzning, ibtido bilan ajuzning) hashv deyilishi haqida ma’lumot berilgan⁷⁵.

Muslihabegim Miskin she’riyatida ham so‘z takroriga asoslangan badiiy san’atlar salmoqli o‘rinni tashkil etadi. Shunday san’atlardan biri takrirdir. Bu san’at takror va mukarrar deb ham yuritiladi.⁷⁶ Shoiraning 1962-raqamli devonining 18^b varag‘idagi «Doimo dil darbadar, chun murg‘ nolon meshavad» misralari bilan boshlanuvchi g‘azalida bu san’at namunasi berilgan:

Doimo dil darbadar, chun murg‘ nolon meshavad,
Bar charog‘i du labi man shu’la pinhon meshavad.

Mazmuni: Dil hamisha darbadar, nolon qushdek bo‘ladi. Iffi labim chirog‘ida shu’la pinhon bo‘ladi.

Gufta budam xesh az g‘ussa sarun ovaram,
Kashta-kashta g‘am maro albatta mehmon meshavad.

Mazmuni: Yaqnim, senga boshimga g‘ussa kelganini aytgandim. G‘am menga qayta-qayta, albatta, mehmon bo‘ladi.

Ey ki, savdoi siyna baxsho shud **dard** az saram,
Dard-u g‘am doim maro har dame mehmon meshavad.

Mazmuni: Eyki, qalb savdosi boshimdan ketdi. Dard-u g‘am doim menga mehmon bo‘ladi.

Tole‘i sho‘rida az baxti sargardoni **man**,
Xotiri majmui **man** doim parishon meshavad.

Mazmuni: Toleyi sho‘rligim mening baxti sargardonimdir. Xotiram ham hamisha parishon bo‘ladi.

Nestam forig‘ dame hargiz girdobi alam,
Oftobi g‘am maro har lahza so‘zon meshavad.

Mazmuni: Hargiz alam girdobidan forig‘ emasman, g‘am oftobi har lahza meni kuydiradi.

Gashtaast ulfati man dard-u g‘am-u g‘ussa mudom,

⁷⁵ Ўша китоб. – Б.100.

⁷⁶ Рустамов А. Алишернинг бадиий маҳорати. – Тошкент: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.1979. – Б.49

Gashtha g‘am noloni g‘am bar man du chandon meshavad.

Mazmuni: *Dard-u g‘am-u g‘ussa men bilan ulfat bo‘lib yuribdi, bu g‘am qaytaga menga ikki barobar bo‘lib qaytmoqda.*

Inchunin **taqdiri** Haq budaast az ro‘zi azal,

Har nek-u bad **taqdir** az Rahmon meshavad.

Mazmuni: Azaldan bu Haqning taqdiri ekan, har qayday yaxshiyomon taqdir Rahmondan ekan.

Baytda takrorlangan kashta-kashta, gashtaast gashta, taqdiri taqdiri so‘zlari takrorga asoslangan she’riy san’atlarning mukarrar turiga mansub. G’azalda qaytariq san’atidan tashqari tashbih (tolei sho‘rida, baxti sargardon, chun murg‘ nolon) hamda ta’did (dard-u g‘am-u g‘ussa) san’atlari ham mavjud.

Mudom musibatlar iskanjasida yurgan shoira o‘z hayotini nazmiy baytlariga ham ko‘chirarkan, anduh uning mehmoni bo‘lib, tez-tez ziyorat qilishini ta’kidlaydi. Endi bir tashvishdan xalos bo‘ldim deb turganida, hali u nihoyasiga yetmay turib, navbatdagi musibat peshvoz chiqishini o‘ksinib bildiradi. Ochig‘i, ijodkorning hayotidagi voqe’liklar bunga ko‘plab dalillar keltiradi, xususan, dastavval, bir farzandining vafoti natijasida qora kunlarni boshidan kechirgan ona timsolida ko‘z oldimizga kelarkan, oradan ko‘p o‘tmay, ikkinchi farzandining ham dog‘ida kuyadi. Ijodkorni mudom ta’qib etgan dard, albatta, Allohga bo‘lgan muhabbatidan ham yaralishini ta’kidlab o‘tish zarur. Zero, ko‘pgina g‘azallarida shoira o‘zining gunohkor ekanligini, Mahshar kunida Tangri va uning rasulidan panoh hamda shafqat tilashi juda ko‘p o‘rinlarda tilga olinadi. Muslihabegim tanlagan «Miskin» taxallusi ham uning choraszizligiga ishora bo‘lib, uqubatlar ichida yashashga mahkumligini namoyot etadigandek go‘yo. Muslihabegim Miskin g‘am va anduh hamrohligiga shu qadar ko‘nikadiki, hatto uni «ulfat» deb ham nomlaydi. Yolg‘izlik va ayriliqlar girdobida yashash shart-sharoiti natijasida shoira faqatgina sitamlar bilan mudom to‘qnashadi, o‘z hayotida g‘amga oshno bo‘lganligini o‘z misralarida qalamga oladi. Islomiy qadriyatlar hamda bilimlarni yetarlicha o‘zlashtirgan shoira Allohnинг mavjudligiga, uning har bir insonga tayin etgan taqdiri bor ekanligiga iymon keltirarkan, Muslihabegim o‘zining uqubatlar bilan mudom yo‘li kesishishi sababini ham aynan taqdir yozig‘iga yo‘yadi.

Yuqorida tahlilga tortilgan g‘azalda qaytarish san’atining quyidagi ko‘rinishlari uchraydi:

1. ***Raddul-hashv il-al ibtido***(birinchi misra hashvidagi so‘zning ibtido sifatida takror kelishi):

Ey ki savdoyi siyna baxsho shud *dard* az saram,
Dard-u g‘am doim maro har dame marovi meshavad.

Radd-uc-sadr il-al ibtido(*bayt boshidagi so‘zning ikkinchi misra boshida kelishi*):

Gashtaast ulfati man dard-u g‘am-u g‘ussa mudom,
Gashta g‘am noloni g‘am bar man du chandon meshavad .

Raddul-hashv il-al hashv (*birinchi misra o‘rtasidagi so‘zning keyingi misra ichida qaytarilishi*):

Inchunin *taqdiri* Haq budaast az ro‘zi azal,
Har nek-u bad *taqdir* az Rahmon meshavad.

Shoira mazkur g‘azalida mukarrar va qaytarish san’atining uch turidan samarali foydalanib, o‘zining noyob iste’dod sohibasi ekanligini yana bir karra namoyon etgan.

Muslihabegin ijodida ko‘proq qaytarish san’atining raddul-hashv il-al hashv (birinchi misra o‘rtasidagi so‘zning keyingi misra ichida qaytarilishi), **radd-uc-sadr il-al ibtido**(*bayt boshidagi so‘zning ikkinchi misra boshida kelishi*) turlarini kuzatish mumkin. Miskinning Muhammad payg‘ambarga bag‘ishlangan «Bulbul ba bo‘ston shuda nolon Muhammad» satrlari bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azalidagi quyidagi bayt bunga misol bo‘ladi:

Az partavi husnash *hama* mast chu bexud,
Sozand fido jon *hama* yoron Muhammad. [1962,67^a varaq]

Mazmuni: Husning shu’lasidan barcha mastu hushdan ayrilgan, barcha yoronlar jonlarin fido qilgaylar Muhammad.

Ey partavi diydori *hama* gashta asirem,
Dorem ki bar dili *hama* g‘avg‘oyi Muhammad. [1962,67^a varaq]

Mazmuni: Diyordi yog‘dusidan barcha asiri Muhammadning, hamma azoblari qalblarimizda Muhammadning.

Muslihabegin Miskinning «Ba dunyo posboni kun agar dinori mehohi» [972/1,20^b varaq], «Dar bayoni piri duo salom gufta Miskin» [972/1,22^a varaq], «Doram az dardi firoqat man hamisha nolaho» [972/1,26^b varaq], «Ki so‘zi otashi ishqil chunon devona kard moro» [972/1,28^a varaq], «Shudam devona-yu shaydo az ishqil o‘ man rasvo» [972/1,28^a varaq], «Shaydo shudaam az g‘amat, ey shohi shahanshoh» [972/1,30^a varaq], «Andar in dunyo nadorad odami hargiz vafo» [972/1,31^b varaq], «Go‘ on shohi payg‘ambar, go‘ rahbari «av adno» [972/1,32^a varaq], «Ey osiyon, ey osiyon, al lutf-u ehson sozamat» [972/1,44^b varaq], «Yo Muhammad Mustafo, doram umid az shafqatat» [972/1, 45^a varaq], «Dilamro sayqali oina gardon» [1277, 4^b varaq],

«Bedeht begir dasti moro ey Qodiro, az lutfi xud imro‘z» [1277, 4^b varaq], «Agar mard rahi az ishqil rabbon, har sahar barhez» [1277, 9^b varaq], «Dar in jahoni fano doimo ba toat ko‘sh» [1277, 12^a varaq], «Andar in dunyoyi foni, odami, moyil mabosh» [1277, 12b^b varaq], «Az jahoni bevafo sozam ba jonon ixtilot» [1277, 15^b varaq],» In ummatoni xeshro rahmi bekun, ey sarvi bog‘» [1277, 4^b varaq] satrlari bilan boshlanuvchi g‘azallarida so‘z takroriga asoslangan badiiy san’at namunalari ko‘plab uchraydi. So‘z takroriga asoslangan badiiy san’atlar ilgari surilayotgan fikrning ta’sirchanligini oshiradi.

Musajja’ arabcha so‘zdan olingen bo‘lib, «saj’li», «qofiyali» degan ma’nolarni bildiradi. Musajja’ san’ati asosida yozilgan baytlar bir-biri bilan hajman teng bo‘lgan to‘rt bo‘lakka bo‘linib, birinchi, ikkinchi, uchinchi bo‘laklar o‘zaro qofiyadosh, to‘rtinchi bo‘lak esa asosiyligi bilan ohangdosh bo‘ladi. Musajja’ san’ati baytga o‘ziga xos ohang, musiqiylik baxsh etadi. Navoiy, Bobur, Mashrab, Furqat kabi mumtoz shoirlar ijodida musajja’ san’atining ko‘plab go‘zal namunalari uchray.⁷⁷ Adabiyotshunos Yo.Ishoqov «So‘z san’ati so‘zligi»da Navoiyning o‘zbek tilidagi g‘azallari orasida yigirmatacha musajja’ g‘azallar mavjud bo‘lib, shulardan to‘rt g‘azal shoir ijodining ilk davriga, sakkiztasi yigitlik va yettitasi keksalik paytiga to‘g‘ri kelishi haqida ma’lumot beradi.⁷⁸

O.Nosirovning «O‘zbek klassik she’riyati janrlari» kitobida g‘azalning bu turi shoirdan katta mahorat talab qilishi, shoir umumiyligi qofiyadan tashqari ichki qofiyaning ham mukammalligiga erishishi kerakligi aytilgan.

Muslihabegim ijodida musajja’ usulida yozilgan g‘azallar uchraydi. Bu san’atning o‘ziga xos go‘zal namunalari shoira nazmiyatini bezaydi. Ma’lumki, musajja’ g‘azallar odatda qofiyalanish usuliga ko‘ra ikki xil bo‘lgan. Shoiraning musajja’ g‘azallarida ham shu tartibga amal qilinadi:

Zi ishqil shahil barno devona shudam ***shaydo***,
Majnun sifat az ishqash raftam ba ***biyobonho***.
Layli zi *firoqi* o‘ doim ba *so‘rog‘i* o‘,
Hastam ba *dog‘i* u devona shuda ***shaydo***.
Man zor dil *afgoram* az ishqil tu *bemoram*,
Bo diydayi *xun boram* az ishqil tu man ***rasvo***.
Az ishqil tu *menolam*, ey podshohi *olam*,
Benigar tu ba *ahvolam* az lutf dar on ***fardo***.

⁷⁷ Курунов Д. Адабиётшунослик лугати. . – Тошкент: Академнашр.2010.. – Б.192

⁷⁸ Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983.– Б.39

Bo diyda chunon pur xun dil gashta chunon ham chun,
 Gashta hamagi mahzun az ishq tu, ey **shoho**.
 Mekun tu, ayo Ahmad, dar ro‘zi jazo shafqat,
 Go‘y tu maro: «Ummat», ey shoh dar on **fardo**.
 Ey podshohi xubon payg‘ambaronash jon,
 Gashtam zi g‘amat nolon rahmi tu bekun **moro**.
 Sargashta-yu hayronam az ishq tu nolonam,
 Hayron-u parishonam, ey podshohi **barno**.
 Miskin ba jamoli tu visoli tu,
 Doim ba so‘rog‘i tu devona shuda **shaydo**. [1962, 28^b-29^a varaq]

Mazmuni: Shohi barno ishqida devona shaydo bo‘ldim, uning ishqidan Majnunsifat biyobonlarga bordim. Layli uning firoqida, doimo so‘rog‘ida, uning dog‘ida devona shaydo bo‘ldim. Sening ishqingda dilim yaralangan, bemorman, qonli ko‘z yosh to‘kuvchi rasvoman. Ey podshohi olam, sening ishqingdan shikoyat qilaman, indin(qiyomat kuni) lutfing ila axvolimga qara. Ko‘zlarim ham, yuragim shunchalik to‘la qon, Ey shoh, hamma sening ishqingda mahzun. Ey Ahmad, jazo kuni shafqat qil, indin kuni bizni «ummatim» degin. Ey podshohlarning yaxshisi, jonlarning payg‘ambari, Sening g‘amingda nolon yurdim, sen bizlarga rahm qil. Sening ishqinga nolonman, sargashtayu hayronman, ey shohi barno, hayronu parishonman.

Ko‘rinadiki, birinchi usuldagi qofiyalanish tartibidagi bunday g‘azallarda matla’ ichki qofiyali bo‘lmaydi, faqat misralargina o‘zaro qofiyalanadi. G‘azalning ikkinchi va undan keyingi hamma baytlarida *firoqi*, *so‘rog‘i*, *dog‘i*, *afgoram*, *bemoram*, *xunboram*, *menolam*, *ahvolam*, *chunon*, *chunon*, *mahzun*, *Ahmad*, *shafqat*, *ummat*, *xubon*, *jon*, *nolon*, *hayronam*, *nolonam*, *parishonam*, *jamoli*, *visoli* *so‘rog‘i* so‘zları g‘azal baytlarini teng to‘rt qismga bo‘lib, o‘zaro ichki qofiyani hosil qilgan.

G‘azali musajja’ning ikkinchi xili shoira Miskinda quyidagicha qofiyalanadi:

Partavi husni tu axir **jumlaro** devona kard,
 Oqibat az beqarori bar dar **in jo** na kard.
 Ey hamon nuri tajalloro **namo** bar osiyon,
 Ishqi on diydori tu **jumlaro** devona kard.
 Oshiqon zi hajri ishqat devonaand.
 Az g‘ami diydori tu oxir bahri **vayrona** kard.
 Gesuvoni mushkbo‘yat dar du olam, yo nabiy,
 Ro‘zi hashr az xalqi jumlaro **begona** kard.
 Miskin bechora umidi az shafqatat doram,

Ishqi diydori tu oxir **jumlaro** devona kard. (1962.110)

Mazmuni: Sening husning shu'lasi hammani devona qildi, beqarorligidan oqibat qilmadi. Biz osiylaringga tajallo nurlarini ko'rsat, sening ishqing diydori hammani devona qildi, Oshiqlaring ishqingda devonadirlar, diydori g'aming oxir daryoni ham vayrona qildi. Yo nabiy, ikki olamda xushbo'y sochlaring Qiyomat kuni barcha xalqni begona qildi. Miskini bechora sening shafqatingga umidvor, diydoring ishqি barchani oxir devona qildi.

Keltirilgan iqtibosda musajja' g'azal qofiyalanishining ikkinchi usulini, ya'ni baytlar bir qismga bo'linganini kuzatish mumkin. Baytlardagi husni, beqarori, nuri, diydori, hajri, diydori, xalqi, umidi, diydori so'zleri ichki qofiyani hosil qilgan.

Shoiraning «Shudam devona-yu shaydo az ishqи o' man rasvo» («Uning ishqida devonayu shaydo, rasvo bo'ldim») satri bilan boshlanuvchi 11 baytli musajja' g'azalida payg'ambarimiz sifatlari vasf etilgan etilgan bo'lib, ijodkor nazarida, Muhammad alayhissalomning o'z ummatlariga mehribon, shafoatli ekanligining o'ziyoq u kishining yuksak ehtirom ko'rsatishga, sevib ardoqlashga loyiqligidan darak beradi. Shu bois shoira ushbu mavzuda bitilgan g'azallarida Alloh rasuliga bo'lgan so'nmas ishqini, qiyomat kunida u zot bilan diydorlashish baxtiga muyassar bo'lishdek ezgu orzusini ehtirosli bitilgan baytlari bag'riga singdiradi:

Agar binam jamoli o', jamoli bo kamoli o',

Kunam jonro fidoyi o' ba yodi qomati zebo.

Dilam az nuri diydotat munavvar kun ba ruxsorat,

Az on la'li shakari borat ba moyon yak suxan farmo.

Shafoat kun tu dar mahshar hamagi ummaton yaksar,

Dahbedash ob az Kavsar dar on ro'zi jazo moro.

Man Miskini gunahkoram mudom bo nola zoram,

Ki bar mushtoqi diydoram shafoat kun dar on fardo [972/1, 26^a

varaq]

Mazmuni: Uning jamolini, jamoli-la kamolini ko'rsam. O'shal qomati zeboning yodi uchun jonimni fido qilsam. Diydoring nuridan, ruxsoringdan dilimni munavvar qil. O'shal shakar yog'diruvchi la'lingdan biz tomonga buyruq mazmunida so'z ayt. Mahshar kunida ummatlarning bariga birdan shafoat ko'rsat. Qiyomat kunida bizni kavsar suvidan bahramand et. Men doimo nola-yu zor etuvchi gunohkor Miskinman, diydoringni ko'rishga mushtoqman, erta qiyomat kuni menga ham shafoat qil.

Boshdan oxir musajja', ichki qofiya uslubida ijod etilgan ushbu g'azal o'ziga xos ohangdorligi bilan o'quvchiga ko'tarinki ruh bag'ishlaydi. Ko'chirilgan iqtibosdagi jamoli, kamoli, fidoyi; diydorat, ruxsorat, shakari borat; mahshar, yaksar, Kavsar; gunohkoram, nola zoram, diydoram so'zları g'azal baytlarini teng to'rt qismga bo'lib, o'zaro ichki ohangdorlikni paydo qilgan. Ana shu ohangdorlik g'azal jozibadorligini oshirgan. Ayni choqda pok, ma'naviy muhabbat mavzusida bitilgan ushbu baytlar she'rxon ko'nglini qalbi ishqqa to'la ijodkorning eng ezgu tilaklari bilan oshno etadi. Shoiraning dilidagi orzular ham bevosita uning e'tiqodiy qarashlari zamirida shakllangan. Tasavvufning nazariy asoslarini ishlab chiqqan alloma Abu Homid G'azzoliyning «Mukoshafat ul-qulub» asarida quyidagi hadisi sharif keltiriladi: «Kim mening axloqimni ihyo etsa (takrorlasa, tiklasa) meni sevgani shudir. Kim meni sevsə, qiyomat kuni jannatga men bilan birgadir»⁷⁹. Ayonlashadiki, Muslihabegim Miskinning bu ezgu orzulari, ijodkorning e'tiqodiy qarashlariga ko'ra, ma'naviy barkamollik hosilasi sifatida voqe'likka aylanadi. U payg'ambar alayhis-salom jamolini ko'rish istagini badiiy tasvirlaganda, avvalo, bu tilakni tilga keltirishga o'zi qanchalik haqli ekanligi xususida mulohaza yuritadi. Shu bois o'sha qomati zeboni xayoliga gavdalantirish uchun jonini fido qilishga tayyor ekanligini yuksak ehtiros bilan badiiy ifoda etadi. Biroq o'sha o'tli hayajon ko'ngildagi istaklarga badiiy libos kiydirishga undashda davom etadi. Shu bois shoira g'azalda vasf etilgan Alloh rasuli diydorining nuridan ko'ngli munavvar bo'lishini g'oyatda xohlayotganini, shakar yog'diruvchi la'llardan biror so'z eshitish orzusi bilan ishq otashida yonayotganini yuksak pardalarda badiylashtiradi. Keyinchalik esa payg'ambarimizning shafoatli ekanligiga e'tibor qaratiladi. Ummatlarning barchasi Muhammad alayhis-salomning bunday ehsonidan bahramand bo'lish istagi bilan yashashini ko'nglidan o'tkazgan shoira Mahshar kunida ularning bariga birvarakayiga shafoat ko'rsatishini va buning natijasida jannatdagi Kavsar hovuzining suvidan hammalari bahramand bo'lishlarini u zotdan o'tinib so'raydi. Qur'oni karim «Kavsar» surasining ilk oyati karimasida: «(Ey Muhammad), albatta, Biz sizga Kavsarni ato etdik»⁸⁰, - deya marhamat qilinadi. Ilohiy kitobdagi ushbu oyatdan masalaga yondashadigan bo'lsak, shoiraning o'tinchlari zamirida Alloh taolo tomonidan payg'ambarimizga ato etilgan buyuk ne'mat- jannatdagi Kavsar hovuzi bo'yida u kishi bilan diyordi.

⁷⁹ Абу Ҳомид Ғаззолий. Мукошафат ул қулуб I. – Тошкент : Янги аср авлоди, 2004.– Б 53.

⁸⁰ Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Тошкент: Чўлпон, 1992. 654-бет.

ko‘rishish baxtiga ishora etilganligi ayonlashadi. G’azalning so‘nggi bayti o‘z-o‘zini malomat qilish ruhida ijod etilgan. Muallif dastlabki misrada doimo nola-yu zor etuvchi gunohkor Miskinman, deya taxallusini ham istilohiy, ham lug‘aviy ma’noda qo‘llaydi. O’zi bechora-yu benavo esa-da payg‘ambarimiz diydorlarini ko‘rishga mushtoqligini bayon etib, erta qiyomat kuni menga ham shafoat qiling, deya iltijo qiladi. Shoiraning bunday jo‘shqin baytlardan tarkib topgan va samimiyl muhabbat bilan yog‘dirilgan g‘azallari she’rxonga estetik zavq bag‘ishlashi bilan birga uning ko‘ngliga ezgulik urug‘larini sochishga beminnat xizmat qiladi.

Muslihabegim Miskin payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom hayot tarzlariga uyg‘un turmush kechirish, u kishining bani basharga o‘rnak bo‘luvchi yuksak axloqiy fazilatlarini namuna sifatida qabul qilish, hadislarini sevib-ardoqlash va o‘gitlariga qat’iy amal qilishni chinakam Haq oshig‘i bo‘lishning asosi sifatida qabul qiladi. Shu bois shoira devonlarida payg‘ambarimiz vasf etilgan g‘azallar ham tez-tez ko‘zga tashlanadi. Ijodkor nazarida Muhammad alayhissalomning o‘z ummatlariga mehribon, shafoatli ekanligining o‘ziyoq u kishining yuksak ehtirom ko‘rsatishga, sevib ardoqlashga loyiqligidan darak beradi.

Shoiraning «Shudam devona-yu shaydo az ishq o‘ man rasvo» [1962, 28^a varaq] satrlari bilan boshlanuvchi hamma baytlari to‘liq musajja’ asosida yozilgan 11 baytli, «Zi ishq shahid barno devona shudam shaydo» [1962, 28^b varaq]-matla’dan boshqa barcha baytlari musajja’ asosida yozilgan 10 baytli , «Oshiqonro dar jahon parvoyi chin yor nest» [1962, 41^a varaq]-barcha baytlari musajja’ asosida yozilgan 5 baytli», «Zi lutfi partavi husnash chunon mastona shud bois» [1962, 55^a varaq]-maqtadan boshqa barcha baytlari musajja’ asosida yozilgan 5 baytli, «Kani yak mehribon bar man ki pand-u holi zorman» - [1277, 18^b varaq]- barcha baytlari musajja’ usulida yozilgan 15 baytli g‘azallardan tarkib topgan, «Ba girdi ko‘yat ey moh, mastona mezanim charx» [1962, 57^a varaq] – faqat ikki qismga ajratiladigan 11 baytli g‘azal, «Dar in dunyo dun vobastagi kardan xato boshad» - ikki qismga ajratilgan 7 baytli g‘azal [1962, 69^a varaq], «Shudam devona-yu shaydo az ishq o‘ man rasvo» (shu nomdagagi ikkinchi g‘azal) satrlari bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azal ham musajja’ g‘azallar qatoriga kiradi:

Shudam devona-yu *shaydo az ishq o‘ man rasvo*,
Ayo ey shohi «*av adno*», nazar mekun ba holi *mo*.
Chu Layli man *afg‘onam* zi ishqat diyda *giryonam*,
Chu Majnun dar *biyobonam* shuda sho‘rida-yu rasvo.
Gadoyi ko‘yi o‘ *kardam*, justujo‘yi o‘ *kardam*,

Ba yodi ro‘yi o‘ har *dam* ki man oh-u afg‘onho.
 Fidoyi chashmi «*mo zog‘*» *ash* hama bulbul *dog‘ash*,
 Ba dil aftoda nest *dog‘ash* hama xalqi olamro.

Ba sar aftoda savdoyash shavam albatta rasvoyash,
 Ba yodi ro‘yi zeboyash kunam man oh-u afg‘onho.
 Chu bulbul dar fig‘on ovardam ro‘ dar guliston o‘,
 Qaddi sarvi ravoni u nazar sozam man az gulho.
 Shavam mast liqoyi o‘ ki bozam dar vafoyi o‘,
 Qaddi sarvi niholi o‘ agar binam shavam shaydo.
 Man Miskini gunahkoram mudom bo nola zoram,
 Ki bar mushtoqi diydoram shafoat kun dar on fardo. [1962, 28^a
 varaq]

Mazmuni: Men rasvo uning ishqida devona-yu shaydo bo‘ldim. Ey shoh «av-adno» bizning holimizga nazar solgin. Sening ishqingda Layli misol qayg‘udaman, ko‘zlarimda yosh. Majnundek biyobonlarda parishonman. Uning ko‘yida har dam og‘u afg‘ondaman. Uning savdosi boshimga tushib, albatta, rasvo bo‘lsam. Zebo yuzining yodiga oh-u afg‘on qilsam. Bulbuldek nola qilib, uning gulistoniga yuz burib, sarvi ravon qaddiga gullardan nazar solsam.

G’azalning 7 bayti ham to‘liq musajja’ usulida qofiyalangan. Baytdagi shaydo, rasvo, av adno, afg‘onam, giryonam, biyobonam, kardam, dam, mo-zog‘ash, dog‘ash, dog‘ash, savdoyash, rasvoyash, zeboyash, gulistoni, ravoni, liqoyi, vafoyi, niholi, mushtoqi so‘zları g‘azal baytlarini to‘rt qismga bo‘lib, ichki ohangdorlikni hosil qilgan.

Kuzatishlardan ayon bo‘ladiki, Muslihabegim Miskin g‘azal va unga bog‘liq bo‘lgan janrlarda ta‘did va so‘z takroriga asoslanuvchi badiiy san’atlardan fikrni ta‘kidlashda unumli foydalangan. lirik qahramon holining badiiy ifodasida ta‘did san’atining qo‘llanilishi unga ham fikrni ta‘kidlash, ham uni tadrijiy rivojlantirish imkonini hosil qilgan. Shoira ijodida o‘nga yaqin barcha baytlarning saj’li qofiyalanishidan, 6 ta matha’larigina to‘liq saj’li qofiyalanmay, qolgan baytlari saj’li qofiyalardan tarkib topgan g‘azallarning uchrashi uning qofiya san’atlaridan ham ustalik bilan foydalanganligidan dalolat beradi.

XULOSA

Muslihabegin Miskin she'riyati poetikasini o'rganish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. XIX asr Buxoro adabiy muhitida o'zbek va tojik tillarida ijod qilgan, Muslihabegin Miskin nomi bilan tanilgan, iste'dodli zullisonayn shoiraning mavjudligi nihoyatda noyob adabiy hodisa sanaladi. Ijodkorning «Miskin» taxallusi bilan yassaviyona motiv va ohanglarda she'rlar bitishiida uning XIX asrning birinchi yarmida Buxoroning Xiyobon mavzesida nasl-nasabi taqvodor eshonlarga borib taqaluvchi mullo Nurillo xonadonida tug'ilishi, taqdirining Buxoro amirlik darborida nihoyatda katta nufuzga ega bo'lган shayx Abdulvohid bilan bog'lanishi, shuningdek, katta o'g'li Husaynning 11 yoshida, kichigining 2-3 yasharligida, qizining ham balog'atga yetmay vafot etishi, shayx Abdulvohid qismatining boshqa ayol bilan bog'lanishi bois bo'lган. Miskin she'riyatida Xoja Ubon, ayniqsa, Og'oyi Buzurg – Qizbibi, naqshbandiy pirlaridan Boboi Samosiyga bag'ishlangan she'rlarning uchrashi uning e'tiqodiy qarashlari va ko'ngliga tasalli berish istagini samarasidir.

2. Muslihabegin Miskinning 1962-raqamli devoni shoiraning birmuncha mukammal devoni hisoblansa-da, qolgan ikki devoni ham uning adabiy merosining boshqalarida uchramaydigan namunalarini o'zida ifodalagan. Qiyosiy o'rganilganiga ko'ra, shoiraning 11 lirk janr va masnaviyda yozilgan she'riy hikoyatlari, jami 7882 misradan iborat 430 ta she'rdan iborat adabiy merosining bizgacha yetib kelgan. Uning uch yuzdan ortiq o'zbek, tojik tillarida, shuningdek, mulamma'da g'azallar, muxammaslar bitgani, mustazodda o'zini sinab ko'rgani, muxammas, musaddas, mustasne', muashshar, tarje'band singari lirk turning hajman katta janrlarida, shuningdek, ruboiy, o'ziga xos to'rt misradan tarkib topgan soqiynoma kabi kichik lirk janrlarda ijod etgani shoiraning Sharq mumtoz poetikasini teran o'rgangani va ularni badiiy ijodda mahorat bilan qo'llay olganidan dalolat beradi.

3. Muslihabegin Miskin she'riyatida Odam (a.s) va Havo, Ya'qub (a.s.), Yusuf (a.s.) va Zulayho, Ayub (a.s.), Muso (a.s), Dovud (a.s.), Iso (a.s.) va Maryam, Zikriyo(a.s), Ibrohim (a.s.), Muhammad (a.s.) singari payg'ambarlar va ular bilan eslanadigan qur'oniy qissa qahramonlari, Ibrohim Adham, G'av sul A'zam – Abduqodir Jeloni, Og'oyi Buzurg – Qizbibi, Boboi Samosiy kabi tariqat vakillari, xalifalardan: Abu Bakr, Umar, Usmon, Aliyi Murtazo, Payg'ambar (a.s.) ahli baytlaridan Oysha,

Fotima, Hasan, Husan, sahobalardan Ukosha, shuningdek, Vomiq, Uzro, Farhod, Shirin, Layli, Majnun singari an'anaviy adabiy qahramonlar hamda Munkar, Nakir, Jabroil, Azroil kabi farishtalar obrazlariga murojaat etiladi. Shoira she'riyatida lirk qahramondan tashqari yuqoridagi obrazlardan ijodiy foydalanishi uning qur'oniy qissalar, diniy afsonayu rivoyatlar va Sharq mumtoz adabiyotidagi a'anaviy syujetlardan nihoyatda yaxshi xabardorligidan dalolat beradi.

4. Muslihabegin Miskin she'riyatining assosini sidqan toat-ibodat talqini, Alloh va uning rasuliga nisbatan diydortalablik motivlari tashkil etadi. Shu bois u Muhammad (a.s.) obrazini she'riyatining lirk qahramonidan keyingi asosiy obraziga aylantiradi. Boshqa payg'ambarlar va ular bilan eslanadigan qur'oniy qissa qahramonlari, sahobayı kiromlar, Payg'ambar (a.s.) ahli baytlaridan Oysha, Fotima, Hasan, Husan, sahobalardan Ukkosha singari qahramonlar obrazlari Muhammad (s.a.v.) vasf etish va dunyoning o'tkinchilagini badiiy ifodalashda shoira uchun muhim poetik vazifani bajaradi.

5. Shoira she'riyatida Yusuf (a.s.) Muhammad (a.s.) obrazidan keyin eng ko'p murojaat etilgan payg'ambar obrazi sanaladi. Ya'qub (a.s.)ning o'g'lidan ayrilib, g'am uyida iztirob chekishi bilan shoira Yusufsifat farzandlaridan ayrilganligi orasida uyg'unlik ko'radi. Ana shunday badiiy lavhalar tasvirida shoira bu ikki payg'ambar obrazidan ijodiy foydalanadi. U o'rni bilan Vomiq, Uzro, Farhod, Shirin, Layli, Majnun singari an'anaviy adabiy qahramonlarga murojaat etib, Muhammad (s.a.v) va G'av sul a'zam – Abduqodir Jeloni, Og'oyi Buzurg – Qizbibi, Boboi Samosiy singari pirlarga bo'lgan ma'naviy muhabbatini badiiy lashtiradi.

6. Shoiraning o'ndan ortiq masnaviyda bitilgan she'riy hikoyatlarining aksariyatida Muhammad (s.a.v.) haqida hikoya qilinishi uni payg'ambarimizning go'zal xulqlar bilan ziynatlangan ulug' zot sifatida musulmonlarni doimo ezgu amallar sari undaganliklari, dunyo hoy-u havaslariga zarracha parvo qilmay faqirlikni faxr bilib yashaganliklari va sahobayı kiromlar ham har jihatdan u kishidan o'rnak olishga intilganliklari qiziqtirib qo'yganidan dalolat beradi. Shu bois shoira ana shunday mazmundagi rivoyatlarga nazmiy jilo berib, ularni keng targ'ib qilishga intilgan. «G'ornomayi rasul»da ifodalangan badiiy voqeylekning «*Yak hikoyat yod doram az rasuli insu jon*» satri bilan boshlanuvchi tojik tilida bitilgan hikoyatida ham badiiy talqin etilgani uning ana shunday adabiy niyatidan darak beradi.

7. Muslihabegin Miskinning she'riy hikoyatlar bitishdagi mahorati uning syujet badiiy talqinida kontrast holatning vujudga keltirishida,

xususan, bunday ziddiyatning avj nuqtasini mahorat bilan hosil qila olishida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, kutilmagan yechimni keltirib chiqarish, buning uchun qahramonlar muloqotidagi ziddiyatli holatlarning o‘sib borishiga erishish, tasvirlardagi mubolag‘aviylik kabilar shoiraning bu borada salohiyatli ijodkor bo‘lib yetishgani dalillaydi.

8. Shoira g‘azallaridagi yopiq yoki istioraviy izofiy deb ataluvchi istioralar Muslihabeginiga lirik qahramonning holini ifodalash imkonini yaratadi, Layli va Majnun, Yusuf va Zulayho singari an’anaviy adabiy qahramonlarni lirik qahramon yoki oshiqlarga qiyoslab, talmehdan tashbih hosil qilish uslubi shoira g‘azallarida keng qo‘llaniladi va shu asosda u g‘azaldagi ilohiy mazhar – Muhammad alahis-salom vositasida ilohiy ishq badiiy tasvirlashga muvaffaq bo‘ladi. Ijodkorning «Dargohingga bir ojiz-u nolon keladurman» satri bilan boshlanuvchi g‘azalida tansiq us-sifotlarning qofiya vazifasida ham qo‘llangani ularning ta’sir kuchini yanada oshirilishiga bois bo‘ladi

9. Muslihabegin Miskin musammatlar ijod etishda ham mahoratlari shoira sanaladi. Ayniqsa, uning eng noyob ko‘rinishi yetti bandli, oltmis uch misradan tarkib topgan mustasne’ janrini shoira devonidagina kuzatish mumkin. «Ey dilbaronro dilbari» satri bilan boshlanuvchi rajazi murabba’yi solim (mustafilun mustafilun) vaznida yozilgan ushbu mustasne’da istiora, tashbih va tansiq us-sifotning nihoyatda noyob ko‘rinishlarini uchratish mumkin. Shoiraning Muhammad (a.s.)ga munosib ko‘rilgan o‘nga yaqin sifatlarining istioralashtirilgan holda qo‘llanishi va ularning bari undalmalar bo‘lib, mustasne’ bandida ta’didni hosil qilishi, shunday ohangdorlik tashbihi mo‘kadlar vositasida ham vujudga keltirilishi shoiraning muhim adabiy mahorati sifatida ko‘zga tashlanadi.

10. Muslihabegin Miskin g‘azal va unga bog‘liq bo‘lgan lirik janrlarda ta’did va so‘z takroriga asoslanuvchi badiiy san’atlardan fikrni ta’kidlashda unumli foydalangan. Lirik qahramon holining badiiy ifodasida ta’did san’atining qo‘llanilishi unga ham fikrni ta’kidlash, ham uni tadrijiy rivojlantirish imkonini hosil qilgan. Shoira ijodida o‘nga yaqin barcha baytlarning saj’li qofiyalanishidan, 6 ta matla’larigina to‘liq saj’li qofiyalanmay, qolgan baytlari saj’li qofiyalardan tarkib topgan g‘azallarning uchrashi uning qofiya san’atlaridan ham ustalik bilan foydalanganligidan dalolat beradi.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. MUSLIHABEGIM MISKIN ADABIY MEROXI VA SHE'RIYATINING JANRIY XUSUSIYATLARI.....	7
Muslihabegim Miskin she'riyatida shoira hasbi holining ifodalanishi	
1.2 Miskin devonlarining tarkibi va janriy xususiyatlari.....	7
II BOB. MUSLIHABEGIM MISKINNING LIRIK JANRLAR VA SHE'RIY HIKOYAT YARATISHDAGI BADIY MAHORATI.....	37
2.1. G'azal va unga bog'liq bo'lgan lirik janrlar.....	37
2.2. Muslihabegim Miskin she'riyatining obrazlar olami va ularning poetik funksiyasi.....	57
2.3. Muslihabegim Miskin she'riy hikoyatlarining muhim poetik xususiyatlari.....	69
III BOB. MUSLIHABYEGIM MISKINNING BADIY SAN'ATLARDAN FOYDALANISHDAGI SHOIRLIK MAHORATI.....	80
3.1. Shoira she'riyatida istiora, tashbih, tansiq us-sifotning qo'llanilishi.....	80
3.2. Miskin she'riyatida ta'did, so'z takroriga asoslangan badiiy san'atlar va musajja' g'azallar.....	88
Xulosa.....	100

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

DIJOROM SODIQOVA

**MUSLIHABEGIM MISKIN SHE'RIYATI
POETIKASI**

“ FAN ZIYOSI ” nashriyoti

Litsenziya AI № 195, 15 dekabr 2023.

2023yil 15 dekabrga bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 60x90, TIMES TAD garniturasi,

7-shartli bosma taboq, soni 100 nusxa.

Duna poligraf bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Buxoro shahar Mustaqillik ko`chasi 28 uy

E-mail: ya.duna2012@yandex.ru duna_poligraf@bk.ru

KBK: 84.10(5O'zb) S-17

UO'S: 678.841.623.15

ISBN 978-9910-744-91-0